

MARKAZIY OSIYO GEOGRAFIYASI



NAMANGAN - 2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAXMEDOV I.K., MAKULOV J.T.

MARKAZIY OSIYO GEOGRAFIYASI
(Ma'ruza matni)

Namangan - 2020

Mirzaxmedov I.K., Makulov J.T. Markaziy Osiyo geografiyasi. Ma’ruza matni, Namangan. “Namangan” nashriyoti, 2020 yil, – 150 bet.

Mazkur ma’ruza matnida Markaziy Osiyo davlatlari, ularning tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, foydali qazilmalari zaxirasi, axolisi, mexnat resurslari, axolining etnik va diniy tarkibi, iqtisodiyoti, sanoati, transporti, turizmi, eksport va import ko’rsatkichlari va ijtimoiy – iqtisodiy sohaga oid statistik malumotlar o’z ifodasini topgan.

Ma’ruza matni geograflar, iqtisodchilar, talabalar, magistrantlar va shu sohaga qiziquvchi kitobxonlar ommasiga uchun mo’ljallangan.

MA’SUL MUHARRIR:

Baratov A.S. – geografiya fanlari nomzodi, dotsent

TAQRIZCHILAR:

Mirzaaxmedov H.S. – geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Boymirzayev K.M. – geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Ma’ruza matni Namangan davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2020 yil _____dagi _____ sonli yig’ilishida muxokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

© O’zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta maxsus ta’lim vazirligi, 2020 y.

© Namangan davlat universiteti, 2020 y.

KIRISH

XXI asr Markaziy Osiyoda qator iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu esa Markaziy Osiyo iqtisodiyotiga, aholi geografiyasiga, mintaqalar rivojlanishiga juda katta ta'sir etdi. Markaziy Osiyo davlatlarida integratsionallashuv, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari rivojlandi. Siyosiy vaziyat, mamlakatlar xo'jaligi va uning tarkibi, ixtisoslashuvining miqdoriy ko'rsatkichlari o'zgarib, mamlakatlar integratsiyasi shakllanib, yangidan – yangi iqtisodiy va siyosiy ittifoqlar, birlashmalar vujudga keldi.

Mazkur ma'ruza matnida Markaziy Osiyo davlatlarining chegaralari, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, foydali qazilmalarning tarqalish geografiyasi, geografik o'rni, xududi, iqtisodiyoti, sanoati, transporti, yalpi ichki maxsuloti, aholisi, aholi zichligi, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy, tabiiy va turistik xaritalari, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariva ushbu soxaga oid statistik malumotlarga alohida to'xtalib o'tilgan.

Unga ko'ra, ma'ruza matni Markaziy Osiyodagi har bir mamlakatning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohasiga oid ma'lumotlar, xarita va diagrammalar berilgan. Shuningdek, ayrim statistik va boshqa iqtisodiy geografik malumotlar mualliflar tomonidan yetarlicha berilmagan bo'lishi mumkin.

Mualliflar

I-BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI

Reja:

1. Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, chegaralari.
2. Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Markaziy Osiyo geosiyosati.

Tayanch tushunchalar: Geografik o`rni (tabiiy va iqtisodiy geografik ) tabiiy sharoit, tabiiy resurslari , tabiiy- geografik o`lka, siyosiy – ma`muriy chegara, chegara uzunligi, tabiiy sharoitiga va tabiiy resurslariga baho berish, berk havza; hudud, region, tektonik harakat, geologik tuzulish.

1. Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, chegaralari.

Maydoni – 3993,0 ming km². Aholisi – 2018 yil bo'yicha 73.1 mln. kishi. Sobiq Ittifoq parchalangandan so'ng Markaziy Osiyodagi 5 ta respublika - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston mustaqillikka erishgach davlat rahbarlari tomonidan, 1992 yildagi rasmiy uchrashuvda "Markaziy Osiyo" atamasini qabul qildilar. Hozirda bu atama jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan.


Markaziy Osiyo mamlakatlari		
	Qozog'iston	Nur-sulton
	Qirg'iziston	Bishkek
	Tojikiston	Dushanbe
	Turkmaniston	Ashg'obot
	O'zbekiston	Toshkent

Aksariyat xalqaro tashkilotlar, xalqaro miqyosda ish yurituvchi siyosatshunos, tarixchi, sotsiolog, xuquqshunos, iqtisodchilar ushbu atamadan keng foydalanishadi. Chunki Markaziy Osiyo atamasiga nisbatan O'rta Osiyoni jahon davlatlari yaxshi taniydi. Xorijiy davlatlarda Markaziy Osiyoni o'rganuvchi


tadqiqot institutlari ochilgan. Ammo, geografik nuqtai nazardan olganda, uning tarkibiga Afg'oniston, Mo'g'ulistonning bir qismi, Xitoyning Uyg'ur viloyati xam kiradi. Bundan tashqari keng ma'nodagi Markaziy Osiyo atamasi xam borki, unga Eron, Ozarbayjon, Turkiya xatto Hindistonning ma'lum qismlarini, ham qo'shadilar. Shu bois geografik o'rganishda Markaziy Osiyo atamasi qo'llaniladi. Shunday qilib, Markaziy Osiyoga iqtisodiy geografik nuqtai nazardan 5 ta mustaqil davlatni kiritib o'rganamiz.

Markaziy Osiyo Kaspiy dengizidan to Yapon dengizigacha 7 ming km, shimoldan janubga 1.5 ming km masofana cho'zilgan bo'lib, 6 mln.kv.km maydonni egallaydi. Kopetdog', Hindiqush, Pomir va Kunlun' tizmalari bilan tutashib ketgan Tibet bu katta o'lkani janubiy dengizlar ta'siridan himoyalab turadi. Shimolda Oltoy, Sayan tog'lari, Stanovoy, Yablonevoy tizmalari, Xingan tog'i Shim.Muz okeani ta'siridan asraydi. Tyanshan tog'i Markaziy Osiyoni ikki qismga ajratib turadi. MO iqlimi keskin kontinental cho'l iqlimidir. Bu yerda doim qattiq shamollar esib turadi. Qumlarni uchirib chang bo'ronlar hosil bo'ladi.

Bu yerlarni o'rgangan sayyohlar kartalarda ko'rsatilmagan noma'lum daryo o'zanlarini, qadimgi shahar xarobalarini, qum bilan to'lgan quduqlarni uchratganlar. Ular haqida hatto rivoyatlar ham saqlanib qolmagan. Mana shu ulkan hududda Xitoy va Markaziy Osiyogina insoniyat sivilizatsiyasida faol yashab kelgan. Markaziy Osiyoda qum uyurmalariga qarshi tura oladigan tabiat kuchlari – Amudaryo va sirdaryo bor edi. Issiqko'l, Orol, Kaspiy namlikni ushlab turar edi. Markaziy Osiyo g'arbdan sharqqa 2400, shimoldan janubga 1280 km ga cho'zilgan. Mo'tadil va tropik havo massalari hukmronlik qiladi. Bu yerda ro'y beradigan qum bo'ronlari Markaziy Osiyo xalqini sug'oriladigan madaniy yerlarning har bir qismini saqlab qolish uchun tinmay mehnat qilishga o'rgatgan. MO dashtlari Vengriya tekisliklarigacha cho'zilgan. Markaziy Osiyoda ko'chmanchilikning shakllanish jarayoni murakkab kechgan. Avval yarim o'troq turmushning ko'p belgilarini saqlab qolgan “dastlabki ko'chmanchilik” paydo bo'ladi. Tabiiy sharoitlar unumdor o'troq dehqonchilik uchun mhimkon bermagan joylarda ko'chmanchi chorvachilik vujudga kelib, mustahkamlanadi.



1-rasm. Markaziy Osiyoning siyosiy-mamuriy xaritasi



2-rasm. Markaziy Osiyoda etnik tarkibining tarqalishi

Ko'chmanchilik eramizdan avvalgi birinchi ming yillik boshida atrof-muhitga moslashishning birdan-bir imkoniyati bo'lgan joylarda paydo bo'lgan. Ko'chmanchilar o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lib, ancha qulay sharoitlarni izlab yurardilar. Ular o'tloqlar uchun kurashda boshqa qabila yoki markazlashgan davlatlar bilan to'qnashib qolar edilar. Bu narsa ularni to'planish va markazlashishga undar, natijada, Og'uzxon, Chingizxon kabi "Xarbiy ko'chmanchi imperiyalar" shakllanishiga asos solgan edi. Ot ular hayotining asosini tashkil etardi. transport vositasi, go'shti iste'mol qilinar, terisi poyafzal, kiyim-kechak va yurtalarni qoplashga ketar, yollari ip, sutidan qimiz, qatiq, suzma, pishloq, xatto qurt ovqat tayorlangan. Ular qishda isitilgan qishlov-qishloq deb atalgan uylarda yashab, yozda yaylovlarga jo'nab ketishgan.

Ilgari bu o'lka Turkiston, ya'ni turkiy xalqlar o'lkasi deb ham atalgan. "Turk" - so'zining kelib chiqishi Turk xoqonligida Nuh payg'ambarning sulolasi bilan bog'liq. Uning o'g'li Yofasning to'ng'ich o'g'lining ismi bo'lib, nurli, bahodir ma'nosini anglatadi. U Quyosh (uni tangri deb bilishgan) bilan tenglishtirilgan. Unga bo'lib berilgan hudud (ulus) va aholisi bilan turkiy xalqlar o'lkasi (Turkning o'lkasi) deb yuritilgan. Turk shu o'lkaning birinchi xoqoni bo'lgan. Keyinchalik mazkur xalq tarqalib ketgan.



3-rasm. Markaziy Osiyoning tarixiy xaritasi

Markaziy Osiyodagi davlatlarning shakllanishida keyinchalik arablar, mo'g'ul-tatarlar va ularning avlodlari, undan so'ng xonliklarning roli nihoyatda

katta bo'lgan. Ayniqsa, XIX asrda ruslar ta'siri ostida qator davlatlar tarkib topa boshlaydi. 1917 yildagi inqilob natijasida ularda xalq xokimiyati o'rnatiladi. Mintaqada Ya.Rudzutak boshchiligida Turkistonda respublikalar tarkibida (**Turkiston, Xorazm, Buxoro**) muxtor viloyatlar tuzish taklifi kiritiladi, u V.Lenin tomonidan qo'llanadi va "Turkmaniya, Qirg'iziya, Uzbekiya" kartalarini tuzish lozimligini aytadi. 1924 yil 12 iyunda Markaziy komitet Markaziy Osiyoda milliy chegaralanish o'tkazishga qaror qiladi, Xorazmni kiritmaydi, ammo ular 26 iyulda o'zlari iltimos qilishadi. 1924 yilda O'zbekiston (tarkibida Tojikiston ASSR), Qozog'iston (tarkibida Qirg'iziston ASSR), Turkmaniston SSR tuzildi. 1929 yilda Tojikiston keyinchalik 1936 yilda Qirg'iziston ajralib chiqdi va SSSR tarkibidagi mustaqil respublikalar bo'ldi, 1991 yilda mustaqil davlat maqomini oldi.

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Murg'ob daryolari vodiylarida bizning asrimizgacha bir qancha qadimgi buyuk davlatlar bo'lgan. (Baqtriya, Marg'iyona, Xorazm, So'g'diyona va boshqalar). XVI asr boshlarigacha Markaziy Osiyodan Yevropa va Osiyoni tutashtirib turuvchi Buyuk Ipak Yo'li o'tgan edi. Keyinchalik dengiz yo'llarining ochilishi bilan Markaziy Osiyodan o'tgan Buyuk Ipak Yo'li inqirozga yuz tutdi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarini tashqi bozordan uzib qo'ydi. XIX-asr Markaziylariga kelib Markaziy Osiyoning boy tabiiy resurslari chet el kapitalistlarini o'ziga jalb qildi. Natijada Markaziy Osiyoni Rossiya o'z tarkibiga qo'shib oldi va o'zining xom ashyo bazasiga aylantirdi. Xom ashyoni olib ketish maqsadida Zakaspiy, Toshkent-Orenburg temir yo'llari qurildi.

Markaziy Osiyodan asosan paxta tolasi, qora ko'l va pilla olib ketilar edi. Markaziy Osiyo Respublikalariga Qozog'iston va Markaziy Osiyo respublikalaridan-Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston hamda Qirg'iziston respublikalari kiradi. Ularning hududi 3994,4 ming km.kv. (MDHning 18 foizi), aholisi MDHning 20 foiz aholisini tashkil etadi. Markaziy Osiyo - shimoliy yarimsharda, Yevrosiyo materigining Markaziy qismida, 36 va 55 - shimoliy kengliklar va 47 - 86 gradus sharqiy uzoqliklar orasida joylashgan.

Tabiiy geografik o'rni - 4 ta okeandan uzoqligi, eng yaqin okean Hind okean bo'lib, uning ham ta'siri yetib kelmasligi, shimol tomonga ochiqligi va sovuq

havoning qish oylarida bemalol kirib kelishi bilan belgilanadi. O'lkaning G'arb tomonida uzoq bo'lishiga qaramay, Atlantika okeanining nam havo massalari kirib kelishi bu yerda yog'ingarchilikning hosil bo'lishiga yordam beradi. Sharqiy va Janubi qismlari 7 km dan ortiq balandlikka ega bo'lgan Pomir-Oloy va Tyanshan tizimiga mansub tog'lar bilan o'ralganligi, g'arbiy qismi tekislikdan iboratligi bilan ajralib turadi.


Iqtisodiy geografik o'rni – Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Eron bilan qo'shni, Kaspiy dengiziga ochiqligi ahamiyatlidir. Ammo arzon hamda boshqa davlatlar bilan bog'lanish qulay bo'lgan suv yo'liga chiqishi uchun kamida 2 ta davlat xududini bosib o'tishi lozim. Buyuk Rossiya, Xitoy davlatlari bilan yaqinligi iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir etadi, lekin Afg'oniston kabi rivojlanishda orqada qolgan davlatlarning salbiy jihatlari ustunlik qiladi. Ammo, shuni ham ta'kidlash lozimki, mamlakatlar o'zlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni unga sotishda bu qo'shniçilik qo'l keladi.

Transport-geografik o'rnining qulay tomonlari - Kaspiy dengizi orqali janub davlatlari, Rossiya, Kavkaz davlatlari bilan bog'lanishda ahamiyati katta. Temir yo'llar orqali Rossiya, Qozog'iston orqali Yevropa bilan bog'lanish imkoniyatlariga ega. Bunda shimol va g'arbning tekislik ekanligi qo'l keladi. Sharqda baland tog'larning mavjudligi Xitoy va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy jihatdan bog'lanishiga to'sqinlik qiladi. O'lkaning **siyosiy geografik o'rni** janubda notinch Afg'onistonning joylashganligi va hanuzgacha barqarorlik o'rnatilmaganligi, 1992 yilda Tojikistonda, yaqinda ro'y bergan Qirg'izistondagi siyosiy voqealar bilan ta'riflanadi. Markaziy Osiyo qadimiy sivilizatsiyalar, dinlar, Buyuk davlatlar to'qnashgan xududda joylashgan. Mustaqillikka erishgan yosh davlatlar o'zini xali iqtisodiy, siyosiy barqarorligini o'rnatgunga qadar boshqa buyuk davlatlarning turli maqsadlardagi o'ziga xos geosiyosiy qarashlari bo'lishi tabiiy holdir.

4-rasm. Markaziy Osiyodagi quvurlar



5-rasm. Markaziy Osiyoda transport va energetika infratuzilmasi



Markaziy Osiyo serquyosh o'lkaligi va issiqsevar meva-sabzavotlarning yetishtirilishi, aholi yashashi uchun qulay ekanligi, qadimdan sivilizatsiya o'chog'i bo'lib kelgani, ko'p jihatdan ajralmas bir butun o'lka ekanligi o'ziga xos geosiyosiy holatning shakllanishi bilan boshqa rayonlardan ajralib turadi. Ayniqsa mustaqillikka erishgach Markaziy Osiyo siyosiy kartasi o'zgardi. Yosh mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan jahondagi buyuk davlatlarning, qo'shni musulmon davlatlarining bu xududga nisbatan o'z qiziqishlari, geosiyosiy qarashlari paydo bo'ldi. Bu o'lka X.Makkinder aytgandek Yevrosiyaning yuragi - "Xartlend"ni tashkil etadi. So'nggi yillarda mintaqa xorijiy davlatlar uchun go'yo magnitdek o'ziga tortuvchi xudud bo'lib, u nafaqat neft-gaz va boshqa boyliklari

uchun, balki 19 - asrga o'xshab buyuk Rossiya va AQSH Markaziysida kurash maydoniga aylanmoqda.

Asosiy geosiyosiy omillar quyidagilardan iborat:

- Xududning geografik o'rni
- Tabiiy va mineral , ayniqsa energetika resurslari
- Keng iste'mol bozori, nisbatan malakali va arzon ishchi kuchining ko'pligi
- Rekreatsion salohiyat
- Siyosiy va harbiy ishtirokning ta'minlanishi
- Xududning Afg'oniston, Eron, Kavkaz muammolariga o'tish yo'lida ekanligi.

Markaziy Osiyo siyosiy xaritasining keyingi ikki asr davomidagi tarkib topishida bir necha bosqichlarni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasidagi davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda o'lkada uchta yirik davlat - Qo'qon honligi, Hiva honligi va Buxoro amirligi mavjud bo'lgan.

Ikkinchi bosqich. Mustamlaka davrni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichda Markaziy Osiyo Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan.

Uchinchi bosqich. Juda qisqa davrni (1917-1920|22) o'z ichiga oladi. Bu bosqichda o'lkada uchta mustaqil davlat paydo bo'ldi; Qo'qon muxtoriyati, Buxoro va Xorazm respublikalari.

To'rtinchi bosqich (1924-1991). Markaziy Osiyoda beshta ittifoqdosh respublikalar tashkil qilindi (O'zbekiston Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston davlatlari).

Beshinchi bosqich. 1991 yildan boshlanadi. Uushbu bosqichda sobiq ittifoqning parchalanishi munosabati bilan ittifoqdosh mustaqil davlatlar tashkil topdi: O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'izistondan iborat.

2. Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy sharoiti va resurslari.

Markaziy Osiyo davlatlari hududi tabiati nihoyatda xilma-xil bo'lib tekislik, tog'lik, cho'l va chala cho'l landshaftlaridan iborat. Mintaqada Pomir, Oloy, Tyan-

Shan kabi tizmalar joylashgan. Bu tog'larda MDH davlatlarining Ismoil Somoniy, G'alaba, Xontangri kabi balandligi 7000 m dan ortadigan cho'qqilari ko'p. Shuningdek Markaziy Osiyoda past tekisliklar va botiqlar ham ko'pdir.

Markaziy Osiyoning eng past cho'kmasi Qoragiyo (Botir) bo'lib, u dengiz sathidan -132 m pastda joylashgan. Tog'liklarda katta muzliklar ham uchraydi. Ayniqsa Fedchenko va Inelchek muzliklari alohida ahamiyatga ega. Tog'lardagi muzliklardan ko'plab daryolar boshlanadi. Mintaqaning tog'li va tog' oldi zonalari o'zining seysmik aktivligi bilan ajralib turadi (Andijon zilzilasi 1902 y, Ashxobod-1948, Toshkent 1968-va boshqalar).




6-rasm. Markaziy Osiyoning relyef xaritasi

Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida va shimolida Kaspiy bo'yi va Turon past tekisligi joylashgan bo'lib, uning katta qismi Qoraqum va Qizilqum cho'llari bilan band. Mintaqa iklimi keskin kontinental, sovuqsiz kunlar 200-240 kunga to'g'ri keladi. Vegetatsiya davrining uzoqligi hamda havo temperaturasining yuqoriligi janubda ingichka tolali paxta, shimolda esa erta pishar paxta yetishtirishga imkon beradi.

Paxtachilik Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi dehqonchiliklaridan hisoblanadi. Yog'in miqdori cho'llarda 50 mm dan tog' oldida 300-400 mm ga yetadi. Ayrim joylarda esa 700-800 mm ni tashkil etadi. Mintaqa daryolari asosan

kam suvli bo'lib, berk havzaga kiradi. Sug'orishda ishlatiladigan daryolari Amudaryo, Sirdaryo, Tajan, Murg'ob, Chuy va boshqalardir. Sug'oriladigan yerlar shu daryolar vodiylari hisoblanadi.

O'lkaning katta tekislik qismida oqar suvlar yetishmaydi. Shu bilan birga mintaqa gidroenergetika resurslariga boy. MDH davlatlari orasida gidroenergetika resurslari bo'yicha Rossiyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Ayniqsa Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari yetakchi o'rinda turadi.



7-rasm. Markaziy Osiyo daryolari xaritasi

Markaziy Osiyo tog'lari va tekisliklarining geologik tuzilishi ancha murakkab bo'lib, bu yerlarda ko'plab rudali va rudasiz foydali qazilmalar bor. Neft konlari asosan Kaspiy bo'yi past tekisligida, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo vodiylarida, Tojikistonning tog' oralig'i botiqlarida ko'plab topilgan. Asosiy konlari Turkmanistonning g'arbiy qismida (Cheleken, Qumdog', Okarem), Qozog'istonda (Jetiboy, Yangi Uzen, Uzen), O'zbekistonda (Qorovulbozor, Ko'kdumaloq) joylashgan.

Qirg'iziston va Tojikiston respublikalaridagi neft konlari zahiralari nisbatan kam. Gaz konlari Turkmanistonda, O'zbekistonda va Qozog'istonda ko'p. Turkmanistonning deyarli barcha viloyatlarida (Toshovuzdan tashqari) gaz konlari topilgan. Qozog'istonda ko'proq Kaspiy bo'yida, O'zbekistonda Buxoro va

Qashqadaryo viloyatlari hududida yirik gaz konlari joylashgan. Turkmaniston gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ko'mir Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston Respublikalari hududlarida topilgan. Ayniqsa Qozog'istondagi Qarag'anda, Ekibastuz, To'rg'ay ko'mir havzalari eng yirikligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston hududidagi Angren kumir koni, Qirg'izistondagi Toshko'mir, Ko'k yong'oq konlari ham muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari mintaqa hududida rangli metallar ham ko'plab topilgan. Qozog'iston rangli metall rudalari bo'yicha alohida o'rinda turadi. Yirik mis konlari Jezqazg'an, Qo'ng'iro't, Bo'zshakal va boshqalardir. Polimetall rudalari Oltoyda, Kustanayda alyuminiy xom ashyolari topilgan. O'zbekistonda miss-konlari Olmalikda, oltin konlari Qizilqumda, volfram, molibden Olmalikda topilgan. Simob, surma qazib chiqarish bo'yicha Qirg'iziston oldingi o'rinlarda turadi. Qora-metallar Markaziy Osiyoda asosan Qozog'istonning shimoli-g'arbida Mug'ojar tog'larida topilgan. Qozog'iston temir rudasi bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

1-jadval. Neft va gazning tasdiqlangan zaxiralari, qazib olish va iste'mol qilish to'g'risidagi ma'lumotlar

Mamlakat nomi	Jami tasdiqlangan yog 'Zahiralar	Yog 'ishlab chiqarish	Yog 'Iste'-mol	Umumiy isbotlangan tabiiy Gaz zaxiralari	Tabiiy gaz Ishlab chiqarish	Tabiiy gaz Iste'-mol
Qozog'iston	30	1835	311	1.1	27.1	16.3
O'zbekiston	0.6	54	155	19.5	62.0	28.4
Turkmaniston	0.6	258	71	12	53.4	41.6

2-jadval. Gazprom Group tomonidan O'rta Osiyo va Ozarbayjonda gaz sotib olish, milliard kubometr hisobida

(bsm)	Мамлакатлар	2013	2014	2015	2016	2017
Yevropaga etkazib berish uchun	Turkmaniston	10.9	11.0	3.1	-	-
	O'zbekiston	5.7	3.6	3.5	4.3	5.5
	Qozog'iston	11.9	10.9	12.9	12.7	13.8

	Ozarbayjon	1.4	0.2	-	-	-
Qozog'iston janubiga etkazib berish uchun	Turkmaniston	0.3	-	-	-	-
	O'zbekiston	3.7	3.7	2.9	1.9	1.7
Qirg'izistonga etkazib berish uchun	O'zbekiston	-	0.004	*	*	*
	Qozog'iston	-	0.06	0.2	0.2	0.3

Izoh: * = 0,05 dan kam

3-jadval.

Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aylanmasi		Xitoyning Markaziy Osiyo bilan savdo aylanmasi	
Yil	mln \$	Yil	mln \$
2000	6.472	2000	1.819
2010	21.497	2010	30.112
2014	29.983	2014	45.012
2017	22.860	2017	35.879

4-jadval. Eron - Markaziy Osiyo umumiy savdosi

Yil	Eksport, million AQSh dollari	O'sish, %	Import, million AQSh dollari	O'sish, %	Savdo balansi, million AQSh dollari	Savdo hajmi, million AQSh dollari
2009-2010	677	-	829	-	-152	1506
2010-2011	730	8	348	-58	382	1078
2011-2012	921	26	343	-1	578	1264
2012-2013	1281	39	439	28	842	1720
2013-2014	1460	14	325	-26	1135	1785
2014-2015	1542	6	362	11	1180	1904
2015-2016	1269	-18	143	-60	1126	1412
2016-2017	1120	-12	356	149	764	14

Mintaqa kimyoviy xom ashyolarga ham boy. Qozog'istonning Jambul va Qoratovida, O'zbekistonda Qizilqumda yirik fosforit konlari topilgan.

Turkmaniston va Qozog'istonning Kaspiy bo'yi past tekisliklarida, Orol bo'yida yirik mineral tuzlari konlari topilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari rekreatsion resurslarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Bu yerda ko'plab qadimgi arxitektura yodgorliklari saqlanib qolgan. Bular o'z navbatida sayyoxlik ishlarini rivojlantirishni talab etadi. Hozirgi paytda tog' yonbag'irlarida, daryo, ko'l va dengiz bo'ylarida ko'plab dam olish maskanlari ishlab turibdi.



8-rasm. Markaziy Osiyoning turistik xaritasi

Markaziy Osiyo gidroenergetika resurslarning 55% dan ortig'i Tojikistonga to'g'ri keladi. Mintaqa boshqa tabiiy resurslarga jumladan, iqlim, yer, o'rmon, rekreatsiya resurslariga boy ekanligini, ularning miqdoriy taqsimlanishi, geografik joylashuvi, regionning geografik o'rnini xususiyatlari bilan bog'liq malumotlarni ko'rsatib o'tildi. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning tabiiy sharoiti xilma-xil, keskin kontraslikga ega. Janubdan – shimolga, sharqdan – g'arpga brogan sari bu xilma – xillik ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Tabiiy resurslar ham hududda bir tekisda taqsimlanmagan va joylashmagan.

3. Markaziy Osiyo geosiyosati.

XXI asrning birinchi o'n yilligi oxirida Markaziy Yevrosiyoda xalqaro munosabatlarning yangi tizimi shakllandi. Sobiq ittifoq respublikalari asosida

vujudga kelgan yangi davlatlar jahon hamjamiyatiga qo'shilishni yakunladilar va o'zlarini geosiyosat subyektlari deb e'lon qildilar. Markaziy Yevrosiyoning yangi davlatlari allaqachon o'zlarining milliy manfaatlarini hisobga olgan holda kelgusi o'n yilliklar uchun o'z geostrategiyalarini belgilab oldilar. Ushbu davlatlarda rivojlanishning sovet modeli bilan tanaffus bo'ldi, ammo milliy davlatchilikni shakllantirish jarayoni hanuz davom etmoqda.

Shu bilan birga, Markaziy Yevrosiyoda xalqaro munosabatlarning yangi quyi tizimi shakllantirilmoqda, unda ishtirokchi davlatlar - Tojikiston, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Eron, Pokiston, Hindiston ShHT mintaqaviy tashkilotining a'zolari yoki kuzatuvchilari bo'lib, kelajakda ular muhim rol o'ynashlari mumkin. Turkmaniston geosiyosiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi - boy energiya manbalariga ega neytral mamlakat va jahon siyosati uchun muhim geostrategik potensial. Dunyoning yetakchi o'yinchilari Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi yangi xalqaro munosabatlar tizimining "asosiy" tarkibiy qismidir va aynan shu davlatlar bu yerda ro'y berayotgan geosiyosiy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Garchi, ular xalqaro siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlasalar-da, mintaqaviy o'yinchilar - Markaziy Yevrosiyoning yangi davlatlari, Eron, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Saudiya Arabistoni va Yaponiya Markaziy Yevrosiyodagi siyosiy jarayonlarning borgan sari sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Yaqinda Yevrosiyo - Rossiya, Xitoy va Hindistonning eng muhim kuch markazlari o'rtasida ikki tomonlama va ShHT doirasida kuchaytirilgan hamkorlik Yevrosiyo qit'asida sifat jihatidan yangi geosiyosiy voqelikni yaratmoqda. Uzoq vaqtdan beri raqib bo'lgan Hindiston va Pokiston Shanxay hamkorlik tashkilotining kuzatuvchilari bo'lgan. Yevropa va Amerikada ular kelajakda to'rtta yadro kuchlari - Rossiya, Xitoy, Hindiston va Pokistonni, shuningdek mintaqada katta siyosiy vaznga ega bo'lgan Eronni o'z ichiga oladigan yangi geosiyosiy klubni kuchaytirishga e'tibor berishga qodir emaslar. 2006 yildagi Shanxay yubiley sammitida tashkilot birinchi marta o'z manfaati va majburiyatlari doirasini e'lon qildi. Bu ShHT ning global xavfsizlik tizimidagi - barqarorlikni ta'minlash bo'yicha

shartnomalar tizimidagi rolining kuchayganligidan dalolat beradi. ShHT Yevrosiyo qit'asida mavjud bo'lgan global va mintaqaviy xavfsizlik tuzilmalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun dastlabki qadamlarni qo'ydi, bu bizning davrimizning muhim xavfsizlik muammolarini Yevropa Ittifoqi - ShHT-ASEAN, ShHT-MDH, ShHT-YevrAzES, ShHT-KXShT. Shu bilan birga, faoliyatni muvofiqlashtirish, umumiy qarashlar va qiziqish va javobgarlik sohalarini aniqlashning yondashuvlarini ishlab chiqish uchun mos mexanizmni ko'rib chiqish, shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan mintaqaviy integratsiya tashkilotlari va ShHTga a'zo davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama formatlarda mavjud o'zaro aloqalarni hisobga oladi. Shu nuqtai nazardan, 2005 yil aprel oyida ShHT va ASEAN, ShHT va MDH o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumlarining imzolanishi muhim ijobiy qadam bo'ldi. ShHT va KXShT hamkorligi muammolarini hal qilishda muammolar mavjud. Uning rahbariyati tomonidan e'tirof etilgan ODKBning bu muammosi postsovet hududidagi turli integratsion tashkilotlar, xususan, MDHning o'zi, ODKB va ShHT o'rtasidagi harbiy-siyosiy sohadagi vazifalarning noaniq taqsimlanishidir. Shu bilan parallel ravishda, Bishkekda MDH Antiterror markazining vakolatxonasi va Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi mavjud. ODKB va ShHT kun tartibida Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikning bir xil muammolari turibdi. Shu bilan birga, ODKB va YevrAzESning tarkibi deyarli bir xil va bu ikki tashkilot o'rtasidagi yaqinlashuvga olib keladi. Ammo bu tashkilotlarning maqsad va vazifalari turlicha. ODKB o'z majburiyatlari doirasidagi harbiy tahdidlarni aks ettirishga chaqiradi.

Markaziy Yevrosiyaning hozirgi bosqichidagi geosiyosiy vaziyat quyidagi omillar bilan belgilanadi: Qozog'istonning iqtisodiy qudrati o'sib borishi, Markaziy Yevrosiyo davlatlariga Qozog'iston sarmoyasi eksport qilinishining boshlanishi va shunga mos ravishda mintaqaviy munosabatlardagi siyosiy vaznning oshishi, hal etilmagan geosiyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan tojik-o'zbek munosabatlari, mintaqaviy va mintaqadan tashqari kuchlarning Turkmanistonning energiya manbalari uchun raqobati, Qirg'izistondagi tizimli inqiroz, Tojikistondagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, Farg'ona vodiysining demografik muammosi, mehnatga

layoqatli aholining yuqori darajada tashqi migratsiyasi, afg'on mojarosining avj olishidir.

Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy o'zgarishi va ularning xavfsizlik tizimlarini shakllantirishda ichki omillarga qo'shimcha ravishda tashqi omillar ham katta rol o'ynaydi. Hozirgi bosqichda Markaziy Yevrosiyodagi etakchi kuchlarning harakatlari tahlili shundan dalolat beradiki, ularning har biri o'z milliy manfaatlarini amalga oshirish usullari va usullari to'g'risida o'z qarashlariga ega. Markaziy Yevrosiyoda Rossiyaning milliy manfaatlarini umuman quyidagi holatlarga qisqartirish mumkin:

- Mintaqaning barcha davlatlari bilan sheriklik asosida barqarorlikni ta'minlash;
- Rossiyaning jahon va mintaqaviy kuch sifatida amaliy va maqom vazifalarini hal qilish uchun o'zlarining geosiyosiy potentsialidan foydalanish;
- Rossiyaning ushbu mintaqadagi etakchi rolini xalqaro tan olish.

Shu munosabat bilan Rossiya oldida quyidagi amaliy vazifalar turibdi: Ya'ni, mavjud ko'p tomonlama mexanizmlardan unumli foydalanish, janubiy chegaralarni jihozlash, harbiy hamkorlikni rivojlantirish va rivojlantirish, Markaziy Yevrosiyoning energiya va tabiiy resurslaridan foydalanish, Rossiya energetika kompaniyalarini o'z bozorida ilgari surish, mintqa davlatlari tomonidan Rossiya eksport tuzilmasidan foydalanishga intilish va x.k.

Rossiyaning "postsovet" loyihasi RSFSRning Markaziy Osiyo respublikalari bilan sobiq ittifoqchilik munosabatlarini xalqaro huquqiy asosda davlatlararo munosabatlarga o'zgartirishga, mintaqadagi xalqaro munosabatlarning yangi modelini yaratishga, shu jumladan, mintqa davlatlarini o'zlari bilan bog'lab turishni AQShning jahon miqyosidagi kursini tuzatishning mumkin bo'lgan omillaridan biri sifatida ko'rishga qaratilgan. Endi Rossiya iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga va xavfsizlikka qarshi yangi tahdidlarni birgalikda engishga asoslangan pragmatik va muvozanatli yondashuvni amalga oshirmoqda.

Ayrim tahlilchilarning fikriga ko'ra, Rossiya postsovet Markaziy Osiyosida o'z ta'sirini yo'qotmoqda, deyish mumkin, garchi postsovet Markaziy Osiyosining barcha davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan tashkil etilgan integratsiya tashkilotlarida (MDH, YevrAzES, ODKB) samarali hamkorlik qilsalar ham. Ikki tomonlama munosabatlarning mavjud muammolari strategik ahamiyatga ega emas va diplomatik darajada hal qilingan. Bu yerda o'zaro munosabatlardagi tomonlarning manfaatlari nisbatan teng ravishda hisobga olinadigan munosabatlarning yangi modelini yaratish istagi paydo bo'ladi. Ammo shu bilan birga, Markaziy Osiyoda yangi geosiyosiy voqelikni hisobga olgan holda aniq tashqi siyosat strategiyasi mavjud emas.

Markaziy Yevrosiyo mintaqasidagi yana bir nufuzli ishtirokchisi, Xitoy o'zining siyosatiga xos ehtiyotkorlik bilan pragmatik strategik yondashuvni qabul qiladi, chunki uning tashqi siyosatidagi asosi muammolar Sharqiy Osiyoda joylashgan. Bundan tashqari, XXR Markaziy Yevrosiyoda o'zining strategik manfaatlarini aniq ko'rsatmaydi. Biroq, Xitoyning mintaqadagi manfaatlari aniq belgilangan:

- terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish;
- chegara hududlarida xavfsizlikni ta'minlash;
- mintaqada barqarorlikni saqlash;
- iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish;
- mintaqada davlatlarining Xitoy bilan do'stona aloqalarini ta'minlash;
- Xitoyga dushman bo'lgan davlatlarning O'rta Osiyo ustidan monopolistik boshqaruvining oldini olish;
- Mintaqada Xitoyga qarshi harbiy ittifoqlar tuzilishining oldini olish;
- Xitoyning mintaqadagi energiya manbalari ochiqqligini ta'minlash.

Hozirgi kunda Xitoy o'tgan asrning 90-yillariga qaraganda ancha faolroq, Markaziy Yevrosiyo davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorlikda, ShHT doirasida va har doim o'zining strategik hamkori - Rossiya manfaatlarini hisobga olgan holda ikki tomonlama formatda qatnashmoqda. Xitoy uchun Rossiya bilan CenterYevAz da hamkorlik AQShning mintaqadagi siyosatini o'z ichiga olgan

holda ham muhimdir. Agar XX asrning oxirida Shinjonda xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan Markaziy Yevrosiyo muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa va XXI asrda Markaziy Yevrosiyo mintaqasidagi Xitoy manfaatlari energiya va resurs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun hayotiyga aylantirildi. Xitoyning strategik manfaatlariga, hech bo'lmaganda, 21-asrning o'rtalariga qadar yangi Markaziy Yevrosiyo davlatlarini iqtisodiy ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Markaziy Yevrosiyaning yetakchi tashqi ishtirokchilaridan biri bu AQSh. Markaziy Osiyoga nisbatan zamonaviy Amerika strategiyasining yangi elementi Markaziy Osiyoda (Katta Markaziy Osiyo) qayta tashkil etilgan va "kengaytirilgan" hududda AQShning yopiq mintaqaviy xavfsizlik tuzilishini yaratish loyihasidir. Amerikalik siyosatshunos Frederik Starning topshirig'iga binoan Buyuk O'rta Osiyo kategoriyasi paydo bo'ldi - yangi mustaqil davlatlar, Afg'oniston, Pokistonning makonlari paydo bo'ldi, bu yerda Buyuk O'rta Osiyoni hamkorlik va rivojlantirish bo'yicha hamkorlik tashkiloti (PBCA) tashkil etilishi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlarning fikriga ko'ra, kelajakda sheriklik Hindistonni, Turkiyani jalb qilishi kerak, ya'ni bu integratsiya o'zi Markaziy Osiyoning geografik chegaralaridan tashqariga chiqadi. Ko'rinishidan, AQSh ShHT vaYevrAzES kabi tuzilmalarga iqtisodiy va siyosiy alternativa yaratishga harakat qilmoqda. AQShning asosiy raqiblari - Rossiya va Xitoy demokratik davlatlar mezonlariga javob bermasligi sababli mintaqaviy jarayonlardan chetlatilishi rejalashtirilmoqda. Ammo Buyuk O'rta Osiyoning geokontsepsiyasi AQSh uchun mintaqadagi barcha iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni Rossiya va Xitoy aralashuvisiz boshqarish uchun kerak. Markaziy Osiyoning yangi geosiyosiy tuzilishi AQShning mintaqaviy va global miqyosda etakchi rolini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Markaziy Osiyoning ko'pgina tahliliy jamoalari BCA geokonsepsiyasini XXI asr boshlarida mintaqa davlatlari geosiyosat ob'ekti emasligi, ammo jiddiy modernizatsiya qilinishni talab etadigan va mamlakatlarda amalga oshirilishini talab qiladigan ob'ektiv mavjud haqiqatni hisobga olmagan holda BCA

geokonsepsiyasini o'z milliy manfaatlarini amalga oshirishga Amerikaning yondashuvi sifatida ko'rdilar. mintaqaga xos modernizasiya loyihalari. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi iqtisodiy va siyosiy muammolar allaqachon ShHTga a'zo davlatlar va kuzatuvchilar tomonidan ko'rib chiqilmoqda. AQShning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan Katta Markaziy Osiyo loyihasi Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga va YevrAzESga samarali integratsiyalashgan Markaziy Osiyo davlatlari orasida hali ham qo'llab-quvvatlanmayapti.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo uchun strategik ustuvorliklarini "ehtiyotkorlik" deb ta'riflash mumkin, bu asosan Yevropa Ittifoqining Yevropadagi muammolar va o'zgarishlarga ko'proq moyil bo'lishi bilan bog'liq. Umuman olganda, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari Qo'shma Shtatlarnikiga nisbatan kuchli emas, ammo so'nggi yillarda Yevropaliklarning mintqa ishlariga qiziqishi va ishtiroki tobora kuchayib bormoqda

2007 yil o'rtalarida, 2007-2013 yillarga mo'ljallangan yangi Hamkorlik strategiyasi shaklida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi siyosatining yangi konseptual qarashlari qabul qilindi. Hamkorlikning yangi strategiyasi ko'p jihatdan Markaziy Osiyo davlatlarining manfaatlariga javob beradigan keng qamrovli taklifdir. Xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash YYevropa Ittifoqining mintaqadagi asosiy vazifalaridan biridir. Xavfsizlik masalasi beqaror Afg'oniston, Pokiston va notinch Eronga yaqinligini hisobga olgan holda, Yevropa Ittifoqi va Tojikistonning yaqin hamkorligini talab qiladi. Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasidagi harakatlarining yangi konsepsiyasi qabul qilinganidan beri, Markaziy Yevrosiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarda ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama shakllarda ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

Masalan, Yevropa Ittifoqi va Tojikiston zamonaviy chegaralarni boshqarish tizimini rivojlantirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, suv resurslari bilan bog'liq infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, madaniyatni rivojlantirish va boshqa loyihalarni amalga oshirmoqda. Mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash muammolariga ikki tomonlama munosabatlarda nafaqat harbiy-siyosiy jihatlariga,

balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavfsizlikka ham alohida e'tibor qaratildi. Tojikiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning muhim tarkibiy qismi mavjud tahdidlarga qarshi kurash, jumladan terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, nazoratsiz migratsiya, giyohvand moddalar savdosi va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi.

Xavfsizlik sohasidagi siyosiy darajada, Yevropa Ittifoqining mintaqa bilan munosabatlarining ahamiyati Markaziy Osiyoning barcha yangi davlatlari YeXHTga a'zo ekanligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, mintaqaviy darajada eng qiziqarli - bu Markaziy Osiyoda yagona yaxlit makonni yaratish istagiga asoslangan Yevropa Ittifoqining "integratsiya" loyihasi. Buning uchun Yevropa Ittifoqi tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarining o'z xavfsizligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan mintaqaviy loyihalar shaklida aniq harakatlar qilinmoqda.

Markaziy Yevrosiyodagi siyosiy jarayonlarda Yevropa Ittifoqining roli tobora kuchayib bormoqda, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni faollashtirish uchun Yevropa Ittifoqi sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlarning potentsialidan, Yevropa Komissiyasi va YeIga a'zo davlatlar dasturlaridan va siyosiy mexanizmlar kabi hamkorlik mexanizmlaridan foydalanmoqda.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy voqeliklarida bu yerda turkiy, eron va islom dunyolarining integratsiya loyihalari doimiy ravishda yangilanib turadi. Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlari Markaziy Osiyo integratsiyasiga hali tayyor emaslar, chunki milliy davlatlar hali bolaligidanoq, ushbu davlatlarning siyosiy elitalari to'liq integratsiyaga tayyor emaslar va hal qilinmagan etnopolitik muammolar tufayli davlatlararo qarama-qarshiliklar qolmoqda. Bundan tashqari, yirik davlatlarning mintaqaviy resurslarga qiziqishi raqobatning kuchayishiga olib keladi, bu esa taklif etilgan integratsiya modellarida aniq aks etadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda mintaqadan tashqari mintaqaviy subyektlarning mavjudligi, yangi tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorligi davlatlararo

munosabatlardagi keskinlikni kamaytirishga va mintaqada kuchlar muvozanatini saqlashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan har bir integratsiya modeli uchun ma'lum geosiyosiy kuchlar va 21-asrda xalqaro munosabatlar tizimini qurishning strategik sxemalarini amalga oshirishga urinishlar mavjud. Agar o'tgan asrning 90-yillarida integratsiya modellari asosan mintaqaning postsovet davlatlarini qamrab olgan bo'lsa, endi Markaziy Osiyoning geosiyosiy yaxlitligini mustahkamlashga intilish kuchayib bormoqda va bunga mintaqaning barcha davlatlarini a'zo va kuzatuvchi sifatida kiruvchi ShHT misol bo'la oladi.

Bu Shanxay Hamkorlik Tashkilotining platformasi bo'lib, uning a'zolari va kuzatuvchilariga ko'plab xalqaro muammolar bo'yicha pozitsiyalarni birlashtirish va a'zolar va kuzatuvchilar o'rtasidagi mavjud ziddiyatlarni yumshatish imkonini beradi. Markaziy Osiyo integratsiyasining ushbu modeli eng istiqbolli hisoblanadi, garchi ShHT ko'plab muammolarga ega, ammo eng muhimi, birinchi navbatda, qabul qilingan loyihalarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqmaslik, eng muhimi yangi a'zolarni qabul qilish mezonlarini ishlab chiqmaslik, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari yo'qligi, aynan SHHT tashkiloti kelajakda Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Bu Osiyo vektori bo'lib, ehtimol barqarorlikni ta'minlash va saqlash uchun javobgarlik sohasi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, postsovet hududidagi Yevrosiyo integratsiyasi o'tgan asrda mavjud bo'lgan aloqalar tufayli yangi davlatlarning milliy xavfsizligini kuchaytirish uchun eng istiqbolli hisoblanadi. Yevrosiyo faoliyatini kuchaytirish va yangi davlatlarning milliy manfaatlariga mos keladi.

Ayni paytda, hozirgi vaqtda Markaziy Yevrosiyo mintaqa davlatlarining milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan geosiyosiy omillarning jiddiy ta'siri ostida. Suvdan foydalanish muammolari va transchegaraviy daryolar muammolari, mamlakatlarning energiya ta'minoti, transport va aloqa tizimi, davlatlar tranzit salohiyatidan foydalanish, qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlardagi chegara masalalarini hal qilish, mintaqa davlatlarining iqtisodiy rivojlanish darajalari va iqtisodiy munosabatlari

darajasidagi farqlar, bojxona to'siqlari, viza va chegara bilan bog'liq dolzarb muammolar.

Muammolar - Markaziy Yevrosiyodagi geosiyosiy vaziyatga ta'sir qiluvchi va beqarorlashtiruvchi potensialga ega bo'lgan hodisalarni 21-asrning birinchi o'n yilligi oxirida to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- Ekstremizm, terrorizm, separatizm, narkotrafik muammolari bilan bog'liq muammolar;
- Xalqaro, davlatlararo va mintaqaviy qarama-qarshiliklar bilan bog'liq muammolar;
- Mintaqaning geosiyosiy mavqei, tabiiy zaxiralari, etnik-hududiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan muammolar
- Mintaqadagi past turmush darajasi va texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar, migratsiya, demografik va ekologik muammolar.

Xavfsizlikning mintaqaviy tahdidlarini ushbu tasniflash nuqtai nazaridan, o'nlab yillar davomida davom etib kelayotgan, ammo tobora kuchayib borayotgan quyidagi ziddiyatli jarayonlar eng xavotirli hisoblanadi. Xalqaro koalitsiya va NATO toliblarni harbiy jihatdan yo'q qilish va Afg'onistonni rivojlantirishga muayyan hissa qo'shayotganiga qaramay, hozir ular mamlakatdagi qiyin vaziyatni tubdan o'zgartira olmadilar. Afg'oniston allaqachon xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar kontrabandasi, qurol kontrabandasi, noqonuniy migratsiyaning markaziga aylangan. Etno-siyosiy muammolarning keskinlashishi afg'on mojarosiga yangi turtki beradi. Aslida, Afg'onistonda etnik-konfessiyaviy omillar, ayniqsa tashqi aralashuv bilan murakkablashgan ko'plab etnik elitalarning to'qnashuvi mavjud. Aslida, Afg'onistonda fuqarolik urushi bo'lib, unda 41 davlatdan kelgan xorijiy qo'shinlar hukumat tarafida harakat qilmoqda. Mamlakatda 28 ta xorijiy harbiy baza tashkil etildi. Ushbu mamlakatning harbiylashtirilishi, bu erda mavjud bo'lgan etnopolitik muammolar (millatlararo, chegara, bo'linib ketgan etnik guruhlar muammosi), mojaro potentsiali, bu erda to'plangan vayronkor kuchlar nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikka ham tahdid manbai bo'ldi.

Shuningdek, Farg'ona vodiysidagi etnik-siyosiy muammolar, unda Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekistonning suv va energetika resurslarini taqsimlashdagi manfaatlari, chegaralarni tartibga solish masalalari, islom omilining ta'siri, millatlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashishi, giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy migratsiya, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya va demografik muammolardir. Aholining asosiy kambag'alligi bilan bog'liq yuqorida qayd etilgan muammolar afg'on omili bilan birgalikda Markaziy Yevrosiyaning barqarorligini buzadigan katta mojarolar markazini yaratmoqda. Farg'ona vodiysidagi vaziyatni tahlil qilib, agar biron bir davlatning suverenitetiga tahdid mavjud bo'lsa, unda bu holatni butun Markaziy Yevrosiyo mintaqasida tinchlik uchun xavfli deb hisoblash kerak. Shu bilan birga, Tojikiston-O'zbekiston-Qirg'iziston "uchburchagi" ichki mojaroni saqlab qolmoqda va bu erda bir qator keng miqyosli va mahalliy doimiy mojaroli vaziyatlar strategik ahamiyatga ega ekanligi aniq, ular yaqin kelajakda mintaqani rivojlantirish uchun mustaqil omillar sifatida aniqlovchi xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Mintaqadagi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarga ega bo'lgan yetakchi davlatlarning o'zaro raqobati bu energiya manbalari uchun kurash va mintaqadagi aloqa vositalari ustidan nazorat Markaziy Yevrosiyaning yaqin yillarda jahon siyosatining inqiroz burchagidan biriga aylantirish uchun yangi shart-sharoitlarni yaratishi va mavjud bo'lgan noan'anaviy tahdidlar bilan bir qatorda yangi davlatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyaning tabiiy geografik o'rniga ta'rif bering?
2. Markaziy Osiyaning eng rivojlangan sanoat tarmoqlarini ayting?
3. Markaziy Osiyaning eng yirik ko'mir, neft, gaz va rudali konlarini ayting?
4. Markaziy Osiyaning xo'jaligida qaysi transport yetakchi o'rinni egallaydi?
5. Markaziy Osiyoda qanday HICHM shakllangan?

II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Reja:

1. O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, chegaralari.
2. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. O'zbekistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Tayanch tushunchalar: *Geografik o'rni, tabiiy sharoit, tabiiy resurslari, tabiiy- geografik o'lka, siyosiy – ma'muriy chegara, chegara uzunligi, iqtisodiyoti, sanoati, eksporti, importi, transporti, YaIM, Davlat daromadlari, ishsizlik darajasi, korrupsiya, inflatsiya, biznes.*

1. O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, chegaralari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida 1 sentyabr 1991 yilda tashkil topgan. **Maydoni** 448,9 ming kv.km., **aholisi** 2018 yil hisobiga ko'ra 33,3 million kishini tashkil etgan. O'tmishga nazar tashlasak, 1960 yilda O'zbekistonda 8,6 million kishi bo'lgan. Bashorat qilinishicha, 2020 yilda O'zbekiston aholisining soni 34,44 million atrofida bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Ma'muriy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahridan iborat: Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari. Respublika poytaxti – Toshkent shahri.

O'zbekiston dunyo hamjamiyati va siyosiy xaritasida o'ziga xos mavqegaga ega. U hozirgi kunda Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan 190 dan ortiq davlatlarning biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi BMT ga 2 mart 1992 yilda qabul qilingan.

Mamlakatimiz Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning deyarli qoq o'rtasida joylashgan. Davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo'lib, shundan 2203 km yoki 1/3 qismi Qozog'iston Respublikasiga, 1721 (1621) km Turkmanistonga, 1161 km Tojikistonga, 1069 (1099) km Qirg'izistonga va 137 km Afg'oniston Respublikasiga to'g'ri keladi. Respublika hududi g'arbdan sharqqa 1425 kilometr ga cho'zilgan, shimoldan janubga bo'lgan masofa esa 930 km. Eng baland nuqtasi Hazrati Sulton cho'qqisi (Hisor tizmasi) – dengiz sathidan 4643 m balandlikda, eng past nuqtasi Mingbuloq cho'kmasi (Qizilqum cho'li) – minus 12 m. Mamlakatimizning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining Orol dengiziga tutash qismida, $45^{\circ} 36^I$ sh.k., janubiy nuqtasi Termiz shahri yaqinida - $73^{\circ} 10^I$ sh.k., g'arbiy nuqtasi Ustyurtda - $56^{\circ} 00^I$ shq.u. va sharqiy nuqtasi Andijon viloyatining chekkasida $73^{\circ} 10^I$ shq. uzoqlikda joylashgan.



9-rasm. O'zbekistonning mamuriy-siyosiy xaritasi

O'zbekiston tabiiy, iqtisodiy hamda siyosiy geografik o'rnining eng muhim xususiyati uning Dunyo okeanidan uzoqda, Yevrosiyo materigining ichkarisida joylashganligidan iboratdir. Bunday geografik o'rin nafaqat mamlakat iqlimining shakllanishida, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa umumgeografik qonuniyatlardan biridir.

Eng avvalo ta’kidlash joizki, O’zbekiston hududining “markaziy” geografik o’rni o’tmishda, xususan xalqaro ahamiyatga ega bo’lgan Buyuk Ipak yo’lida, uning asosiy bog’lovchi bo’g’inlaridan biri sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Yurtimizning jahon madaniyati, fani va iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta’siri aynan shu davrda yuqori bo’lgan. Hozirgi sharoitda, ya’ni “Okean sivilizatsiyasi” bosqichida respublikaning quruqlik ichkarisida joylashganligini birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu yerda iqtisodiy geografik o’rinning tarixiylik (o’zgaruvchanlik) xususiyati o’z ifodasini topadi.



10-rasm. Buyuk ipak yo'lining O'zbekiston xaritasi

Iqtisodiy geografik o’rin (IGO’) – bu ma’lum bir joyning (mamlakat, viloyat, shahar va h.k.) o’zidan tashqarida o’rnashgan geografik elementlarning (tog’, daryo, dengiz, shahar, davlat, foydali qazilma boyliklar va b.) shu joyning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy rivojlanishiga ta’siri demakdir. Bunday ta’sir vaqt o’tishi bilan o’zgarib turadi, qulay joy noqulay va, aksincha, noqulay joy qulay o’rniga ega bo’lishi mumkin. *Asosiy iqtisodiy geografik qonuniyat bu yerda shundan iboratki, har bir joy o’zining IGO’ni qulaylashtirishga, raqobatbardoshligini oshirishga intiladi.* IGO’ – iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy majmualar qatorida eng muhim (fundamental) tushunchasi hisoblanadi. U ayni vaqtda bu fanning asosiy,

purmazmun tadqiqot usuli hamdir; IGO' iqtisodiy geografik bilimning o'ziga xos "kaliti" sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi garchi Hind okeaniga, Shimoliy muz okeaniga qaraganda nisbatan yaqinroq bo'lsada, geosiyosiy jihatdan u aynan ko'proq shimol yo'nalishida "ochiqroq". Janubda va janubi-sharqda tog'li hududlar bilan chegaralanganligi (bu mamlakatimizning asosiy tabiiy geografik xususiyatlarini belgilab beradi), siyosiy jihatdan esa uncha barqaror vaziyatga ega bo'lmagan (ayniqsa Afg'oniston Respublikasi) davlatlar bilan qo'shnichiligi hozircha nisbatan qisqa va yaqin bo'lgan Hind okeani bandargohlariga chiqish uchun qulayliklar yaratmaydi.

Umuman olganda, davlatimizning Dunyo okeaniga chiqishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda quyidagi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar mavjud:

- Qozog'iston orqali Rossiya Federasiyasining SHimoliy muz okeani va Tinch okean portlariga;
- Turkmaniston va Kavkaz orqali Qora dengizga va undan O'rta dengiz – Atlantika okeaniga;
- Afg'oniston, Pokiston yoki Eron orqali Hind okeaniga;
- Turkmaniston, Eron va Turkiya orqali Istanbulga, O'rta dengiz va undan Atlantika okeaniga;
- Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi orqali Tinch okeaniga.

Yuqoridagi yo'nalishlar yoki transport yo'laklari (koridorlari) dan foydalanish imkoniyatlari bir xil emas. Hozirgi kunda ularning amaldagisi asosan birinchisi, ya'ni Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federasiyasi yo'nalishi hisoblanadi. Qolganlari esa, turli sabablarga ko'ra, ahamiyati past yoki yo'q darajada. Xususan, sharq yo'nalishida yoki TRASEKA loyihasining amalga oshirilishi, Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishi va janubiy yo'nalishining ishga tushirilishi mamlakatimiz rivoji uchun o'ta katta ahamiyat kasb etgan bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasining Dunyo xaritasida mavqei uning makrogeografik o'rnini tasvirlaydi, mamlakatimizning MDH va Markaziy Osiyoda davlatlari

mintaqasida joylashganligi esa mezogeografik o'rnini aks ettiradi. Markaziy Osiyo mintaqasi (mazkur tushunchani tabiiy geografiya fanidagi an'anaviy "Markaziy Osiyo" bilan chalkashtirmang) umumjahon nuqtai nazaridan qaraganda juda muhim geostrategik o'ringa ega. Ayniqsa, bu yerda yirik yoqilg'i-energetika (ko'mir, neft, tabiiy gaz, uran) zahiralarining mavjudligi jahonning yetakchi mamlakatlari – AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiyaning katta qiziqishiga, intilishiga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, mintaqaning so'nggi yillarda jadal iqtisodiy rivojlanishi nihoyatda muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan egallagan o'rnini uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy rivojlanish imkoniyatlari va yo'nalishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu yerda geografik vaziyat mintaqa davlatlarining hamjihatlikda, o'zaro manfaatdor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Yagona geosiyosiy va geoiqtisodiy makonning shakllanib borishi Markaziy Osiyo mintaqasining jahon hamjamiyatida tutgan mavqeini yanada kuchaytiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi.

O'zbekiston o'zining maydoni yoki sof geografik salohiyati bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida o'rtachadan yuqoriroq pog'onani egallaydi. Yer yuzasining har bir davlatiga o'rtacha 5,5 mln. kv.km. maydon va 26 mln. atrofida aholi soni to'g'ri keladi. Hududning ko'lami bo'yicha mamlakatimiz Shvesiya, Iroq yoki Marokashga taxminan teng, demografik salohiyati nuqtai nazaridan esa u Saudiya Arabistoni, Nepal, Peru, Venesuela, Malayziya kabi davlatlar qatorida turadi va jahon hamjamiyatida 41-o'rinni egallaydi. Har bir mamlakatning geosiyosiy tuzilmasi, butligi uning ichki ma'muriy-hududiy qismlari, mintaqaviy boshqaruv sub'ektlari asosida shakllanadi. Respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hududiy tashkil etish va boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunday tizim ierarxik (bosqichli) ko'rinishda bo'lib, u viloyat, tuman, viloyat va respublikaga bo'ysinuvchi shaharlar, qishloq tumanlari, qishloq fuqarolar yig'inlari va mahallalardan iborat.

**5-jadval. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi
(2018 yil holatiga)**

	Hududi (ming km²)	Tuman -lar	Jami shaharlar	shu jumladan, respublika va viloyat bo'ysunuvidagi
O'zbekiston Respublikasi	448,97	170	119	31
Qoraqalpog'iston Respublikasi	166,59	15	12	1
Viloyatlar:				
Andijon	4,3	14	11	2
Buxoro	40,32	11	11	2
Jizzax	21,21	12	6	1
Qashqadaryo	28,57	13	12	2
Navoiy	110,99	8	6	2
Namangan	7,44	11	8	1
Samarqand	16,77	14	11	2
Surxondaryo	20,1	13	8	1
Sirdaryo	4,28	8	5	3
Toshkent	15,25	15	16	7
Farg'ona	6,76	15	9	4
Xorazm	6,05	10	3	2
Toshkent sh.	0,34	11	1	1

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasi shahar aholisi soni 16805,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5%), qishloq aholisi soni 16449,1 ming kishini (49,5%) tashkil etgan. Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatganki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 1 kv.km.ga 74,1 kishi, aholining eng zich joylashuvi Andijon (1 kv.km.ga 713,2 kishi), Farg'ona (544,8 kishi), Namangan (370,0 kishi)

viloyatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, aksincha holat Navoiy viloyati (8,8 kishi) va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (11,2 kishi) to‘g‘ri kelmoqda.

Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2018 yil Respublika doimiy aholi sonining 30,3%i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5%i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2%i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

6-jadval. Etnik tarkibi (2018-yil)

Millat	Soni
O‘zbeklar	26 mln. 300 ming kishi (Jami aholining 83 %)
Tojiklar	1 mln. 300 ming kishi
Qozoqlar	750ming kishi
Ruslar	770 ming kishi
Qoraqalpog‘lar	750ming kishi
Tatarlar	500 ming kishi (boshqa ma’lumatlarga ko‘ra — 700 mingga yaqin)
Qirg‘izlar	232 ming kishi
Koreyslar	178 ming kishi
Turkmanlar	152 ming kishi
Ukrainlar	105 ming kishi
Armanlar	42 ming kishi
Ozərbayjonlar	36 ming kishi
Forslar	30 ming atrofida
Uyg‘urlar	20 ming atrofida
Beloruslar	20 ming atrofida
Qrim tatarlari	10 ming atrofida (boshqa ma’lumatlarga ko‘ra — 90 mingga yaqin)
Yahudiylar	taxminan 20 — 30 ming kish
Turklar	10 ming atrofida
Olmonlar	7.9 ming kishi
Yunonlar	10 mingdan ozroq

Aholining ko‘pchilik qismi **Islom dinining** Hanafiya (sunniylar) mazhabidagi musulmonlardir, aholining bir qismi Islom dinining Shia mazhabiga e’tiqod qilishadi. Bundan tashqari mamlakatda **xristian dinining** provoslavlar, katoliklar, protestantlar, lyuteryanlar, Arman Apostol Cherkovi, Yahova Shohidlari, Baptistlar, Yettinchi Kun Adventistlari, Koreys Xristianlari va boshqa

mazhablari ham bor. Yahudiylilik, Buddistlik, Krishnaitlar, Baxailar va boshqa dinlar ham O'zbekistonda mavjud.

- 88,4 % — Islom (Hanafiylar, Sunniylar — 87,1%) va (Shialar — 1,3 %)
- 4,8 % — Xristian (Pravoslavlar)
- 2,4 % — Xristian (Katoliklar, Protestantlar, Lyuteryanlar va boshqa xristian mazhablari)
- 0,8 % — Yahudiylar
- 4,2 % — Boshqa Dinlar

Milliy bayramlar: 1992-yil 2-iyulda Oliy Majlis qaroriga binoan ushbu kunlar bayram va dam olish kunlari deb e'lon qilingan:

- 1 yanvar — „Yangi yil bayrami“
- 8 mart — „Xalqaro xotin-qizlar kuni“
- 21 mart — „Navro‘z bayrami“
- 9 may — „Xotira va qadrlash kuni“
- 1 sentyabr — „Mustaqillik kuni“
- 1 oktyabr — „O‘qituvchi va murabbiylar kuni“
- 8 dekabr — „Konstitutsiya kuni“
- Ramazon hayiti (Iyd-al-Fitr) bayrami
- Qurbon hayiti (Iyd-al-Adha) bayrami

2. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga bog'liq. Ular birgalikda hududning tabiiy-resurs salohiyatini belgilab beradi, bu salohiyat esa foydalanadigan tabiiy boyliklar bilan bir qatorda ulardan foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar, zahiralaridan tashkil topadi.


Binobarin, odatda, tabiiy resurs salohiyat baholanayotganda nafaqat real borliq, balki imkoniyat ham nazarda tutiladi va bu imkoniyatlardan foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asosida yotadi.

Ushbu mavzuning negizini tashkil qiladigan o'zak tushunchalar – tabiiy sharoit va tabiiy resurslarni, umumiy va xususiy jihatlarini tushunib olish zarur.

Eng avvalo ta'kidlash lozimki, har ikkitasida ham "tabiiy" so'zi bor; demak, ularning vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlari asosan tabiiy, ya'ni g'ayrinsoniy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ammo jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishning rivojlanishi va aholi sonining o'sib borishi bilan tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga antropogen va texnogen omillar ta'siri kuchayib, natijada, bizni o'rab turgan atrof muhitning "tabiiyligi" borgan sari sun'iy lashib boradi.

Aynan ana shu tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning hududiy jihatlarini o'rganish geografiya fanining bosh falsafiy masalasi hisoblanadi.



11-rasm. O'zbekiston tabiiy kartasi

Albatta, har qanday ikkilik uchlikni keltirib chiqarayotganidek, tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlari inson, aholi orqali shakllanadi. SHu bois, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida ko'proq uchlik, ya'ni "tabiat – aholi – xo'jalik (ishlab chiqarish)" tizimi turadi. Mazkur uchlik yoki "geotrionlarning" u yoki bu hududdagi holati, darajasi uning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik vaziyatini belgilaydi. Chunonchi, agar ularning piramidasimon tasvirlaydigan bo'lsak, Farg'ona vodiysida bu piramidaning pastki qismi, ya'ni tabiati nozikroq, aholisi uzun (qalin qatlam), xo'jalik esa birmuncha qisqaroq ko'rinishni hosil qiladi. Ayni chog'da Qoraqalpog'iston Respublikasida esa buning

aksini ko'rish mumkin (tabiiy sharoit va resurslari ko'p, aholisi kam, siyrak, iqtisodiyoti zaifroq).

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning umumiy jihatlari bilan bir qatorda ularning o'zaro farqlari ham mavjud. Umuman olganda, tabiiy sharoit ko'proq muhit ma'nosida tushuniladi, u ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydi, undan moddiy ne'matlar yaratilmaydi; tabiiy sharoit aholi yashashi va ishlab chiqarishni joylashtirish uchun sifat ko'rsatkichlar kasb etadi, ya'ni *u qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin*. Masalan, joyning iqlimi, yer usti tuzilishi kabilar uning tabiiy sharoitini ifodalaydi.

Tabiiy resurslar esa (resurs-zahira, boylik) ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi va ular miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Tabiiy resurslar tugaydigan va tugamaydigan qismlarga, tugaydiganlari esa, o'z navbatida, tiklanadigan va tiklanmaydiganlarga bo'linadi. Chunonchi, o'rmon, suv, tuproq va boshqalar nisbatan uzoq muddatda qayta tiklanishi mumkin. Tabiiy resurslarning bunday xususiyatlari ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Biroq unutmashlik lozimki, tabiiy geografik komponentlarning tabiiy sharoit yoki resurs ekanligi ulardan qaysi maqsadda foydalanishga bog'liq. Shu sababdan ma'lum bir sohada tabiiy sharoit hisoblangan komponent boshqa sohada resurs bo'lishi mumkin. Iqlim yoki relyef sanoat geografiyasi nuqtai nazardan umumiy tarzda tabiiy sharoit sanalsa, qishloq xo'jaligi uchun (harorat, namlik, tuproq) muhim agroiklimiy resurslar hisoblanadi. Huddi shunday, quyosh nuri, o'rmon, dengiz rekrasiyada yetakchi tabiiy resurslardir. Shuningdek, tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning ahamiyati, foydalanish yo'nalishi iqtisodiyot tarmoqlari va aholi manzilgohlari joylashishiga har xil ta'sir ko'rsatadi. SHu sababdan iqtisodiy-ijtimoiy baho berishda ularning aynan shu jihatlari e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi, Relyefni barcha sohalar, ayniqsa qishloq xo'jaligi va transport uchun, foydali qazilmalarni sanoat nuqtai nazardan tahlil qilish va baholash zarur. O'zbekistonning relyefi, ya'ni yer usti tuzilishi birmuncha murakkabroq, Respublika maydonining 80 foizga yaqinini (aniqrog'i 78,7 %) tekisliklar, qolgan qismi esa tog' va tog'oldi hududlar tashkil qiladi.

7-jadval. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga iqtisodiy geografik baho berish shkalasi



Tabiiy geografik komponentlar	Ijtimoiy-iqtisodiy sohalar:				
	qishloq xo'jaligi	sanoat	transport	aholi joylashuvi	Rekreatsiya va turizm
Relyef	++	+	+	+	+
Foydali qazilmalar	—	++	+	+	—
Iqlim	++	—	—	+	++
Suv	++	+	+	++	+
Tuproq	++	—	—	—	—
O'simlik	+	+	—	—	+
Hayvonot dunyosi	+	+	—	—	—

Izoh: ++ ta'siri kuchli, + ta'siri bor, — ta'siri deyarli yo'q darajada.

Tog'li hududlar mamlakatning janubi, janubi-sharqiy va sharqiy qismida, tekisliklar uning markaziy, shimoliy va shimoli-g'arbiy qismlarini egallaydi. O'zbekistonning chekka shimoli-g'arbida joylashgan birgina Ustyurt platosining maydoni 40,0 ming kv.km atrofida yoki u mamlakat umumiy maydonining 9 foizga yaqinini ishg'ol qiladi. Tekislik qismi cho'l va chala cho'llardan iborat bo'lib, uning asosini Qizilqum cho'li tashkil etadi. Tog'li hududlar, I.Hasanov va P.G'ulomovlar bo'yicha, 3 ta asosiy tog' sistemalarini o'z ichiga oladi. Bular: Chotqol-Qurama, Nurota-Turkiston va Hisor-Zarafshon tog' sistemalaridir. O'z navbatida, Chotqol-Qurama tog' tizimi Tyanshanning g'arbiy davomi bo'lib, u deyarli bir-biriga parallel cho'zilgan Qorjantog', Ugam, Piskom, Chotqol va Qurama tizmalaridan tashkil topgan. Bu yerda eng baland nuqta Sayram cho'qqisi Ugamda, dengiz sathidan 4236 m balandlikda joylashgan. Tog'liklar orasida muhim xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan tog' oraligi botiqlar, voha va vodiylar joylashgan. Ularning eng muhimlaridan biri Farg'ona vodiysi turli tomonlardan

Mo'g'ultog', Qurama, CHotqol, Farg'ona tizmalari hamda Turkiston-Oloy tog' tizimi bilan o'rab olingan. Respublika hududida, bundan tashqari Zarafshon, Kitob-Shaxrisabz, Surxon tog' oralig'i botiqlari ham mavjud.

Mamlakatimizning tekislik qismida uncha baland bo'lmagan, tarqoq joylashgan yassi tog'lar ko'zga tashlanadi. Ular Sulton Uvays, Bo'kantov, Yetimtov, Tomditov, Ovminzatov, Quljuqtov va boshqalardir. Eng baland nuqta – Oqtosh cho'qqisi (922 m) Tomditovda joylashgan. Bu “qoldiq” kichik tog'lar katta mineral resurslarga boy. Bo'kantov – “bu kon tov”ga o'xshaydi. Umuman olganda, cho'l voha va vodiylar, tog' va tog' oldi hududlar (adirlar) O'zbekiston tabiiy sharoitining o'ziga xos geografik xususiyatlarini aks ettiradi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston yer usti tuzilishining har xilligi, respublika hududining geologik tarixi geoximik jarayonlar ta'sirida shakllangan qazilma boyliklar, mineral xom ashyo resurslari geografiyasini ham belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston 2700 dan ko'proq foydali qazilma konlari ma'lum bo'lib, ularning faqat tasdiqlangan zahirasi 970 milliard AQSH dallarni, umumiy miqdori esa 3,3 trillion AQSH dallarini tashkil qiladi. Foydali qazilma konlar zahirolari, ularning geologik o'rganilganligiga qarab turli kategoriyalarga bo'linadi. Yaxshi o'rganilgan zahiralar sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan zahiralar, barcha zoxiralar esa taxminiy yoki prognoz zahiralar deyiladi. Qazilma boyliklar zahirolari xalq xo'jalik ahamiyatiga ko'ra balans va nobalans zahiralariga bo'linadi. Balans zahiralar qulay geografik o'rin va yaxshi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga (konning umumiy zahirasi, sifati, qatlamlarning tuzilishi va h.k.) hamda ularning qazib olishga ehtiyoj mavjud bo'lganlarni o'z ichiga oladi. Bu talablarga javob bermagan konlar nobalans zahiralar tarkibiga kiradi. Foydali qazilmalar zahirolari, ularning miqdori, kategoriya va ahamiyati vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi; yangi zahiralar ochiladi, zahiralarining o'rganganlik darajasi va balans zahiralarini to'ldirib borishi ro'y beradi. O'zbekiston ayrim foydali qazilma zahirolari bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy oladi. Bunga eng avvalo oltin, mis, volfram, uran, tabiiy gaz kabilar kiradi.



12-rasm. O'zbekistonning foydali qazilmalari xaritasi

Ma'lumki, har bir mamlakat milliy iqtisodiyoti xavfsizligini ta'minlashda uning yoqilg'i-energetika mustaqilligi katta ahamiyatga ega. Respublikamiz bu borada yirik tabiiy gaz konlariga ega. Ular asosan Qashqadaryo viloyatida (Sho'rtang, Muborak, Uchqir, Sho'rxok, Zevardi va b.) joylashgan. Buxoro viloyatida ham tabiiy gaz konlari mavjud (Qandim va b.), biroq ularning ko'pchiligini zahiralari tugash arafasida. Ayni vaqtda Ustyurtda yangi-yangi gaz konlari topilmoqda. Ularning eng yirigi Surg'il koni hisoblanadi. Garchi dastlabki neft konlari Farg'ona vodiysida ochilgan bo'lsada (masalan, Sho'rsuvda 1886

yilda), hozirgi kunda uning ham asosiy zahirolari Qashqaryoda viloyatiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, bu yerda eng katta kon Ko'kdumaloq sanalanadi va uning asosida Buxoro viloyatining Qorovulbozor shahrida yirik neftni qayta ishlash zavodi qurilgan. Neft konlari Surxondaryoda (Hovdog', Ko'kaydi, Lalmikor), Farg'ona vodiysida (Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Mingbuloq va h.k.). Qoraqalpog'iston Respublikasida (Oqsholoq, O'rga, Shoxpaxti va b.) mavjud. Ustyurt platosi, Orol ko'li akvatoriyasi va unga tutash hududlarda yangi neft konlarini aniqlash bo'yicha hozirgi vaqtda Rossiya Federasiyasi bilan hamkorlikda ("Lukoil" kompaniyasi) geologik-qidiruv ishlari olib borilmoqda. Bunday ishlar Surxondaryo viloyatida Malayziya va Eron mamlakatlari bilan birgalikda ham amalga oshirilmoqda.

Respublikada ko'mir konlari geografiyasi nisbatan keng tarqalmagan. Katta zahiraga ega bo'lgan Angren konida (2 mlrd t.) qo'ng'ir ko'mir asosan ochiq usulda qazib olinadi va u ko'proq issiqlik elektr stansiyalarida ishlatiladi. Toshko'mir konlari esa Surxondaryo viloyatida – SHarg'un va Boysun (To'da) konlaridan olinadi. Yoqilg'i resurslariga baho berganda quyidagi xulosa chiqarish mumkin: tabiiy gaz bilan mamlakatimiz yaxshi ta'minlangan va u eksport ham qilinadi; neft zahiralarini ko'paytirish kerak; ko'mir zahirolari esa uncha yuqori sifatli emas va ularning sanoat ahamiyati kamroq.

O'zbekistonda temir ruda zahiralarining ham sanoat ahamiyati cheklangan. Bunday konlar Qoraqalpog'istonning Sulton Uvays tog'ida (Tebinbuloq) hamda Toshkent (Temirkon) va Navoiy viloyatlarida (Surenota) topilgan. Volg'fram zahirasi esa respublikamiz birmuncha boy. Uning asosiy konlari Qo'ytosh, Ingichka, Yaxton, Sargardon, Langar va boshqalardir. Marganes Samarqand viloyatida, molibden koni Hisor, Nurota va CHotqol tizmasida topilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatimiz oltin, mis, kumush, qo'rg'oshin zahirolari bo'yicha ham ajralib turadi. Oltinning eng yirik koni Muruntov va Ko'kpatas hisoblanadi. SHuningdek, Marjonbuloq, Qizilolma, CHodoq, Zarmetan kabi oltin konlari ham mavjud. Jami oltin zahirasi 4/5 qismidan ko'prog'i

Markaziy Qizilqumda joylashgan; hozircha respublikada aniqlangan oltin konlarining taxminan 1/4 qismi, o'rganilgan konlarning yarmiga yaqini ishlatilmoqda, xolos. Mis Olmaliq atrofida (Qalmoqqir, Dalg'noe, Sarichek), polimetall rudalar (Xonjiza, Uchquloq, Lashkarak) zahiralari ham katta sanoat ahamiyatiga ega. SHu bilan birga, respublikada qo'rg'oshin, qalay, vismut konlari ham bor, alyuminiy xom ashyosi – kaolin esa Angren qo'ng'ir ko'mir qatlamlari orasida juda katta zahiralarga ega. O'zbekiston uran konlariga boy; uning asosiy konlari Markaziy Qizilqumda, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida joylashgan.

Mamlakatimizda turli tog' kimyosi xom ashyolarining katta zahiralari mavjud. Ular eng avvalo Tubekatan kaliy, Xo'jaikon osh tuzi, Boybichekan tosh tuzi hamda Qoraumbet, Borsa Kelmas, Qo'ng'iro't yaqinidagi turli tuz konlaridir. Fosforitning yirik zahirasi Navoiy viloyatida – Markaziy Qizilqumda topilgan va undan hozirgi paytda foydalanilmoqda.

O'zbekistonda har xil qurilish materiallari – qum, gips, granit, marmar konlari bor. Marmar Samarqand, Qashqadryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'istonda qazib olinadi (G'ozg'on, Langar, Omonqo'ton, Kitob va b.). Nometall foydali qazilmalar – flyuorit, dala shpati, grafit, asbest, talg'k, bentonit gillarining ham zahiralari mavjud. Shunday qilib, respublikamizda foydali qazilmalar asosan Navoiy Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida joylashgan. Farg'ona vodiysi va, xususan, Sirdaryo hamda Xorazm viloyatlari bu borada deyarli ko'zga tashlanmaydi. Rangli, nodir va qimmatbaho metall konlarida "yo'ldosh" minerallar ko'p uchraydi. Binobarin, bunday rudalarni iloji boricha to'liq, kompleks qayta ishlash talab etiladi. Umuman olganda, mamlakatimizning foydali qazilmalari yoqilg'i, rangli metallurgiya, kimyo hamda qurilish materiallari sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qulay imkoniyatlar yaratadi. Boshqa sanoat tarmoqlari, ayniqsa qora metallurgiyani keng miqyosda rivojlantirish uchun esa tegishli sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan resurs salohiyati hozircha mavjud emas.

O'zbekiston iqlimi keskin kontinental, yozi issiq, qishi ancha sovuq. Mamlakat ichida esa chekka shimol va shimoli-g'arbda mo''tadil, qolgan tekislik

hududlarda subtropik xususiyatga ega. Yillik o'rtacha harorat shimoldagi +8,9 janubdagi +18 darajagacha farqlanadi. Yanvar oyining o'rtacha harorati faqat janubda – Surxondaryoda noldan yuqori (masalan, Sherobodda +3.6⁰), Ustyurtda minus 8-11 daraja.¹ Iyul oyida o'rtacha harorat Termiz yoki Sherobodda plyus 31-32⁰, Toshkentda +27⁰, Samarqandda +26⁰, tog' va tog' oldi hududlarda bu ko'rsatkich birmuncha pastroq.

Ma'lumki, o'simliklar rivojlanishi uchun sutkalik harorat +5⁰ darajadan past bo'lmasligi kerak. Musbat haroratlar yig'indisi vegetasiya davrini belgilab beradi. Respublikamizning eng janubida bu miqdor 4000-4900 darajaga yetadi, shimolda va tog'li hududlarda esa u 2000-3000⁰ atrofida. Respublikamizda quyoshli kunlar ko'p, shu bois bu yerda quyosh energiyasi-radiyasiyasidan foydalanish imkoniyatlari ham keng.


O'zbekiston berk gidrologik havzada joylashgan, uning aksariyat daryolari tranzit xususiyatga ega, ya'ni ular asosan respublika tashqarisida, qo'shni mamlakatlar hududida (Tojikiston va Qirg'istonda) shakllanadi. Masalan, Amudaryoning suv yig'ish maydoni 80 kv.km ga yaqin, shundan 8 foizi O'zbekistonga to'g'ri keladi xolos. Sirdaryo bu ko'rsatkich, mos ravishda, 38 va 10 ga teng.²

O'ZBEKISTONDA ICHKI SUVLAR QUYIDAGICHA JOYLASHGAN:		
T/r	ICHKI SUVLAR	SONI
1	Daryo, daryocha, soy	18 mingga yaqin
2	Ko'l	525 ta
3	Suv ombori	53 ta
4	Muzlik	525 ta


O'zbekiston hududida ishlatiladigan suv resurslarining shakllanishi

¹Ushbama'lumotlar I. Hasanov va P. G'ulomovlarning "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" (T., 2007) darsligidan olingan.

²Рўзиев А., Абирқулов У. Ўзбекистон иқтисодий географияси. – Т., Шарқ, 2001, б.25




O'zbekistonda suvlarni ifloslovchi asosiy tarmoqlar



Respublikamizning asosiy daryolari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sheroboddaryo va boshqalar. Ulardan asosan qishloq xo'jaligida, sug'orma dehqonchilikda foydalaniladi. Respublikada yer osti suvlari, ayniqsa turli mineral tarkibga ega bo'lgan shifobaxsh suvlar ham oz emas. Ular Xo'jaikon, Omonxona, Jayronxona, Chortog', Toshkent, Chinobod) va boshqalardan iborat. Hozirgi kunda mamlakatimizning turli shaharlarida xalq orasida an'anaviy nom olgan "Toshkent suvi" ishlab chiqariladi (Qarshi, Farg'ona va h.k.). Shuningdek, yer osti suvlarining cho'l hududlarida chorvachilikni rivojlantirishda ham ahamiyati katta.

O'zbekistonning yer resurslari asosan qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli hisoblanadi. Sug'orma dehqonchilik maydonlarining yarmidan ko'prog'i tekislik hududlarga, qolgan qismi tog' va tog' oldi hududlarga to'g'ri keladi.



Lalmikor yoki tabiiy holda namlanib dehqonchilik qilinadigan yerlarning umumiy maydoni 750 ming ga, ularning 3/5 qismi tabiiy namgarchilik bilan to'liq ta'minlangan. Tabiiy yaylovlar 22 mln ga yoki respublika umumiy maydonining teng yarmiga yaqinini tashkil qiladi. Biroq, bu yerlarning barchasi ham suv bilan ta'minlanmagan. Respublikaning ko'pchilik qismida qo'ng'ir tusli sur tuproqlar (bo'z tuproqlar) tarqalgan. U.Tojiev, X.Namozov va ularning muallifdoshlari ma'lumotlariga binoan cho'l mintaqasida sur tusli qo'ng'ir, cho'l qumli va o'tloqi tuproqlar, sug'orilib dehqonchilik qilinadigan hududlarda esa (Farg'ona, Chirchiq-Ohangaron, Mirzacho'l, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxon vodiysida sur yoki bo'z tuproqlar ko'p uchraydi.³ Tog'li hududlarda esa jigarrang, qo'ng'ir tusli tog'-o'rmon tuproqlari tarqalgan. Qadimdan sug'orilgan vohalar, daryolarning quyi qismida (masalan, Xorazmda) allyuvial tuproqlar ham shakllangan.

3. O'zbekistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlar ikki *tarkib*, ya'ni tarmoqlar tarkibi bilan hududiy tarkibning uyg'unlashuvini, biridan-ikkinchisiga o'tgan holda tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu esa, mehnat taqsimotining ijtimoiy va hududiy shakllari

³Tojiev U., Namozov X., Naфетдинов Ш., Умаров К. Ўзбекистон тупроқлари. – Т., 2004

bilan bog'liq. Umuman olganda, *hududiy tarkib, hududiy tizim, hududiy birikma yoki majmua iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tayanch iboralari* hisoblanadi. Tizim-tarkib nuqtai nazardan har qanday ob'ekt alohida qism yoki bo'laklardan, ya'ni tarkibdan tashkil topadi, bu qismlar esa uning butligi va butunligini ta'minlaydi. Shu o'rinda tarkibning ham o'ziga xos tizim ekanligi, biroq quyi darajadagi tizimligi, uning ham yana "tarkibchalardan" iboratligini unutmaslik lozim.

Hududiy tarkib turlicha bo'ladi. Masalan, O'zbekiston iqtisodiyotini geografik tomonlar – shimol, janub, g'arb va sharq miqyosida yoki havza printsipli asosida (Amudaryo va Sirdaryo havzalari) tahlil qilish mumkin. SHuningdek, uni geomorfologik va tabiiy-xo'jalik rayonlar jihatdan tekislik va tog' – tog' oldi hududlari bo'yicha, cho'l, voha va vodiylar miqyosida ham ko'rsa bo'ladi. Demak, ko'rinib turibdiki, tarkib, ya'ni yaxlit tizimning uzviy qismi "gorizontal" holatda ham turlicha bo'lar ekan. Biroq, iqtisodiyotni boshqarish, statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish jihatidan ma'muriy tarkib ancha afzalliklarga ega. Shuning uchun ham ma'muriy birliklarning to'g'ri tashkil etilganligi, ularning barqaror va o'zgarmasligi katta amaliy ahamiyatga ega.

Hususan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni to'laqonli amalga oshirish, uni boshqarish va monitoringini amalga oshirish, bu borada kontseptsiya, strategiya va prognozlarni ishlab chiqish *viloyat* miqyosida qulay imkoniyatlarga ega. Aynan ularni mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari nuqtai nazaridan shartli ravishda, eng avvalo, bu nomdagi an'anaviy tabiiy geografik tushunchadan farq qiluvchi *mintaqa* sifatida qa'bul qilish mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish tamoyillari quyidagicha:

- ✓ Iqtisodning siyosatdan ustun turishi.
- ✓ Davlat islohotlar tashabbuskori.
- ✓ Barcha sohalarda qonun ustuvorligi.
- ✓ Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish.
- ✓ Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

Qolaversa, respublikaning mintaqaviy siyosati ham ko'proq shu doirada olib boriladi.

8-jadval. Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi (% da)

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
Ishlab chiqaradigan sanoat	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	19,6	19,9	19,7	20,6	21,4	24,0	24,9	19,7	13,3
Ichimliklar ishlab chiqarish	3,3	3,3	3,4	3,2	3,1	3,3	3,7	3,2	2,6
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1,4	1,3	1,0	1,0	1,1	1,1	1,1	1,0	0,8
To`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	17,2	18,3	17,6	16,1	16,2	17,2	14,9	14,2	13,1
Kiyim ishlab chiqarish	2,0	2,2	2,3	2,1	2,0	2,1	4,8	5,2	4,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,3	0,3	0,6	0,8	1,0	1,1	1,2	0,9
Yog`och va po`kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to`qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	0,3	0,3	0,5	0,7	0,9	1,0	0,6	0,7	0,8
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,5	0,5	0,8	0,7	0,8	1,1	1,0	0,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,7	0,6	0,8	0,7	0,7	0,7	1,0	1,0	0,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	6,3	6,5	5,2	4,5	4,6	4,0	3,2	3,1	2,9

ishlab chiqarish									
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	7,0	7,1	6,7	6,1	6,2	6,5	8,2	8,4	8,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,6	0,8	0,8	0,8	0,8	1,0	1,4	1,2	0,9
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	2,0	2,3	2,0	2,5	2,5	2,5	2,9	2,7	2,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	5,8	6,2	6,7	7,7	7,1	6,3	7,1	6,4	6,4
Metallurgiya sanoati	11,0	10,2	9,9	9,5	9,5	9,2	9,0	10,6	16,5
Mashina va uskunalar dnda tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	2,0	2,1	2,5	2,1	2,1	2,5	2,5	3,1	2,7
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	1,6	1,7	1,7	0,6	0,6	0,6	0,5	0,7	0,5
elektr uskunalar ishlab chiqarish	1,4	1,4	1,8	2,3	2,2	2,1	2,2	2,7	3,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	0,8	0,9	1,1	1,4	1,2	1,0	1,1	1,3	1,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	12,7	11,4	12,6	14,0	13,4	10,2	4,6	8,9	14,0
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,2	0,3	0,3
Mebel ishlab	0,6	0,6	0,5	0,6	0,7	0,8	1,5	1,3	0,9

chiqarish									
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	0,8	0,4	0,4	0,4	0,5	0,6	1,2	0,9	0,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	1,8	1,5	1,7	1,4	1,5	1,4	1,2	1,0	0,7

Eksport. 2018 yilda O'zbekistonda eksport 13677 million AQSh dollaridan oshdi. 2000 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonga eksport o'rtacha 4082.53 million AQSh dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, O'zbekiston eksportining 2020 yilda 15100.00 mln. AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Importi. 2018 yilda O'zbekistonga import hajmi 17968,80 million AQSh dollaridan oshdi. 2000 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonga import o'rtacha 3798,57 million AQSh dollarni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, O'zbekiston importining 2020 yilda 13300,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Oltin zaxiralari. 2018 yilda 332,18 tonnagacha ko'tarildi. O'zbekistonda oltin zaxiralari 2017 yildan to 2018 yilgacha o'rtacha 343,27 tonnani tashkil qildi.

Davlat xarajatlari. 2015 yilda 14641001.70 mln.so'mdan 2018 yilda 17862434,00 mln. so'mgacha o'sdi. O'zbekistonda davlat xarajatlari 1990 yildan 2016 yilgacha o'rtacha 8337377.71 mln. so'mni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston hukumatining xarajatlari 19712053.00 million somoniy atrofida bo'ladi.

Davlat daromadlari. 2018 yilda O'zbekistonda davlat daromadlari 50696,90 milliard so'mdan oshdi. O'zbekistonda davlat daromadlari 2006 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 17448.42 milliard so'mni tashkil etdi va 79099.10 milliard so'mga etdi.

Sanoat ishlab chiqarish. 2018 yilda O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,90 foizga o'sdi. 2004 yildan 2018 yilgacha

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi o'rtacha 18,07 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi 2020 yilda 8,50 foizga o'sishi kutilmoqda.

Internet tezligi. 2018 yil O'zbekistonda Internet tezligi 7525,44 Kbit/sekundni tashkil qildi.

Korrupsiya. Transparency International xalqaro tashkilotining 2018 yilgi korrupsiyani idrok etish indeksiga ko'ra, O'zbekiston 175 mamlakat ichida 158 o'rindagi eng kam korrupsiyalashgan mamlakatdir.

Biznes. Jahon bankining so'nggi yillik reytingiga ko'ra, biznes yuritish qulayligi bo'yicha 190 mamlakat ichida O'zbekiston 69-o'rinni egallaydi. O'zbekistonning reytingi 2018 yilda, 2017 yildagi 75 tadan 76 taga ko'tarildi. O'zbekistonda biznes yuritishning qulayligi 2008 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 118,17 ni tashkil etdi, 2011 yildagi eng yuqori ko'rsatkich - 166 ga, 2018 yilda esa 69 ta rekord darajaga etdi. *Manba: Jahon banki*

Chakana savdo. 2018 yilda o'rtacha 13,05 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, chakana savdo YoY, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda 4,10 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ishsizlik darajasi. 2018 yilda 2017 yildagi 7,20 foizdan 6,90 foizga tushdi. 1991 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonda ishsizlik darajasi o'rtacha 7,80 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston ishsizlik darajasi darajasi 6.30 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ishsizlar soni. 2018 yilda, 2017 yildagi 837 ming kishidan 1368,60 ming kishiga ko'paydi. O'zbekistonda ishsizlar soni 2009 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 422,28 ming kishini tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston ishsizlari soni 720.00 ming atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Ish bilan band bo'lganlar soni. 2018 yilda 13520 ming kishiga, 2017 yildagi 13294 ming kishiga ko'tarildi. O'zbekistonda ish bilan band bo'lganlar o'rtacha o'rtacha 10305.11 ming kishini tashkil qildi. .

Inflyatsiya darajasi. 2018 yilda 14,30 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2009 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 5,04 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimiz bo'yicha, O'zbekiston inflyatsiya darajasi 2020 yilda 13,80 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Oziq-ovqat inflyatsiyasi. 2018 yilda 14,90 foizga oshdi. 2005 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonda oziq-ovqat inflyatsiyasi o'rtacha 5,46 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston oziq-ovqat inflyatsiyasi taxminan 15,50 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Savdo balansi. 2018 yilda O'zbekistonning savdo kamomadi 4291,70 million AQSh dollarini tashkil qildi. 2000 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonning savdo balansi o'rtacha 243,53 million dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda O'zbekistonning savdo balansi 1800,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Joriy hisob. 2018 yilda joriy hisob raqami 2769 mln. AQSh dollari miqdoridagi kamomadni qayd etdi. 1982 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonda joriy hisob raqami o'rtacha 662,45 million dollarni tashkil etdi, 2001 yilda bu ko'rsatkich 2621 million dollarga etdi va 2018 yilda rekord darajadagi -3231 million dollarga etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, O'zbekistonning joriy hisob raqami 2020 yilda 360,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Davlat byudjeti. 2018 yilda davlat byudjeti mamlakat yalpi ichki mahsulotining 0,50 foizi miqdorida profitsit bilan ijro etildi. 1998 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonda davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotning -0,24 foizini tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston hukumatining byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,70 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Korporativ soliq stavkasi. Korxonalar uchun soliq stavkasi 2018 yilda 7,50 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda soliqlar stavkasi 2008 yildan 2018 yil uchinchi choragigacha o'rtacha 10,57 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimiz bo'yicha, O'zbekistonning soliq stavkalari 2020 yilda 9.00 foiz atrofida tendentsiyaga ega bo'lishi kutilmoqda.

YaIM. 2018 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'tgan yilga nisbatan 5,80 foizga o'sdi. Yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'ati 2006 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 7,59 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, YaIMning yillik o'sish sur'ati 2020 yilda 5,20 foiz atrofida bo'lishini prognoz qilmoqda.

YaIMdagi qarzi. 2018 yilda davlat qarzi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 23,60 foiziga teng bo'lgan. Davlatning YaIMga nisbatan qarzi 1999 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 23,92 foizni tashkil etgan. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, O'zbekistonning YaIMga nisbatan qarzi 2020 yilda taxminan 24,00 foizga o'sishi kutilmoqda.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot. 2018 yilda 2026,50 AQSh dollarini tashkil qildi. O'zbekistonda jon boshiga YaIM dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichning 16 foiziga teng. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimiz bo'yicha, Aholi jon boshiga YaIM 2020 yilda 2232,17 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda. *Manba: Jahon banki*

Qishloq xo'jaligidan YaIM. 2018 yilda 48552,40 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2002 yildan 2018 yilgacha qishloq xo'jaligidan YaIM o'rtacha 16832,81 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, qishloq xo'jaligimizdan O'zbekiston YaIM 2020 yilda 231649,45 milliard so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Xizmatlarning YaIM. 2018 yilda xizmatlarning yalpi ichki mahsuloti 21695.60 milliard so'mni tashkil qildi. 2002 y.dan 2018 yilgacha O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha miqdori 21069.31 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimiz bo'yicha 2020 yilda O'zbekistonning YaIMdan xizmatlar hajmi 170467,03 mlrd. so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Pensiya yoshidagi erkaklar. 2018 yildagi 60 yoshdan 2017 yilda 60 yoshga nisbatan o'zgarishsiz qoldi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda 60.00 atrofida tendentsiya qilishlari kutilmoqda.

Pensiya yoshidagi ayollar. 2017 yilda 55 yoshdan 2018 yilda o'zgarishsiz qoldi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda 55.00 atrofida tendentsiyani kutmoqdalar.

Ish haqi. 2017 yilda oyiga 1453,20 ming so'mga (2016 yildagi 1294 ming so'mdan) oshdi. O'zbekistonda ish haqi 2011 yildan 2017 yilgacha o'rtacha oyiga 1263,53 ming so'mni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, o'rtacha oylik nominal ish haqi 2020 yilda oyiga o'rtacha 1700.00 ming so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Xom neft qazib olish. 2018 yilda xom neft qazib olish 41 BBL / D / 1K darajasida iyul oyida 41 BBL / D / 1K dan o'zgarmadi. 1994 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonda xom neft qazib olish o'rtacha 74,09 BBL / D / 1K eng yuqori ko'rsatkichga erishdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, O'zbekiston xom neft qazib olish hajmi 2020 yilda 38.00 BBL / D / 1K atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Tashqi qarzi. 2018 yilda 17629836,37 ming dollarga, 2017 yilda 17707670 ming AQSh dollarigacha qisqardi. O'zbekistonning tashqi qarzi 1992 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 6870077,64 ming dollarni tashkil qildi.

Terrorizm indeksi. 2018 yilda 0,04 gacha, 2017 yildagi 0,08 dan 2002 yilgacha 0,08 ga tushdi. 2002 yildan 2018 yilgacha O'zbekistonda terrorizm indeksi o'rtacha 1,57 tani tashkil etdi.

Kredit reytingi. "Standard & Poor's" ning kredit reytingi "Barqaror" prognozi bilan "BB" darajasida. Moody'sning O'zbekiston uchun kredit reytingi so'nggi prognozi bilan "B1" darajasida, "Barqaror" prognozi bilan. "Fitch" ning O'zbekistonga kredit reytingi "Barqaror" prognozi bilan "BB -" darajasida xabar qilindi. Umuman olganda, kredit reytingi suveren boyliklar fondlari, pensiya jamg'armalari va boshqa investorlar tomonidan O'zbekistonning kredit layoqatini aniqlash uchun foydalaniladi va shu bilan mamlakatning qarz olish xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sahifada yirik kredit reyting agentliklarining xabar berishicha, O'zbekiston uchun davlat qarzlarini bo'yicha kredit reytingi mavjud.

Nazorat savollari:

6. Mamlakatning tabiiy geografik o'rniga ta'rif bering?
7. Mamlakatning eng rivojlangan sanoat tarmoqlarini ayting?
8. Respublikaning eng yirik ko'mir, neft, gaz va rudali konlarini ayting.
9. Mamlakat xo'jaligida qaysi transport yetakchi o'rinniegallaydi?
10. Respublikaning janubida qanday HICHM shakllangan?

III-BOB. QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI

Reja:

1. Qozog'istonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rne, chegaralari.
2. Qozog'istonning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Qozog'istonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Tayanch tushunchalar: Geografik o'rne, tabiiy sharoit, tabiiy resurslari, tabiiy- geografik o'lka, siyosiy – ma'muriy chegara, chegara uzunligi, iqtisodiyoti, sanoati, eksporti, importi, transporti, YaIM, Davlat daromadlari, ishsizlik darajasi, korrupsiya, inflatsiya, biznes.

1. Qozog'istonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rne, chegaralari.

Qozog'iston respublikasi 1991-yil 16 dekabrda mustaqil davlat sifatida butun Dunyo davlatlari tomonidan tan olindi. Hozirgi kunda Mamlakat Birlashgan millatlar tashkilotlarining teng huquqli a'zosi. **Hududi** – 2717,0 ming km² bo'lib, uning hududiga Eron, Iroq, Turkiya kabi davlatlarni to'liq joylashtirish mumkin. **Aholisi** – 2018 yilda 18,2 million kishini tashkil qildi. O'tmishga nazar

tashlasak, 1960 yilda Mamlakatda 10,0 million kishi bo'lgan. Olimlarni bashorat qilishicha, 2020 yilda aholisining soni 18,67 million atrofida bo'lishi taxmin qilinmoqda. Mamlakat Respublikasi hududining kattaligi jihatdan MDH mamlakatlari Markazida Rossiyadan keyingi o'rinda turdi. G'arbda Kaspiy dengizidan, sharqda Oltoyga qadar 3 ming km va shimolda (Rossiya) va janubga (Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston) 1,8 ming km.dan ortiq cho'ziladi va sharqda XXR bilan chegaradosh.

Iqtisodiy-geografik o'rni:

- Evropa va Osiyo mamlakatlarini bog'lovchi transkontinental temir yul va avtomobil yo'llari muhim iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatiga ega quvur transportning o'tishi;
- Kaspiy dengizi havzasi mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatlarining kattaligi;
- Volga daryosi orqali Rossiya ichki suv va xalqaro suv yo'llariga (AZOV, Qora va Boltiq dengizlari) chiqish imkoniyatlari;
- Rossiyaning iqtisodiy rivojlangan – Ural, Volga bo'yi va G'arbiy Sibir iqtisodiy rayonlari, Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradoshligi mustahkam iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Mamlakatning madaniyati va tarixi ko'p ming yilliklarda shakllangan va rivojlangan. Hozirgi Mamlakat hududida milloddan avvalgi 1-4 ming yilliklarda qabilalar yaylov chorvachiligi bilan shug'ullangan. Eramizdan oldingi 1-3 asrlarda Qang' davlati vujudga kelgan. Millodning 6-8 asrlarida Turk xoqonligi, Ili va Chuv daryolari havzasida turgashlar, keyinchalik Qarluqlar davlati (766-940) tashkil topgan, hunarmandchilik, savdo rivojlandi, shaharlar (Taraz) paydo bo'ldi. Mamlakatning janubida 8-10 asrlarda islom dini tarqaldi, 9-11 asrlarda Mamlakatning g'arbiy va janubi-g'arbiy hududlarida o'g'uzlar xoqonligi parchalanib, uning o'rnida Qoraxoniylar davlati vujudga keldi. 1219-1221 yillarda Mamlakat mo'g'ullar tomonidan bosib olindi va mo'g'ul uluslari tarkib topdi. Keyinchalik Amir Temur To'xtamishga qarshi yurish qildi (1391y), so'ng oradan 200 yil o'tgach Abdullaxon II ham dashti Qipchoqqa yurish qildi. 14-asr ohiri 15

asr boshlarida Oq O'rda, No'g'ay O'rda, O'zbekxonligi kabi bir necha mulklarga bo'linib ketdi.

Manbalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, qozoqlarda davlatchilik 1470 yilda shakllangan. Yettisuv va Chuv daryo vodiysida qozoq sultonlari Jonibey va Kireylar ko'p sonli ellatlarni "Qozoq" urug'iga birlashtirdilar. 16-asr boshlarida Qosimxon boshchiligida (1511-1523y) Qozoq xonligi mustahkamlandi, chegaralari kengaydi, qozoq ellatining shakllanishi nihoyasiga yetdi, aholi soni ortdi. Xonlikni Osiyo va Yevropadagi mamlakatlar yaxshi bilishgan. Keyinchalik, Qozoq xonligi juzlarga bo'linib, Ulug' juz (Ettisuv), Markaziy juz (Markaziy Mamlakat) va Kichik juz (G'arbiy Mamlakat) deb atalgan. 1716 yilda Qozoqlarning oxirgi xoni Taukexan o'lishi bilan Mamlakat hududida mustaqil ko'p sonli xonliklar vujudga keldi. Qozoq madaniyati, iqtisodini rivojlanishida qozoq-rus munosabatlari muhim ahamiyatga ega.



13-rasm. Qozog'iston siyosiy-mamuriy xaritasi

Hozirgi vaqtda Mamlakat Respublikasi ma'muriy hududiy tarkibida 14 oblast mavjud, ular beshta iqtisodiy rayonga birlashtirilgan. Uning hududi shimoldan janubga 1800 km, g'arbdan sharqqa esa 3000 km ga cho'zilgan va quruqlikda 5 ta davlatlar (Rossiya, Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston) bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi 13331 km ni tashkil qiladi. Shuningdek, 600 km masofada Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston bilan Kaspiy dengizi orqali ham chegaralarga ega. Respublikaning iqtisodiy geografik o'рни nisbatan qulay. Markaziy Osiyo davlatlari shimol, g'arb va sharq

bilan bog'lovchi asosiy temir yo'l va avtomobil yo'llari ustida joylashgan. Boshqacha aytganda, Mamlakat Rossiya, Xitoy va Yaponiya hamda G'arbiy Yevropa davlatlari bilan eng qulay holda bog'lanish imkoniyatlariga ega. Uning Kaspiy dengizi bilan tutashligi ham iqtisodiy geografik o'rni qulayliklarini oshiradi.

2. Qozog'istonning tabiiy sharoiti va resurslari.

Tabiiy sharoiti. Relyef xususiyatlariga ko'ra, hududi asosan tekisliklardan (2/3 qismi) tashkil topgan. Qolgan 1/3 qismi tog'lar va yassi tog'liklardan iborat. Umuman respublikaning g'arbiy, shimoliy va Markaziy qismlari tekisliklar bilan egallangan. Asosiy tog'lari shimoliy-sharqiy tomondagi Rudali Oltoy, janubi-sharqiy va janubiy chegaralar bo'ylab Jung'ariya Olatovi, Tarbag'atay, Tyan'shan tog'lari tizmalari, Qorator hamda respublika Markaziy mintaqasi bo'ylab g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan.

Mamlakat Yassi tog'ligi, shimoldan janubga tomon cho'zilgan ancha pastkam Mug'odjar (Ural tog'ining janubiy davomi) va respublikaning chekka janubiy-g'arbiy qismidagi Mang'istov bu ulkan o'lkaning asosiy tog' va yassi tog'larini tashkil qiladi. Uning rel'efi iqtisodiy-geografik nuqtai nazaridan qaraganda, ijobiy xususiyatlarga ega. Boshqacha aytganda, hududni iqtisodiy o'zlashtirishda (ekin maydonlariga aylantirish, yo'llar, aholi punktlari, korxonalar qurishda va boshqalar) ortiqcha qiyinchiliklar to'g'dirmaydi.

Iqlimi turli ob'ektiv sabablarga (hududining kattaligi va g'arb, janubi-g'arbiy hamda shimoliy tomonlardan tabiiy to'siqlarga ega emasligi va boshqalar) ko'ra xilma xil, keskin kontinental xususiyatga ega. Yoz asosan issiq va davomli o'tadi. Iyul' oyining Markaziycha t°si janubiy rayonlarida +26°C dan shimolda +19°C gacha tebranadi. Mutloq maksimum +46°C gacha yetadi. Yoz respublikaning shimoliy va sharqiy hududlari va baland tog'larini hisobga olmaganida, yog'ingarchiliksiz quruq o'tadi. Qish esa Rossiyaning shimoliy hududlaridan qolishmaydigan darajada qahraton. Yanvar' oyining Markaziycha t° janubida -5°C dan shimolida -20°C gacha tebranadi. Mutloq minimum -48°C dan -

53°C gacha yetadi. Sovuqsiz kunlar shimolda 110 kundan janubda 190 kungacha davom etadi.

Markaziycha yog'ingarchilik ko'rsatkichlari respublikaning g'arbiy va janubi-g'arbiy tekis cho'l hududlarida 100 mmdan, shimoliy va shimoli-sharqiy rayonlari tomon ko'payib boradi va 300 mm dan 600-700 mmgacha. Yog'ingarchilik asosan baland tog'li hududlarida eng ko'p tushadi. Tabiiy sharoitning bunday xususiyati respublika hududida asosan kenglik bo'lib (shimoldan janubga qarab) o'rmon-dasht, dasht, chala cho'l va cho'l tabiiy geografik zonalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Tabiiyki, bu zonalar iqtisodiy geografik jihatdan turlicha ahamiyatga ega. Jumladan, o'rmon-dasht, dasht va tog'oldi zonolari dehqonchilik (asosan tabiiy namlik asosida) uchun, boshqa zonalar esa chorvachilik uchun ahamiyatli.




14-rasm. Qozog'iston tabiiy xaritasi

Tabiiy resurslarga Mamlakat ancha boy. Ayniqsa tabiiy mineral resurslar ko'lami va xilma-xilligi bo'yicha. MDH davlatlari orasida mis, qo'rg'oshin, ruh, kumush, volfram, vismut, vanadiy, bariy zahiralari bo'yicha birinchi, neft', molibden, kadmiy, boksit, fosforit, asbest zahiralari bo'yicha ikkinchi, ko'mir, temir rudasi, ko'plab turdagi mineral qurilish materiallari zahiralari bo'yicha uchinchi o'rinlarni egallaydi. Bu degani, Mamlakatning ham jahonda egallagan o'rnini juda yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtda Mamlakatda 100 dan ortiq

ko'mir, 200 dan ortiq neft va tabiiy gaz, 200 dan ortiq mis va 1000 dan ortiq turli boshqa rangdor metall konlari borligi aniqlangan.

Mamlakat yoqilg'i mineral resurslari bilan ayniqsa yaxshi ta'minlangan. Ko'mirning yarmi toshko'mir, qolgan qismi esa qo'ng'ir ko'mirdir. Mamlakatda jahon ko'mir zahirasi 3,3 % to'plangan. Respublika ko'mir qazib chiqarish bo'yicha jahonda sakkizinchi o'rinda. Ko'mirning respublika hududidagi zahirasi 176,6 mlrd tonna. Qarag'anda ko'mir havzasi respublikaning barcha konlariga nisbatan eng ahamiyatlidir. U yagona kokslanadigan ko'mir konidir va asosan shaxta usulida qazib chiqariladi. Unda 51 mlrd t. zahira jamlangan. Havzaning umumiy hajmi-3 ming km², chuqurligi -50-300m, qalinligi 1,5-15 m. Qarag'anda ko'mir havzasiga-Abay, Shaxta, Shaxan va boshqa ko'mir konlari kiradi.

Ekibastuz ko'mir havzasi ko'mir qatlamlarining qalinligiga va yer yuzasiga yaqin joylashganlik sharoitiga ko'ra qazib chiqarishda eng yaxshi qulayliklarga ega. Ko'mir havzasining uzunligi 13 km va eni 6 km, ko'mir qatlamining qalinligi -100-120 metrni tashkil qiladi. Uning umumiy zahirasi 12 mlrd t.dir. Ekibastuzda yiliga 50 mln t ko'mir qazib chiqaruvchi jahondagi eng yirik ochiq kar'er "Bogatir" koni ishlaydi. Shuning bilan birga tarkibida "Markaziy", "Sharqiy", "Shimoliy", "Stepnoy" ochiq usulda qazib chiqaruvchi konlari mavjud. Ekibastuzga yaqin joyda respublikaning uchinchi ko'mir havzasi – Moyko'ba (zahirasi 10 mlrd t., shuning 2 mlrd t.ni ochiq usulda qazib chiqarish mumkin) joylashgan. To'rtinchi yirik qo'ng'ir ko'mir havzasi Ubagan (zahirasi 40 mlrd t.) Qustanay oblastida joylashgan bo'lib, To'rg'ay yo'lagi bo'ylab asosan shimoldan janubga tomon 800 km ga cho'zilgan va 65 m gacha qalinlikka ega. Shuningdek, Kenderli, Belokammenoe (Sharqiy Mamlakat oblasti), Qaljat, Qorjanko'l, Langar kabi ko'mir konlari ham mavjud.



15-rasm. Qozog'iston foydali qazilmalari xaritasi

Mamlakat neft zahiralari ham Markaziy Osiyoda eng boy mamlakatdir. Asosiy konlari Ural-Emba-Aqbo'ta va Mang'ishloq (Mang'istov) neft'-gazli mintaqalarida joylashgan. Aniqlangan zahiralari ko'ra neft' 3,2 mlrd. t. ni va tabiiy gaz 6 trln m³ ni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda 60 kon faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada dastlabki neft konlari XX asr boshlaridan aniqlangan (Dossor-Makat-Emba), 60 yillar davomida Mang'ishloq (Jetiboy, Uzen, Tasbolat kabilar) konlaridan foydalanish boshlandi. Ularning nefti yengil, uchuvchan birikmalarga ancha boy, shu bilan birga tarkibida smola va parafin birikmalari ko'p (50%). 70-80 yillar davomida eng istiqbolli Bo'zachi, Tengiz, Qalamqas, Qarajanbas, Qizilo'rda viloyatida Qumko'l konlari aniqlandi. Bular orasida o'zining zahiralari kattaligiga ko'ra Tengiz jahondagi eng yirik birinchi beshlikka kiradi.

16-rasm. Qozog'iston-Xitoy neft quvuri



So'nggi yillarda bir qator gaz konlari ham aniqlanadi. Bular Ustyurtdagi Joman, Quyonquloq, Yaxshi Quyonquloq, Cho'mishti, Oqko'l, Qiziloy hamda Mang'itloq yarim oroli janubidagi Oymasha konlaridir. Mamlakatning neft' va gaz konlari zahirolari ko'pligiga qaramay joylashgan o'rni ancha noqulayligi bilan ajralib turadi. Ular aholi eng siyrak va qurg'oqchil G'arbiy rayonlarda asosiy iste'mol rayonlaridan juda uzoqda joylashgan. Metall rudali mineral resurslar bo'yicha Mamlakat nafaqat MDHda, balki jahondagi eng boy mamlakatlardandir. Muhimi u ham qora, ham rangdor metallarga boy. Ayniqsa rangdor metall rudalari xilma-xilligi va zahiralariga ko'ra alohida ajralib turadi. Hozirgi vaqtda 74 mis koni aniqlangan. Bular Jezqazg'an, Sayak, Qo'ng'iro't, Bo'zshako'l, Chatirko'l va boshqalar. Polimetall konlari orasida Ziryan, Uskemen, Leninogorsk, Zmeynogorsk, Belousov (Sharqiy Mamlakat), Tekeli, Achisoy eng yiriklaridan hisoblanadi. Shuningdek, boksit (Arqaliq, To'rg'ay), xromit (Donskoe), vol'fram, molibden, kumush, oltin, nikel' kabilarning ham o'nlarcha konlari mamlakatning turli hududlari bo'ylab joylashgan.

Mamlakat Markaziy Osiyo davlatlari orasida ancha boy temir ruda zahiralariga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Uning hissasiga MDH davlatlari umumiy zahiralarining 17% to'g'ri keladi. Qustanay oblastida Sokolov-Sarbay, Kachar, Ayak, Lisakovskiy, Markaziy Mamlakatda Atasuv, Qorajol, Shimoliy

Orolbo'yi kabi temir ruda konlari eng ahamiyatlidir. SHuningdek respublika marganets konlariga (Jezdi) ham nisbatan boy. Kimyoviy mineral resurslari ham ancha xilma-xil va boy. Bu xil resurslarining asosini fosforit konlari tashkil qiladi. Qorator fosforit havzasi zahirasi va sifat ko'rsatkichlariga ko'ra MDHdagina emas, balki jahondagi eng yirik konlardan hisoblanadi. Bundan tashqari Aqto'be (Aktyubinsk) fosforit koni ham respublika xalq xo'jaligida ahamiyatli. Mamlakatda tuz mineral boyliklari juda xilma-xil va keng geografiyaga ega. Tuz zahirallari shunchalik kattaki, ularni agar respublika hududida yoyib chiqilsa, 70 smlik qatlamni tashkil qilgan bo'lar edi. Tuzlarning deyarli barcha turlari bor. Noruda qurilish mineral resurslari ham katta zahiralarda va xilma-xillikda mavjud. Ular orasida asbest (Jetig'ara), grafit, slyuda, flyuorit, dolomit, ohaktosh kabilar alohida ahamiyatga ega. Boshqa xil tabiiy resurslardan Mamlakat deyarli barcha turdagi tugamaydigan resurslar (quyosh radiatsiyasi, shamol, geotermal kabilar)ga ancha boy. Mamlakatning eng muhim boyliklaridan biri yer resurslari (270,1 mln ga) bo'lib, u ko'rsatkichlariga ko'ra MDHdagi yirik respublikalardan hisoblanadi. Bu yerdagi yer maydonining 82 % i qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardir. Uning yaylovlari va o'tloqlari 190 mln ga, xaydaladigan yerlar esa 30,2 mln ga. Mamlakat xaydaladigan yerlar maydoni bo'yicha jahonda oltinchi o'rinda. Yaylovlari va o'tloqlari maydoni bo'yicha esa jahonda turtinchi o'rinda. SHu bilan birga suv resurslariga uncha boy emas. Umumiy iqlimiy hususiyatlariga bog'liq holda suv zahirallari o'zgarib to'radi. Mamlakatda ichki suv resurslari 115,3 mlrd m^3 ni tashkil etadi. Uning 60,4 mlrd m^3 suv zahirasi respublika hududida, 54,9 mlrd m^3 suv zahirasi esa qushni mamlakatlar hududidan kirib keladi. Mamlakat hududidagi ichki suv zahirallarining 62 % i Janubiy Mamlakatga, 30 % i Shimoliy Mamlakatga, 4,8 % i Markaziy Mamlakatga, qolgan qismi esa boshqa hududlarga tegishlidir.

Mamlakatda umumiy soni 85 mingga yaqin daryo, 48 mingdan ortiq ko'llar bor. 8 mingga yaqin ko'llarning o'zunligi 10 km-dan oshadi. Ko'llarning umumiy maydoni 45 ming km^2 , uning 94 % ning maydoni 1 km^2 - dan oshmaydi. Balxash, Zaysan, Olako'l, Tengiz, Sileti, Sasiqko'l, Qushmurun, Marqako'l yirik ko'llar


hisoblanadi. Yer yuzasining faqat 4 % qismi (11 mln ga) o'rmonli hududlar hisoblanadi. Shuningdek, rekreatsiya resurslarining imkoniyatlari ham katta. Xilma-xil tabiiy landshaftlar, ko'llar (ularning soni 40 mingdan ortiq), mineral suv manbalari va shifobaxsh balchiqlar va boshqalar respublika rekreatsiya resurslarining asosini tashkil qiladi.

3. Qozog'istonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Aholisi va mehnat resurslari. Mamlakat Respublikasi aholisi MDH davlatlari orasida eng ko'p millatlilardan biridir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, unda 110 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi.


Buning asosiy sababi aholisining o'ziga xos dinamikasidir. Uning aholisi soni quyidagicha o'zgarib bordi (mln kishi hisobida): 1926 y. – 6,0; 1939 y. – 6,1; 1959 y. – 9,3; 1979 y. – 14,7; 1989 y. -16,5; 1995 y. – 16,7; 1997 y. – 15,9; 2006 y – 15,2. Ko'rinib turibdiki 1939-1959 yy. va 1959-1979 yy. orasida aholi son jihatdan ancha yuqori sur'atlarda o'sgan.

- Birinchi sabab, og'ir urush yillari bo'lganiga qaramasdan bu holatning buzilishiga sabab, sobiq Ittifoqning G'arbiy va Markaziy rayonlaridan anchagina sanoat korxonalarini va aholining evakuatsiya qilinganligidir.
- Ikkinchi sabab, Mamlakatda keng doirada qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlarining davom ettirilgani va eng muhimi G'arbiy rayonlardan millionlab turli millat vakillarining bu respublikaga ko'chirib keltirilganligidir. Ikkinchi sabab, II jahon urushidan oldin, ayniqsa undan keyingi davrlarda Mamlakatda ko'plab yer osti konlarining o'zlashtirilishi va yangi sanoat korxonalarining ishga solinishi sababli yevropalik millat vakillaridan o'n minglab kishilar ko'chirib keltirilgan.
- Uchinchi sabab, Mamlakat 30-yillar oxirlari va 50-yillar boshlarida amalga oshirilgan ommaviy repressiya qilinganlarining ham anchagina qismini qabul qilgan. Shunday qilib, bu holatlar nafaqat Mamlakat aholisining son jihatdan tez ko'payishiga, shuning bilan aholi milliy tarkibining murakkablashib ketishiga ham olib keldi.



17-rasm. Qozog'iston aholisi zichligi xaritasi


So'nggi 2018 yil holati bo'yicha aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra respublika aholisining etnik tarkibining quyidagi diagrammada ko'rishimiz mumkin.



Aholining hududiy joylashishi tabiiy yashash sharoiti va hududiy iqtisodiy jihatdan o'zlashtirishi darajasiga bog'liq holda turlichadir. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra Mamlakat aholisining zichligi har 1 km maydonga 5,5 kishini tashkil qiladi. Bu MDHda eng past ko'rsatkichdir. Janubiy va Shimoliy Mamlakat intensiv

dehqonchilik rayonlarida aholining zichligi eng yuqori 22-25 kishini tashkil qiladi. Ammo G'arbiy va Markaziy Mamlakatning cho'l hududlarida bu ko'rsatkich har bir km² ga 1-2 kishidan ortiq emas.

Mamlakatda urbanizatsiya darajasi Markaziy Osiyoda eng yuqori. 2018 yilda jami aholining 57,6 % shaharlarda, qolgan qismi esa qishloqlarda yashagan. Umuman respublikada urbanizatsiya jarayoni ancha tez bordi. Hozirda Mamlakatda 86 shahar, 200 atrofida shaharcha mavjud. Mamlakatda bitta millioner shahar Almati shahri (1 mln 422,4 ming) mavjud.




Respublikada aholining 62,2 % (2016y.) mehnatga layoqatli yoshdagilardan iborat. Ammo Mamlakat hududida mehnat resurslariga hamisha ehtiyoj seziladi. Aholining mehnatga yaroqli qismi sobiq ittifoq davrida 16-dan 60 yoshgacha erkaklar, 16-dan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar tashkil etgan bo'lsa, hozir 16-dan 63 yoshgacha erkaklar, 16-dan 58 yoshgacha bo'lgan ayollar mehnat resurslari hisoblanadi. Respublikada aholining 48,4 %-ni erkaklar, 51,6 %-ni ayollar tashkil etadi.

18-rasm. Qozog'iston Kaspiy transport tizimi (KCTS) loyihasi



Мамлакат xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Hozirgi vaqtda hududiy mehnat taqsimotida Mamlakat ixtisoslashgan tarmoqlar – chorvachilik, don xo'jaliklari bilan ishtirok etadi. Mamlakat qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan tarmoqlardan biridir. Asosan donli ekinlar yetishtiriladi. Donli ekinlardan bug'doy, eng ko'p ekilib, u barcha donli ekin maydonining 2/3 qismini egallaydi. Bundan tashqari donli ekinlardan tariq, sholi, arpa ekiladi. Texnika ekinlaridan paxta, kungaboqar, qandlavlagi ko'proq ekiladi. Chorvachilik qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ayniqsa qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari qoramol, yilqichilik, tuyachilik bilan ham qadimdan shug'ullanib kelishadi.



19-rasm. Qozog'iston qishloq xo'jaligi va chorvachilik xaritasi

Qishloq ho'jaligi respublikada notekis rivojlangan. Jumladan sug'orib dehqonchilik qilish Janubiy Mamlakatda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerda qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelinadi. Asosiy ekinlari paxta, qandlavlagi, tamaki, sholi, makkajo'xori xisoblanadi. Bundan tashqari bog'dorchilik va uzumchilik ham katta ahamiyatga ega. Chorvachilikda qo'ychilik, qoramolchilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Respublikaning shimoliy qismi esa ko'proq don yetishtirishga ixtisoslashgan. Bu yer mamlakatning asosiy ekin ekiladigan maydoni ham hisoblanadi. Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham rivojlangan. Chorvachilikda qoramolchilik va cho'chqachilik yetakchi tarmoq xisoblanadi.

Shuningdek yilqichilik ham katta ahamiyatga ega. Chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqalardan yana biri G'arbiy Mamlakat hisoblanadi. Uning chalacho'l va cho'l hududlarida qorako'lchilik, shimoliy hududlarida yirik shoxli qoramolchilik rivojlangan. Uning ho'jaligida yilqichilik, baliqchilik ham o'ziga xos o'rinda turadi. Dehqonchilik nisbatan kam rivojlangan.

Asosiy ekinlari bug'doy, arpa hamda poliz ekinlari hisoblanadi. Shudgor qilinadigan hududlar Respublikaning 10 foizga yaqin hududini tashkil etadi. Markaziy Mamlakatda yaylovlar ko'p bo'lib bu yerda ham qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik hamda tuyachilik rivojlangan. Yirik shaharlar atrofida sut-go'sht chorvachiligi, qurg'oqchil mintaqalarida esa go'sht chorvachiligi ustun turadi.

Dehqonchilikda don yetishtirish rivojlangan. Shu bilan birga texnika ekinlaridan pista va zig'ir yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sharqiy Mamlakat o'zining chorvachiligi bilan ajralib turadi. Bu yerda sut-go'sht chorvachiligi (qoramolchilik) xamda cho'chqachilik rivojlangan. Bundan tashqari Respublikaning yagona bug'uchilik rivojlangan mintaqasi ham hisoblanadi. Tog'li hududlarida asalarichilik bilan ham shug'ullanishadi. Bu mintaqada lalmikor dexqonchilik rivojlangan.

Transport – xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i «Qon tomiri» hisoblanadi. Mamlakat hududining katta qismi quruqlik bo'lib ularda tabiiy suv yo'llari juda ham kam. Shu sababli yuk va yo'lovchi tashishda quruqlik transportining ahamiyati kattadir. Respublikada tashiladigan yuklarning 90 foizi avtomobil va temir yo'l transportlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek mamlakatda yuk va yo'lovchi tashishda suv, havo va quvur transportlari ham ishtirok etadi. Mamlakat transporti asosan sobiq ittifoq davrida rivojlangan. Mamlakatda mavjud bo'lgan temir yo'lining (14,5 ming km) 85 foizi, shuningdek avtomobil, havo va quvur transportlari to'lig'icha o'sha vaqtlarda qurilgan.

Mamlakat transportida temir yo'l transporti yetakchi hisoblanadi. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha MDH orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi


o'rinda turadi. Dastlabkitemir yo'llari-Transsibir va Orenburg-Toshkent revolyutsiyadan oldin qurilgan.

Hozirgi kunda Respublika hududida parallel va meridional yo'nalishda bir necha magistral yo'llar yani, meridional yo'nalishda-TransMamlakat (Petrovlovsk-Qarag'anda-Mointi-Chuv), Turksib (Aris-Olma-ota-Semipalatsinsk) va Orenburg-Qizilo'rda-Toshkent, parallel yo'nalishda Transsibir, Markaziy Sibmr (Troitsk-Kustanay-Kokchatov-Qorasuk) va Janubiy Sibir (Magnitogorsk-Oqmola-Pavlodar-Barnaul) temir yo'llari ishlab turibdi.

Temir yo'lda asosan kumir, temir rudasi ,rangli metallar, don, neft va neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari kabi yuklar tashiladi. Respublikadan jo'natilgan yuklar nisbatan ko'p bu aktiv transport balansiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mamlakat yuk oborotining 73,6 foizi temir yo'l transportiga to'g'ri keladi.

Respublika transportida Avtomobil transporti ham katta ahamiyatga ega. Avtomobil yo'lining uzunligi 115 ming kmga yetadi. Shundan 93 ming kmdan ortiqrog'i qattiq qoplamli yo'llardir. Avtomobil yo'llarining uzunligi bo'yicha ham Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turada. Mamlakat yuk oborotida avtomobil transporti hissasiga 14,5 foiz yuk to'g'ri keladi.

Eng yirik avtomagistral yo'llar Janubiy Mamlakat hududidaga to'g'ri keladi. Bu yo'l Olma-Otani Toshkent, Bishkek, Chimkent shaharlari bilan tutashtiradi. Mamlakat ho'jaligida Olmaota-Chilik-Karag'anda-Oqmola-Ko'kchatov Petrovlovsk, Qarag'anda-Kustanoy-Atirau, Oqtov-Jetiboy-Yangi Uzen yo'llari ham katta ahamiyatga ega.



20-rasm. Qozog'iston Respublikasi xalqaro transport koridorlarining sxemasi

Avtomobil transporti rayonlararo, ho'jaliklar aro hamda boshqa mintaqalar orasida yuk tashishda o'ziga xos o'rinda turadi. Yuk tashish hajmi bo'yicha keyingi o'rinlarda quvur transporti turadi. Bu respublikaning eng yosh transport tarmog'i hisoblanadi. Quvur orqali neft va neft mahsulotlari, gaz kabilar tashiladi. Uning umumiy uzunligi 4 ming km dan ortadi.

Respublika hududida daryo va ko'llar kam bo'lishiga qaramasdan Mamlakat suv yo'llarining umumiy uzunligi 4 ming km atrofidadir. Suv yo'li orqali daryo kemachiligi rivojlangan. Ko'pchilik suv yo'llari avtomobil va temir yo'l yo'q bo'lgan joylarda rivojlanganligi sababli katta ahamiyat kasb etadi. Tashiladigan yuklarning asosiy qismi-qurilish materi-allari, non mahsulotlari, o'rmon va yog'ochsozlik, neft va neft mahsulotlari, kumir va boshqalardir. Suv yo'li orasida Irtish daryosi katta ahamiyat kasb etadi. Uning hissasiga suvda tashi-ladigan yuklarning 90 foizi to'g'ri keladi. (Zaysan ko'li bilan birga uzunligi 1750 km). Ikkinchi o'rinda Ural daryosi turadi, uning uzunligi 1100 kmga yetadi. Ili, Ishim, Sirdaryo daryolaridan foydalanish ancha qiyinchiliklar tug'diradi.

Kaspiy dengizida dengiz transporti rivojlangan. Kaspiy dengizi Respublikani 2300 km masofada yuvib turadi. Neft konlarining ochilishi natijasida dengizda yuk tashish rivoj-landi. Bu yerda Atirau portidan tashqari Oqtov, Bautiko va Yeraliev

portlari qurilgan. Bu portlar orqali Qozig'iston-Ozarbajon, Dog'iston, Turkmaniston Respublikalari hamda quyi volga bo'yi rayoni bilan aloqa kiladi. Dengiz orqapi neft va neft mahsulotlari, qurilish materiallari, balik, mashina va dastgohlar halq iste'mol buyumlari tashiladi. Hududning kattaligi sababli eng tez transport - havo transporti ham katta ahamiyatga ega. Respublikaning ko'plab shaharlaridan yaqin va uzoq horij mamlakatlariga havo yo'llari ochilgan. Respublikaning havo yo'llari 1000 km dan ortadi. Barcha oblaet markazlarida zamonaviy aeroportlar qurilgan.

Iqtisodiy rayonlar– o'zining tabiiy sharoiti va resurslarning xilma xilligi bilan bir-biridan farq qiladi. Janubiy Mamlakat yirik sug'orib dehqonchilik qiladigan, intensiv qishloq xo'jalygi rivojlangan mintaqadir. Bu yerda qadimdan qimmatbaho texnika ekinlari: paxta, qand lavlagi, tamaki, hamda donli ekinlardan sholi va makkajo'xori yetishtiriladi. Shuningdek bog'dorchilik va uzumchilik bo'yicha ham oldingi o'rinlarda turadi. Qo'ychilik ham yaxshi rivojlangan.



21-rasm. Qozog'iston iqtisodiy rayonlari xaritasi

(1.Markaziy rayon 2.Shimoliy rayon 3.Janubiy rayon 4.Sharqiy rayon 5.G'arbiy rayon)

9-jadval. Mamlakat iqtisodiy rayonlari.

Iqtisodiy rayonlari	Egallagan maydoni		Aholi soni		Aholining markaziy -cha qishloq aholisi	Shahar va qishloq aholisi	
	ming km kv	%	mln. kishi	%	kishi km.kv	shahar	qishloq
G'arbiy	736,1	27,0	2,2	13,2	3,2	58	42
Shimoliy	565,7	20,8	4,4	26,6	8,4	49	51
Markaziy	428,0	15,7	11,8	10,8	5,8	82	18
Sharqiy	283,3	10,4	1,7	10,2	7,0	57	43
Janubiy	711,8	26,1	6,5	39,2	10,7	42	58
Mamlakat Respublikasi, jami	2724, 9	100,0	16,6	100,0	7,0	56	44

Janubiy mamlakatning yirik sanoat rayoni hamdir. Bu mintaqada fosforit va polimetall rudalari qazib olish, pyx va qalay ishlab chiqarish, superfosfat, har xil mashina va dastgoxlap ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy rayon yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egalaydi.

Shimoliy Mamlakat asosiy aholi yashaydigan xududlardan biri bo'lib, bu MDHning eng yirik don xo'jaligi va go'sht-sut chorvachiligi mintaqasi hisoblanadi. Shu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda ham alohida o'rinda turadi.

Ayniqsa go'sht, sut, un, un mahsulotlari sanoati yaxshi rivojlangan. Bu mintaqada respublikaning yirik temir rudasi qazib chiqarish, hamda boshqa tog'-kon sanoati markazi ham hisoblanadi. Shular asosida mintaqada qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanib bormoqta. Shuningdek mashinasozlik, kumir va elektroenergetika sanoati ham yaxshi rivojlangan.

Markaziy Mamlakat - nafaqat respublikaning balki MDHdagi eng yirik kumir va temir bazasi hisoblanadi. Shuningdek bu yerda rangli metallurgiya, ko'p metall talab etuvchi mashinasozlik, hamda kimyo sanoati yaxshi taraqqiy etgan. Yangi

yerlarning o'zlashtirilishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari - don yetishtirish, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanib bormokda.

Sharqiy Mamlakat - mamlakatning va MDH davlatlarining eng yirik rangli metallurgiya va Hidroelektroenergiya ishlab chiqarish markazi hisoblanadi. Shuningdek mintaqa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ham katta ahamiyatga egadir. Don yetishtirish, go'sht chorvachiligi, qo'ychilik asosida yengil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan.

G'arbiy Mamlakat - mamlakatning yagona neft qazib olish sanoati rivojlangan mintaqadir. Shu bilan birga bu yerda nikel' va xrom qazib chiqarish, neft sanoati mashinasozligi, hamda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Mintaqada baliq ovlash va ularni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa chorvachilik va donchilik yaxshi rivojlangandir.

Bu barcha beshta iqtisodiy rayonlar Mamlakat respublikasi yagona xalq xo'jaligi kompleksini tashkil etadi va geografik mehnat taqsimotida katta o'ringa egadir.

YaIM. 2018 yilda Qozog'iston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 170,54 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Qozog'istonning yalpi ichki mahsuloti dunyo iqtisodiyotining 0,28 foizini tashkil qiladi. 1990 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda yalpi ichki mahsulot 86,78 milliard dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston YaIM 2020 yilda 191,50 milliard dollarni tashkil etadi.

YaIMning doimiy narxlari. 2018 yilda Qozog'istondagi YaIMning doimiy narxlari 27696,95 KZTga ko'tarilib, 2018 yilning birinchi choragidagi 13155.37 mlrd. Dan. Qozog'istonda YaIMning doimiy narxlari 1994 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 9579,81 mlrd. tengeni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston YaIMning joriy narxlari 2020 yilda 65176,00 milliardga teng bo'ladi.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot. 2018 yilda 11165,50 AQSh dollarini tashkil qildi. Qozog'istonda jon boshiga yalpi ichki mahsulot dunyo o'rtacha 88 foiziga teng. 1990 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda aholi jon

boshiga yalpi ichki mahsulot 7096,69 AQSh dollarini tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, aholi jon boshiga nisbatan Qozog'iston YaIM 2020 yilda 11159,20 dollarni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligidan YaIM. 2018 yilda Qozog'iston qishloq xo'jaligidan YaIM 6789118 mln.ga ko'tarilib, 2018 yilning birinchi choragida 274580.60 mln. teng bo'ldi. Qozog'istondagi qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsuloti 2007 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 873509,77 mln.ga teng bo'lib, 6789118 mln. 2018 yilda va 2007 yilning birinchi choragida rekord darajadagi 49779.30 mln. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston YaIM qishloq xo'jaligidan 2020 yilda 1849234,62 mln.

Ishlab chiqarishdan YaIM. 2018 yilda Qozog'istondagi ishlab chiqarishdan YaIM 3318029.40 mln. teng o'sdi. Qozog'istonda ishlab chiqarishdan YaIM 2007 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 2175901.99 mln. Tengeni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston YaIM ishlab chiqarishdan 2020 yilda 5183527,67 mln.

Qazib olishdan YaIM. 2018 yilda Qozog'istondagi qazib olishdan YaIM 47837518 mln.ga ko'tarildi. 2125713.40 million tenge - 2018 yilda kluzatildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'istondagi YaIMning tog'-kon sanoati 2020 yilda 6967595,91 mln.

Transportdan YaIM. 2018 yilda Qozog'istondagi transportdan Yalpi ichki mahsulot 22397386 mln. tangaga tashkil etdi, 2007 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 22397386 mln. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston YaIM transportdan 2020 yilda taxminan 3357675,18 mln.

Eksport narxlari. 2018 yilda 98.40 indeks punktlariga, 2018 yil mayidagi 103.40 indeks punktlariga tushdi. Qozog'istondagi eksport narxlari 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 100.93 indeks punktlarini tashkil etdi.

Import narxlari. 2018 yilda 100,20 indeks punktlaridan 2018 yilda 100,80 indeks punktlariga ko'tarildi. Qozog'istondagi import narxlari 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 100.89 indeks punktlarini tashkil etdi.

Ishsizlik darajasi. 2017 yildagi 4,80 foizdan 2018 yilda 4,80 foizda saqlanib qoldi. 2003 yildan 2018 yilgacha ishsizlik darajasi o'rtacha 5,61 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda, Qozog'istonda ishsizlik darajasi 2020 yilda taxminan 4.90 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ish bilan band bo'lganlar soni. 2018 yilda 8762,90 mingga ko'tarildi. 2001 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda ish bilan band bo'lganlarning o'rtacha soni 7912,79 ming kishini tashkil qildi.

Ishsizlar soni. 2018 yilda 443,20 ming kishiga ko'tarildi. 2001 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda ishsizlar o'rtacha 546,25 ming kishini tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Qozog'istonda ishsizlar soni 434.00 ming atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Yoshlarning ishsizlik darajasi. 2018 yilning uchinchi choragidagi 3,90 foizdan 2018 yilning to'rtinchi choragida 3,60 foizga tushdi. 2001 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda yoshlarning ishsizlik darajasi o'rtacha 8,40 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'istonda yoshlarning ishsizligi darajasi 2020 yilda taxminan 4.10 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Ish haqi. 2018 yilda 188632 KZT / oyiga ko'tarildi. Qozog'istonda ish haqi 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha oyiga 79299,25 tangaga teng bo'ldi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'istonning o'rtacha oylik ish haqi 2020 yilda oyiga o'rtacha 174000.00 KZT / trend atrofida bo'lishini prognoz qilmoqda.

Inflyatsiya darajasi. 2018 yilda 5,50 foizni tashkil etdi. Qozog'istondagi inflyatsiya darajasi 1992 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 45,88 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'istondagi inflyatsiya darajasi 2020 yilda 4,70 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Foiz stavkasi. Qozog'iston Milliy banki 2018 yildagi yig'ilishida kutilganidek, asosiy stavkasini 9,25 foiz darajasida ushlab turdi. 1992 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda foiz stavkasi o'rtacha 23,41 foizni tashkil etdi. Bashorat

qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston foiz stavkasi 2020 yilda taxminan 9,50 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Savdo balansi. 2018 yilda Qozog'iston tashqi savdo aylanmasi 1831,80 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Qozog'istondagi savdo balansi 1998 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1497,50 million dollarni tashkil qiladi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston savdo balansi 2020 yilda 3380,00 AQSh dollari atrofida tendentsiyaga ega bo'lishi kutilmoqda.

Joriy hisob. 2018 yilda Qozog'istonning joriy hisob-kitob taqchilligi keskin oshib, 2,79 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu o'tgan yildan beri eng katta joriy defitsit edi, chunki tovarlar bo'yicha saldo 3,18 milliard AQSh dollarigacha qisqardi, o'tgan yildagi 6,27 milliard dollardan, ikkilamchi daromad profitsiti 0,32 milliard AQSh dollaridan 0,11 milliard dollarga tushdi. Shu bilan birga, xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblardagi farq 1.31 milliard dollardan 0,47 milliard dollarga tushdi, asosiy daromadlardagi farq 5.63 milliard dollardan 5.61 milliard dollarga tushdi. 1995 yildan 2018 yilgacha Qozog'istonda joriy hisob raqami o'rtacha 155,57 million dollarni tashkil qildi, bu esa 2014 yilning birinchi choragida 6655,80 million dollarga etdi va 2007 yilning uchinchi choragida rekord darajadagi -3081.30 million dollarni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Qozog'istonning joriy hisob raqamida 950,00 AQSh dollari atrofida tendentsiya kutilmoqda.

Davlatning YaIMga nisbatan qarzi. 2018 yilda davlat qarzi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 21,90 foiziga teng bo'lgan. Davlatning Qozog'iston yalpi ichki mahsulotidagi qarzi 2002 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 13,26 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston hukumatining YaIMga nisbatan qarzi 2020 yilda 17.00 foiz atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Davlat byudjeti YaIMga nisbatan. 2018 yilda davlat byudjeti mamlakat yalpi ichki mahsulotining 1,40 foiziga teng taqchilligi qayd etildi. Qozog'iston hukumatining byudjeti 1993 yildan 2018 yilgacha o'rtacha yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,8 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga

ko'ra, 2020 yilda Qozog'iston davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 1,50 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda.

Chakana savdo. 2018 yilda Qozog'istonda chakana savdo oldingi oyga nisbatan 6,90 foizga kamaydi. Qozog'istondagi Chakana savdo 2010 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1,55 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston Chakana sotish 2020 yilda 2.90 foizga yaqin tendentsiyaga ega.

Korporativ soliq stavkasi. 2018 yilda 20 foizni tashkil etdi. 2005 yildan 2018 yilgacha Qozog'istondagi korporativ soliq stavkasi o'rtacha 22,86 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Qozog'istonning korporativ soliq stavkasi 20,00 foiz atrofida bo'lishini taxmin qilmoqda.

Pensiya yoshidagi erkaklar. 2018 yilda 63 yoshdan 2017 yilga nisbatan 63 ga o'zgarishsiz qoldi. Qozog'istondagi pensiya yoshidagi erkaklar 1995 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 62,48 ni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston pensiya yoshidagi erkaklar 2020 yilda 63.00 atrofida tendentsiyalarni taxmin qilishmoqda.

Pensiya yoshidagi ayollari. 2018 yilda 58 yoshni, 2017 yildagi 58 yoshdan o'zgarmadi. Qozog'istondagi pensiya yoshidagi ayollar 1995 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 57,48 tani tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston pensiya yoshidagi ayollarning tendentsiyasi 2020 yilda 58.00 atrofida bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchilarning narxlari. 2018 yilda Qozog'istonda ishlab chiqaruvchilarning narxlari 10.00 foizni tashkil etdi. 1999 yildan 2018 yilga qadar Qozog'istonda ishlab chiqaruvchilar narxlarining o'zgarishi o'rtacha 12,72 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston ishlab chiqaruvchilarining narxlari o'zgarishi 2020 yilda taxminan 4.00 foizga o'zgarishi kutilmoqda.

Banklar balansi. 2018 yilda banklar balansi jadvali 26118294045 ming mingga ko'tarildi, 2018 yilda 25334257596 ming tengani tashkil etdi.

Qozog'istondagi banklar balansi o'rtacha hisobda 17539616553,99 KZT 2008 yildan 2018 yilgacha 26118294045 ming tengeni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimiz bo'yicha, Qozog'iston banklari balansi balansi 2020 yilda 24700000000.00 mingga yaqin tendentsiyaga ega bo'lishi kutilmoqda.

Valyuta zaxiralari. 2018 yilda 29501 million AQSh dollaridan oshdi. Qozog'istondagi valyuta zaxiralari 1993 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 15025,91 million dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qozog'iston valyuta zaxiralari 2020 yilda taxminan 35100.00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Mamlakatning tabiiy geografik o'rniga ta'rif bering?
2. Mamlakatning eng rivojlangan sanoat tarmoqlarini ayting?
3. Respublikaning eng yirik ko'mir, neft, gaz va rudali konlarini ayting.
4. Mamlakat xo'jaligida qaysi transport yetakchi o'rinniegallaydi?
5. Respublikaning janubida qanday HICHM shakllangan?

IV-BOB. QIRG'IZISTON RESPUBLIKASI

Reja:

1. Qirg'izistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rne, chegaralari.
2. Qirg'izistonning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Qirg'izistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Tayanch tushunchalar: Geografik o'rne, tabiiy sharoit, tabiiy resurslari, tabiiy- geografik o'lka, siyosiy – ma'muriy chegara, chegara uzunligi, iqtisodiyoti, sanoati, eksporti, importi, transporti, YaIM, Davlat daromadlari, ishsizlik darajasi, korrupsiya, inflatsiya, biznes.

1. Qirg'izistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rne, chegaralari.

Qirg'iziston Respublikasi mustaqil davlat bo'lib, u o'z mustaqilligini 1991-yilning avgustida qo'lga kiritdi. Qirg'iziston davlati demokratik asoslarga tayangan holatda jahonda tinchliksevar va o'z navbatida hech qanday harbiy bloklarga


qo'shilmaslik siyosatini olib bormoqda. Hokimiyatni umumxalq tomonidan 5 yil muhlatga saylab qo'yilgan Prezidenti boshqaradi. Hududining kattaligi va aholisining soni jihatidan Markaziy Osiyo davlatlari ichida to'rtinchi o'rinda turadi. Uning, hududi g'arbdan sharqqa 900 km, shimoldan janubga 410 km.ga cho'zilgan.

Poytaxti – Bishkek. **Maydoni** – 197 500 km². **Aholisi** –2018 yilda 6,3 million kishini tashkil etgan. O'tmishga nazar tashlasak, 1960 yilda Qirg'izistonda 2,2 million kishi bo'lgan. Bashorat qilinishicha, 2020 yilga kelib 6.39 million atrofida bo'lishini taxmin qilmoqda. Respublikaning milliy tarkibida qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etadi (60 foizdan ortiq). Respublika ham shu millat nomi bilan ataladi. Inqilobgacha ular qoraqirg'iz deb atalgan. Arxeologik tadqiqotlar bundan 3000 yil avval bu yerda mahalliy aholi yashaganini bildiradi. Eramizdan avvalgi 7-3 asrlarda yashagan qabila sak deb atalgan. Keyinchalik usun qabilalari ko'chib kelgan. Ular temirchilikni bilgan va ko'chmanchilik bilan shug'ullangan.

Qirg'iz qabilalari avval Yeniseyning yuqori oqimlarida yashagan, keyinchalik ular turk xoqonligi bilan aralashib ketgan va bu yerlarga ko'chib kelgan. Ular bu yerda So'g'dlar ta'siri ostida bo'lgan, dehqonchilikni o'rgangan. X-XII asrlarda Qoraxoniylar, keyin qoraxitoylar, mo'g'ullar, temuriylar qo'lida bo'lishgan.

Qirg'iz millati sifatida bu yerda 17 asrda shakllangan. 1820 yilda Qo'qon xonligi ta'siri ostida bo'lgan. 19 asrda ruslar kelgan va Qo'qon qal'asi Pishpak (Bishkek)ni olgan 1916 yilgi urush oqibatida ko'plab qirg'izlar Xitoyga qochib o'tadi. 1918 yilda Rossiya tarkibiga kirishi bilan bu yerga rus millati ko'chib kela boshladi. 1924 yilda Qorqirg'iz AO, 1925 yilda Qirg'iz AO, 1936 yildan respublika, 1991 yildan alohida davlat bo'ldi.

Bu tarixiy jarayonlar aholiga katta ta'sir ko'rsatdi. 2018 yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, qirg'izlarning etnik guruhi aholining ko'p qismini tashkil etadi (73,3%). Keyingi o'zbeklar (14,7%), ruslar (5,6%), dunganlar (1,1%), uyg'urlar (0,9%), tojiklar (0,9%) va boshqalar.



22-rasm. Qirg‘iz aholisining zichligi xaritasi

Aholisi milliy tarkibi bo‘yicha ayrim rayonlari bir-biridan farq qiladi. Farg‘ona vodiysining O‘sh viloyati sug‘oriladigan yerlarida o‘zbeklar istiqomat qilishadi. Ruslar, ukrainlar asosan Chuy vodiysida hamda Issiqko‘l bo‘ylarda, qozoqlar esa Talas vodiysida yashashadi. Tatarlar, uyg‘urlar, tojiklar, dunganlar, nemislar va boshqalar yashashadi. Respublika aholisi yildan yilga tabiiy o‘rish hisobiga ortib bormoqda. Milliy tarkiblar bo‘yicha eng yuqori o‘rish qirg‘izlarda kuzatilgan. Urbanizatsiya darajasi mustaqillik yillarida nisbatan pasaydi. Geografik o‘rning asosiy xususiyatlari tog‘li relyef ekanligi, okeanlardan uzoqda joylashganligi bilan belgilanadi. Uning sharqda Xitoy, shimolda Qozog‘iston, g‘arbda O‘zbekiston kabi o‘ziga nisbatan iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan qo‘shni ekanligi ijobiy jihatlarini namoyon etadi va temir yo‘l, avtomobil yo‘llari orqali ularga chiqish mumkin. Janubda ko‘p jihatdan o‘ziga o‘xshash Tojikiston bilan qo‘shni.




23-rasm. Qirg'iziston siyosiy-mamuriy xaritasi

Qirg'izistonning Qozog'iston bilan bo'lgan chegarasi Qirg'iz olatovi, Iliorti tizmasi, Xitoy bilan bo'lgan chegarasi Ko'ksho'ltog', Xontangri cho'qqisi, Tojikiston bilan bo'lgan chegarasi Turkiston va Oloy tizmalari, O'zbekiston bilan chegaralari Chotqol, Qurama tizmalari orqali o'tadi. Bu tizmalarning aksariyati 7 kmga yetadi va ular bilan munosabatlarda o'ziga xos qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. G'arbiy chegaralarigina tekislikdan o'tadi va bu Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi, eng murakkab chegaralar ham aynan shu yerda. Eng baland nuqtasi G'alab cho'qqisi (7439 m), eng past qismi g'arbda 394 m. Bo'lib bunday relef sharoiti xilma-xil xo'jalik turlarini rivojlantirish imkonini beradi. Mamlakat, Shimoliy va Janubiy-G'arbiy Qirg'iziston iqtisodiy rayonlariga bo'linadi.


2. Qirg'izistonning tabiiy sharoiti va resurslari.

Tabiiy sharoiti biroz noqulay, chunki u Tyanshan va Pomir-Oloy tog' tizimining bir qismida joylashgan. Ular vodiy va kotlovinalar bilan bo'linib ketgan. Relyefi yaruslar hosil qilgan: 1-tog'oldi, 2-pasttog'lar, 3-Markaziy tog'lar, 4-baland tog'lar. Pastda sug'orib dehqonchilik qilinsa, teparoqda yaylov sifatida foydalanish mumkin.



24-rasm. Qirg'iziston tabiiy xaritasi

Quyoshli kunlar yig'indisi 3000 gradusni tashkil etadi. Kontinental iqlim bo'lgani uchun havo quruq, radiatsiya miqdori katta, bqoriga chiqqan sari havo sovib boradi. Qishda Sibir' antitsikloni hukmron, quruq ochiq sovuq bo'ladi, Issiqko'l atroflarida qish yumshoq bo'ladi (-6). Eng minimal harorat janubi-g'arbda (-28). Yozning Markaziycha harorati plus 25-27 gradus, vegetatsiya davri 180-230 kun, yog'in miqdori 100 dan 1000 gacha o'zgaradi. Qishda janubiy yonbag'ir va kotlovinalarda qor bo'lmaydi, bu esa butun yil davomida qo'y boqish imkonini beradi. Qishda qor ko'chkilari, yozda sel bo'ladi va xo'jalik va aholi yashashi uchun zarar keltiradi.



25-rasm. Qirg'izistonning iqlim xaritasi


(**qizil rang** – juda yuqori xarorat, **sariq rang** - yuqori xarorat, **yashil rang** - past xarorat, **ko'k rang** - juda past xarorat)

Eng sersuv davlat, Norin, Chu, Talas, Qoradaryo, Chotqol shu yerdan oqib o'tadi. Hidroenergetika resurslari bo'yicha MDHda Rossiya va Tojikistondan

keyingi o'rinda turadi. Norin gidroenergetik zahirasi ko'ra MDHda yettinchi o'rinda turadi. (Norin GES kaskadi).

Tabiat respublika xududida ko'plab go'zal manzarani yaratgan. 2000 ta ko'li bor. Bulardan asosiylari Issiqko'l (-1607 m) bo'lib jahonda baland tog'dagi eng katta va chuqur ko'llardan biri hisoblanadi. Uning sho'rligi 5 promille, o'zani chuqurda joylashgan, shu bois muzlamaydi. Rekreatsiya va baliqchilikda foydalaniladi. Respublika xududida Markaziy Osiyoda kattaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan Inilchek muzligi joylashgan. Uning uzunligi 60 km dan ham ortiq. Tog'lardagi daryolar daralari chiroyliligi bilan ajralib turadi. Respublikada davlat muhofazasiga olingan xududlar bo'lib, ularda Issikko'l, Sari-Chelak, Bet-orol kabi ko'riqxonalar tashkil etilgan. Shimolga qaragan yonbag'irlarda o'rmonlar bor.

Gidroenergetik zaxirasi 142.5 mlrd.k Vt s., lekin 9 % dan foydalanadi, qolgani o'zlashtirilmagan. Yoqilg'i zahirasi ko'ra O'zbekiston bilan teng, lekin, qazib olish sharoiti qiyin. 35 ta ko'mir koni topilgan, shundan 7 tasi ishlaydi.



26-rasm. Qirg'izistonning foydali qazilmalari xaritasi

Respublikada ko'plab foydali qazilma konlari topilgan. Yirik oltin konlari (Issikko'l oblastida) Surma va simob (Qadamjoy, Haydarkent) rudalari, toshko'mir

va qo'ng'ir kumir konlari (Toshko'mir, O'zgan, Ko'k yong'oq), volfram (Maylisoy), Oltin (Makmal va Qumtor) hamda Farg'ona vodiysida (Laylak tumani) qisman neft (zahirasi 99.43 mln.t.)va gaz konlari topilgan. Mineral resurslarga, ayniqsa rangli metall rudalariga boy lekin ularni qazib olish qiyin va sarf-xarajatlarni oqlamaydi. Rangdor metallurgiya Qirg'izistonning ixtisoslashgan tarmoqlaridan biridir.

3. Qirg'izistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Respublikada mashinasozlik sanoati, ayniqsa ko'p mehnat talab qiladigan-elektornika, radiotexnika, priborsozlik hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Bishkekda avtoyig'uv va fizika priborlari zavodlari, Qirg'izkabel, Qirg'izelektorodivigatel, Moylisoy Lampa zavodi va boshqalar yirik korxonalar hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi korxonalarning asosiy qismi - 96,5% - real sektor korxonalari, iqtisodiyotning moliyaviy sektori atigi 3,5 foizni tashkil etadi. 2018 yilda iqtisodiyotdagi korxonalar tovarlari, ishlari va xizmatlarini sotishdan tushgan daromad hajmi 460,66 milliard so'mni (6,6 milliard dollar) tashkil etdi. Ularning 91,7 foizi iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalar va 8,3 foizi moliya sektori korxonalari tomonidan shakllantirildi.

Ko'rib turganingizdek, eng katta yalpi daromad ishlab chiqarishdan keladi. Eng ko'p pul mablag'lari metall va tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga - 108,2 milliard so'mga, shuningdek, oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishga - 28,9 milliard so'mga to'g'ri keladi. Qirg'izistondagi korxonalarning umumiy daromadi 34,7 milliard so'mni tashkil etdi. Bu 2017 yilga nisbatan 3,1 foizga ko'pdir. Shunisi e'tiborga loyiqki, Qirg'izistonda daromad keltiradigan korxonalar ulushi 36,7, zararli bo'lganlar esa 22,6 foizni tashkil etadi.

Respublika sanoati mahalliy yoqilg'i va mineral xom ashyolar asosida rivojlanib bormoqda. Sanoat korxonalarining 3/2 qismi Bishkek, O'sh, Toqmoq, Jalolobod shaharlarida joylashgan. Oxirgi yillarda sanoatni kompleks rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Kichik va Markaziy shaharlarda ham bir qancha

yangi sanoat korxonalari tashkil etilmokda. Prijevalsk, Norin, Ribachye, Qora-bolta, Toshko'mir, Qizilqiya va boshqa ko'plab shaharlar va qishloqlar jumlasidandir. Qirg'iziston Markaziy Osiyoda surma, simob, o'ruv-yig'uv mashinalarni ishlab chiqarish, jun gazlamalar ishlab chiqarish, hayvon yog'i va boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha alohida o'rinda turadi. Mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha Respublika Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetkachi o'rinlarda turadi.

Respublika mashinasozlik korxonalarida xilma-xil mahsulotlar-metall qirquvchi stanoklar, qishloq xo'jalik mashinalari, avtosamosvallar, elektr mashinalari va elektro-dvigatellar, fizik o'lchov asboblari, elektron hisoblash mashinalari, elektronasoslar, kir yuvish mashinalari (Kirgiziya) elektr lampalari va boshqalar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar respublika ehtiyojidan tashqari ko'plab xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi.

Mamlakatda rangdor metallurgiya sanoati ham yaxshi rivojlangan, kombinatda surma mahsulotlari ishlab chiqariladi. (Surma qazib olish bo'yicha MDH da 1-chi o'rin). Shuningdek Janubiy G'arbiy Qirg'izistonda Haydarkent to'la tsikli simob zavodi ishga tushirilgan. Bu yerda qazib olishdan tortib simob rudalari ishlab chiqarishgacha yo'lga qo'yilgan.

Qirg'iziston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri yengil sanoatdir. (Bu tarmoqda respublikaning 1/4 qism iishlab chiqarish kuchlari band). Ayniqsa to'qimachilik, tikuvchilik, charm-mo'yna, poyafzal ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yengil sanoat uchun hom ashyo respublikaning o'zida tayyorlanadi (paxta, jun, teri, ipak va boshqalar). Qirg'izistonda tayyorlangan yengil sanoat mahsulotlari qo'shni respublikalarga eksport qilinadi. Respublikadagi yirik yengil sanoat korxonalaridan O'sh paxtani qayta ishlash kombinati, To'qmoq jun qayta ishlash fab-rikalari bo'lib, bular asosiy mahsulotlarni ishlab chiqaradi.

Oziq-ovqat sanoati asosini un va un mahsulotlari, non kombinatlari, konditer, qand-shakar, vinochlik, sut, go'sht, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu tarmoqlar respublikaning barcha xududlarida rivojlangan. Respublika qo'shni mamlakatlarga qand-shakar, o'simlik moyi, tamaki mahsulotlarini sotadi.

Og'ir sanoat tarmoqlari orasida kumir sanoati ham yetakchi o'rinda turadi. Kumir respublikada uncha katta bo'lmagan, qadimdan taniqli bo'lgan Qizilqiya, Sulyukta, Ko'k -yong'oq, Toshko'mir kabi konlardan qazib olinadi. Katta ahamiyatga ega bo'lgan konlardan Qovoq va O'zgen ko'mir havzalari bo'lib, ularda kokslanuvchi toshko'mir ochiq usulda qazib olinadi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida qurilish materiallari sanoati ham o'ziga xos o'rinda turadi. Sanoat kor-xonalari, uy-joy, yo'llar qurilishi uchun xizmat ko'rsatadigan temir beton kombinatlari, uy qurilish kombinatlari, tsement, oyna, marmar, granit ishlab chiqarish zavodlari tashkil etil-gan.

Respublika qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli, mexanizatsiyalashgan tarmoq-lardan bo'lib, chorvachilikka ixtisoslashgan. Ayniqsa qo'ychilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Qirg'iziston jun yetishtirish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rinlarda turadi.

Respublikada 1,3 mln. ga haydaladigan yerlar (1 mln. ga sug'oriladi) va 10 mln. ga yaqin tog' va tog' oldi yaylovlari mav-jud.

Qirg'iziston tog'lari va tog' oldi yaylovlarida yaylov chor-vachiligi rivojlangan. Bu yerlarda arzon go'sht va mayin yunglar tayyorlanadi. Daryo vodiylari va tog' oralig'i botiqlarida sug'orib dehqonchilik qilish rivojlangan.

Respublika sug'oriladigan yerlarida 85-90 foiz dehqonchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Bu yerlarda asosan qimmatbaho texnik ekinlar hamda chorvachilik uchun yem-xashak mahsulotlari ekiladi. Keyingi yillarda tamaki yetishtirish rivojlanib bormokda.

Sug'orishni yaxshilash maqsadida bir qancha kanallar va suv omborlari bunyod etilgan. Ayniqsa Chuy kanali, Toxtagul, Kirov, Nayman, Norin kabi suv omborlari sug'orishda katta ahamiyatga egadir. Qirg'iziston agroiklim resurslari o'ziga xos va xilma-xildir. Janubiy Qirg'izistonda respublikaning aso-siy paxta ekiladigan maydonlar joylashgan.

Farg'ona va Talas vodiylari tog' yonbag'rlarida yuqori si-fatli sariq tamaki yetishtiriladi. O'sh viloyatining janubiy g'arbiy qismlari uzumchilik, bog'dorchilik, anor kabi o'simliklarni yetishtirish uchun qulay. Chuy vodiysida

lista, uzum qand-lavlagi yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Issiqko'l bo'ylarida esa olma, shaftoli, qora smarodina, malina kabi o'simliklar ekiladi.

So'nggi yillarda chorvachilik yana ham rivojlanib bormokda. Jumladan mayin yungli qo'ychilik sut va go'sht chorvachiligi,

cho'chqachilik, broyler jo'jachiligi, parrandachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yildan yilga qo'y va echkilar soni ortib bormoqsa. Mahalliy seleksionerlar yordamida yangi qo'y zotlari yaratilgan. Jumladan - Qirg'iz mayin yungli qo'ylari, Tyan'-shan - yarim mayin yungli, Oloy dag'al yungli Olatov yirik shoxli qora-mollari, yangi zotdor Qirg'iz otlari shular jumlasidandir.

Qirg'iziston Respublikasida barcha zamonaviy transport turlari mavjud. Tashqi iqtisodiy aloqalar olib borishda temir yo'l transporti yetakchi o'rinda turadi. Temir yo'l transportining asosiy markazlari Shimoliy Qirg'iziston va Janubiy Qirg'iziston hisoblanadi. Tog'li respublika bo'lganligi sabab-li mamlakat ichki aloqalarini olib borishda avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Avtomagistrallar orqali Chuy vodiysi-Talas vodiysi, Issiqko'l, Norin viloyatlari hamda O'sh viloyatlari bilan bog'langan. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 35 ming km dan ortadi. Yirik avtomobil traktlari: Bishkek-Ribach'e-Norin-Torugart-O'sh-Bishkek, O'sh-Gulcha-Seri-ton-Xorog, Bishkek-Toshkent, Bishkek-Olma-ota va boshqalar. Ushbu avtomagistrallar respublikada ichki yuk va passajirlar tashishdagina emas, balki Markaziy Osiyo davlatdari hamda Xitoy bilan ham iqtisodiy aloqalar qilishda muhim ahamiyatga egadir. Ayrim avtomobil yo'llari tog' yaylovlarigacha cho'zilgan. Iqtisodiy zonalarga ichki havo liniyalari o'tkazilgan. Yirik shaharlar Bishkek, O'sh, Cho'lpon ota va boshqalardan qo'shni respublikalarga to'g'ridan -to'g'ri havo yo'llar ochilgan.

Keynigi yillarda Quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. Bularda O'zbekistondan olinadigan tabiiy gaz tashiladi. Qirg'izistonda barcha aloqa vositalari ham yaxshi rivojlangan. Hattoki eng uzoq masofada joylashgan vodiylarda ham telegraflar radio, televizor programmalar va boshqalar mavjud.

Qirg'iziston transport tarmoklari orqali Xorijiy davlatlar bilan har tomonlama aloqa qiladi. Ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlaridan O'zbekiston, Tojikiston,

Qozog'iston bilan yaxshi aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mazkur davlatlar bilan mavjud bo'lgan temir yo'l va avtomobil transportlaridagi aloqa, Markaziy Osiyoda yagona transport tizimining yaratilishiga katta imkon beradi.

Mamlakatdan Xorijiy mamlakatlarga kumir, rangli va nodir metallar, mashina va dastgohlar, jun, gazlama, oziq ovqat va boshqa mahsulotlar chiqariladi. O'z navbatida respublika xorijiy mamlakatlardan, ma'lum miqdorda mineral o'g'itlar, neft mahsulotlari, don va boshqa mahsulotlarni so-tib oladi.

YaIM. 2018 yilda Qirg'izistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) 6.40 foizga o'sdi. 1994 yildan 2018 yilgacha Qirg'izistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 3,38 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Qirg'iziston YaIMning yillik o'sish sur'ati 2020 yilda 5,40 foiz atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Davlatning YaIMga nisbatan qarzi. 2018 yilda davlat qarzi mamlakatning yalpi ichki mahsulotining 48 foiziga tengligini qayd etdi. Qirg'izistonda yalpi ichki mahsulot oldidagi davlat qarzi 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 69,66 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'izistonning YaIMga nisbatan qarzi 2020 yilda 56,00 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Ishsizlik darajasi. 2018 yilda 3,50 foizdan 3,30 foizni tashkil etdi. Qirg'izistondagi ishsizlik darajasi 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 2,66 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Qirg'izistonda ishsizlik darajasi 2020 yilda 4.00 foizga yaqinlashishi kutilmoqda.

Ishsizlar soni. 2018 yilda 83,10 ming kishiga yetdi. Qirg'izistondagi ishsizlar 2002 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 63,94 ming kishini tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Qirg'izistonda ishsizlar soni 2020 yilda 63,30 ming atrofida bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Ish bilan band bo'lganlar soni. 2018 yilda 543790 gacha kamaydi. Qirg'izistonda ish bilan band bo'lganlar 1999 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 521951,08 ga teng.

Ishlab chiqarishdagi ish haqi. 2018 yilda 16695,92 so'mni tashkil etdi. Qirg'izistonda ishlab chiqarish ish haqi 1999 yildan 2018 yilgacha oyiga o'rtacha 8174.85 so'mni tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda, Qirg'izistonning ishlab chiqarishdagi ish haqi, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda oyiga 17400.00 so'm atrofida tendentsiyaga ega bo'lishi kutilmoqda.

Inflyatsiya darajasi. 2018 yilda 2,30 foizni tashkil etdi. Qirg'izistondagi inflyatsiya darajasi 2003 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 6,76 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Qirg'izistondagi inflyatsiya darajasi 2020 yilda 4,70 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Oziq-ovqat inflyatsiyasi. 2018 yilda Qirg'izistonda oziq-ovqat narxi o'tgan yilga nisbatan 4,20 foizga oshdi. 2003 yildan 2018 yilgacha Qirg'izistonda oziq-ovqat inflyatsiyasi o'rtacha 6,79 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'iziston oziq-ovqat inflyatsiyasi 2020 yilda taxminan 3,00 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Savdo balansi. 2018 yilda savdo kamomadi 306,40 million AQSh dollarini tashkil qildi. Qirg'izistonning savdo balansi 1993 yildan 2018 yilgacha o'rtacha - 110,72 million dollarni tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'izistonning savdo balansi 2020 yilda -192,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Joriy hisob. 2018 yil joriy hisobning defitsiti 237,40 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Qirg'izistonda joriy hisob 2007 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 216,06 million dollarni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Qirg'izistonning joriy hisob raqami 2020 yilda -39.70 million dollarni tashkil etadi.

Asosiy kapitalning yalpi shakllanishi. 2018 yilda 38551,50 million somoniygacha tashkil etdi. Qirg'izistonda asosiy kapitalning yalpi shakllanishi 2008 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 29895.45 million so'mni tashkil qildi. Bizning

ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Qirg'iziston yalpi asosiy kapitalining shakllanishi 72513,89 million somoniy atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot. 2018 yilda 1087,20 dollarni tashkil qildi. Qirg'izistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dunyo o'rtacha 9 foiziga teng. 1986 yildan 2018 yilgacha Qirg'izistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 838,18 dollarni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda aholi jon boshiga Qirg'izistonning yalpi ichki mahsuloti 2020 yilda 1131,20 dollarni tashkil etadi.

Foiz stavkasi. Qirg'iziston Respublikasi Milliy banki foiz stavkasini 2018 yilda 4,25 foiz darajasini tashkil etdi. Qirg'izistonda foiz stavkalari 2011 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 6,27 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Qirg'izistonning foiz stavkasi 2020 yilda taxminan 4.75 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Valyuta zaxiralari. 2018 yilda 2350.00 million dollarni tashkil qildi. Qirg'izistondagi valyuta zaxiralari 2009 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1928,25 million dollarni tashkil etadi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Qirg'iziston valyuta zaxiralari 2400.00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Eksport. 2018 yilda Qirg'izistonga eksport 170,40 million dollarni tashkil etdi. Qirg'izistonga Eksport 1993 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 94,22 million dollarni tashkil qildi.

Import. 2018 yilda Qirg'izistonga import 420,80 million dollarni tashkil etdi. Qirg'izistonga import 1993 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 204.95 million dollarni tashkil qildi.

Oltin zaxiralari. 2018 yilda 14,37 tonnaga oshdi. Qirg'izistondagi oltin zaxiralari 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 3,89 tonnani tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'iziston oltin zaxiralari 2020 yilda 13,20 tonna atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Xom neft qazib olish. 2018 yilda 1 BBL/D/1K ni tashkil etdi. Qirg'izistonda neft ishlab chiqarish 1994 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1,37 BBL / D / 1K ni tashkil qildi.

Tashqi qarzi. 2018 yilda 8449,50 million so'mni tashkil etdi. Qirg'izistonning tashqi qarzi 2003 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 5537.41 million so'mni tashkil etib, har doim 8441.50 million somoniyga yetdi. Bizning ekonometrik modellarimiz bo'yicha Qirg'izistonning umumiy tashqi qarzi 2020 yilda 9199,00 million somoniy atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar. 2018 yilda 118 million dollarni tashkil etdi. Qirg'izistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2010 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 143,62 million dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'izistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari - Sof oqimlar 2020 yilda -50,60 million AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Turizm. Sayyohlarning kelishi 2018 yilda 1375,40 mingga, 2017 yildagi 1375,10 mingga ko'tarildi. Qirg'izistonga sayyohlarning kelishi 2001 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 932,02 ming kishini tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'izistonga kelgan sayyohlarning kelishi 2020 yilda 1300.00 ming atrofida bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Davlat daromadlari. 2018 yilda 111720202.80 ming so'mni tashkil etdi. Hukumatning daromadlari 2010 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 55624144.47 ming so'mni tashkil qildi.

Davlat qarzi. 2018 yilda 3792,60 million AQSh dollarini tashkil etdi. Qirg'izistonning davlat qarzi 2006 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 4080,60 million dollarga yetdi. Bashorat qilinishicha, Qirg'izistonning hukumat qarzi, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda 4550,00 dollarni tashkil etadi.

Moliyaviy xarajatlar. 2018 yilda 85115587.60 ming so'mga oshdi. Qirg'izistonda byudjet xarajatlari 2012 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 64339222,66 ming so'mni tashkil qildi.

Kredit reytingi. "Standard & Poor's" ning Qirg'iziston uchun kredit reytingi "NR" prognozi bilan "yo'q". Moody'sning Qirg'iziston uchun kredit reytingi so'nggi prognozi bilan B2 darajasida edi. Umuman olganda, kredit reytingi suveren boyliklar fondlari, pensiya jamg'armalari va boshqa sarmoyadorlar tomonidan Qirg'izistonning kredit layoqatini aniqlash uchun ishlatiladi va shu bilan mamlakat qarz olish xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sahifada yirik kredit reyting agentliklari tomonidan xabar qilinganidek, Qirg'izistonning davlat qarz kreditlari reytingi mavjud.

Davlat xarajatlari. 2018 yilda 33199,50 million somoniyni tashkil etdi. Qirg'izistonda davlat xarajatlari 2008 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 34078.80 million somoniyni tashkil qildi va 90482.10 million somoniyga yetdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Qirg'iziston hukumatining xarajatlari 36531.93 million somoniy atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Harbiy xarajatlar. 2018 yilda 118 million dollarga yetdi. Qirg'izistondagi harbiy xarajatlar 1992 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 66,83 million dollarni tashkil qildi. *Manba: SIPRI*

Savdo soliq stavkasi. 2018 yilda 12 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'izistonda sotilgan soliq stavkasi - QQS 2020 yilda taxminan 12.00 foizga o'sishi kutilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarish. 2018 yilda Qirg'izistonda sanoat ishlab chiqarish 12,90 foizga o'sdi. 1999 yildan 2018 yilgacha Qirg'izistonda sanoat ishlab chiqarishi o'rtacha 5,38 foizni tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Qirg'iziston sanoat ishlab chiqarishi 2020 yilda taxminan 2.50 foizga o'sishi kutilmoqda.

Internet tezligi. 2018 yil 3800,45 Kb / s ni tashkil etdi. Qirg'izistonda Internet tezligi 2007 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1991,50 Kb / s ni tashkil qildi.

Firmalar tomonidan saqlanadigan tovarlar zaxiralari. 2018 yilda 3092,66 million somoniyni tashkil etdi. Qirg'izistondagi tovar-moddiy zaxiralardagi o'zgarishlar 2008 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 2435,74 million so'mni tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolda, Qirg'iziston tovar-moddiy

zaxiralarni o'zgartirishi, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda - 2378,40 million so'm atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Korrupsiya. Transparency International xalqaro tashkilotining 2018 yilgi korrupsiyani idrok etish indeksiga ko'ra, Qirg'iziston 175 mamlakat ichida eng kam korrupsiyalashgan davlat hisoblanadi. Qirg'izistonda korrupsiya darajasi 1999 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 139,47 ni tashkil qildi.

Raqobatbardoshlik darajasi. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan Global raqobatbardoshlik to'g'risidagi hisobotning 2018 yilgi reytingida Qirg'iziston dunyoning 140 mamlakatidan 96 tasi eng raqobatdosh mamlakat. Qirg'izistonning raqobatbardoshlik darajasi 2007 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 113,23 ni tashkil qildi. *Manba: Jahon iqtisodiy forumi.*

Nazorat savollari:

1. Qirg'iziston Respublikasi davlatining tarkib topish tarixini ta'riflang.
2. Qirg'izistonning geografik o'rniga baho bering.
3. Mamlakat qanday tabiiy boyliklarga ega?
4. Mamlakat aholisining kelib chiqish tarixi qanday amalga oshgan?
5. Respublika aholi joylashuvini boshqa qo'shni davlatlar bilan taqqoslang?
6. Mamlakat qanday sanoatga ixtisoslashgan?

V-BOB. TURKMANISTON RESPUBLIKASI

Reja:

1. Turkmanistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rnini, chegaralari.
2. Turkmanistonning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Turkmanistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Tayanch tushunchalar: Geografik o'rnini, tabiiy sharoit, tabiiy resurslari, tabiiy- geografik o'lka, siyosiy – ma'muriy chegara, chegara uzunligi, iqtisodiyoti,

sanoati, eksporti, importi, transporti, YaIM, Davlat daromadlari, ishsizlik darajasi, korrupsiya, inflatsiya, biznes.

1. Turmanistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, chegaralari.

1991-yilning 27-oktyabrida Turkmaniston mustaqil bo`ldi. Mustaqillik kuni (27-oktabr) — Milliy bayram hisoblanadi. **Maydoni** – 488 ming km². **Aholisi** – 2018 yilda 5,9 million kishini tashkil etgan. 1960 yilga kelib Turkmaniston 1,6 million aholiga ega edi. Bashorat qilinishicha, 2020 yilda Turkmaniston aholisining soni 6.30 million atrofida bo'lishi taxmin qilinmoqda. Milliy tarkibida Turkmanlar ko'pchilikni (72%) tashkil etadi. Bundan tashqari Ruslar 9.5%, O'zbeklar 9%, Qozoqlar 25%, Tatarlar 1.1%, Ukrainlar 1%, Ozarbayjon, Armanlar, Yevreylar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladi. Aholisining 45%i shaharda yashaydi. Yirik shaharlari Ashg'abat, Tedjen, Chorjo'y, Mari, Turkmanboshi va boshqalar. Turkmaniston mustaqillikka erishgandan keyin ko'plab Yevropa millatiga mansub kishilar ko'chib ketishdi. Turkmaniston aholisi asosan mamlakatning janubi, sharqi va g'arbiy qismlarida joylashgan. Aholi voha tipida va lentasimon joylashgan. O'zbeklar asosan, Toshovuz viloyatida istiqomat qiladi.

Turkmaniston Markaziy Osiyo davlatlarining janubiy g'arbiy qismida, Kaspiy dengizi va Amudaryo orasida joylashgan. MDH davlatlari orasida xududiga ko'ra to'rtinchi (Rossiya, Qozog'iston, Ukrainadan so'ng) o'rinda turadi. Markaziy Osiyoda esa ikkinchi (Qozog'istondan keyin) o'rinda turadi. Poytaxti Ashxobod shahri. Aholi zichligi 1 km²ga 10.0 kishi to'g'ri keladi. (Markaziy Osiyo aholisining 8,5 foizi yashaydi). Respublika shimolda Qozog'iston Shimoli Sharqdan O'zbekiston, Janubda Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh. G'arbiy qismida Kaspiy dengizi joylashgan. Turkmaniston MDX davlatlarining eng chekka janubiy chegarasiga ega (Chil-Duxtaron).



27-rasm. Turkmanistonning siyosiy-mamuriy xaritasi

Respublika industrial-agrar mamlakat bo'lib iqtisodiyotining asosini sanoat tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida neft-gaz qazib chiqarish, hamda paxta yetishtirish bilan ishtirok etadi. Turkmaniston chetga ko'proq neft va neft maxsulotlari, natriy-sulfat, elektroenergiya, tsement xom ashyosi, paxta yog'i, poliz ekinlari, qorako'l terisi eksport qiladi. Bundan tashqari Turkmanistondan neft sanoati uchun mashina va uskunalar ham chetga sotiladi.

Qadimda bu o'lkada Marg'iyona, Parfiya, midiya, Baqtriya davlatlari bo'lgan. Eramizdan avvalgi 6-4 asrlarda Eronlik ahmoniylar tarkibida, Makedonskiy imperiyasi ostidabo'lgan. Eramiz boshida xunlar, 6-asrda turk xoqonligi, 7-asrda arablar, o'g'uzlar, qoraxitoylar, xorazmshohlarmo'g'ullar, temuriylar, xonliklar, uzoq yillar eron ta'sirida bo'lgan. 19 asrda buxoroliklarni xaydab chiqarishgan.

19 asr ikkinchi yarmida ruslar egallay boshlaydi. Petrovsk, Aleksandrovsk, Krasnovodsk, (Turkmanboshi), qurildi. Mamlakat tez o'zlashtirila boshladi, bu xalqqa yoqmadi. Ko'p paxta ekildi, yerlar o'zlashtirilib suv chiqarila boshladi. Paxta tozalash, yog' zavodlari qurildi. 1924 yilda Turkmaniston SSR paydo bo'ldi. 2-jahon urushi davrida ko'plab zavodlar, asirlar, rusiyabon xalqlar bu yerga evakuatsiya qilinadi. 1980-yillardan mamlakat xo'jaligi izdan chiqib boshlaydi. U Markaz uchun doimo chekka o'lka bo'lib qolib ketar edi. 1990-yilda bo'lgan o'zgarishlar natijasida mustaqil bo'ldi-1991 yil, 27-28 oktyabr kuni, 1995 yil, 12

dekabr neytralitet kuni. Davlat 5 ta viloyat: Oxol, Bolqon, Toshxovuz, Lebop, Mari va ular etan-rayonlarga bo'lingan.

10-jadval.Turkmaniston hududiy bo'linishi

№	O'zbekcha nomi	Turkmancha nomi	Tumanlar soni	Mamuriy markazi	Hududi, km²
1	Ashxobod	Aşgabat			470
2	Ahal viloyati	Ahal welaýaty	8	Ruhobod	97 160
3	Bolqon viloyati	Balkan welaýaty	6	Bolqonobod	139 270
4	Dashoguz viloyati	Daşoguz welaýaty	8	Dashoguz	73 430
5	Lebap viloyati	Lebap welaýaty	13	Turkmanobod	93 730
6	Mari viloyati	Mary welaýaty	11	Mari	87 150
	Barchsi		46		491 210


2. Turkmanistonning tabiiy sharoiti va resurslari.

Turkmanistonning tabiiy sharoiti va yer usti tuzilishi juda xilma -xildir. Bu yerning rel'efida past tekisliklar, cho'kmalar, yirik cho'llar, tog' oralig'i botiqlari, balandligi 3 ming metrga yetadigan tog'lar uchraydi. Xududining 80 foizini Qoraqum cho'llari egallagan bo'lib, Cho'l shimoldan janubga 450 ga G'arbdan sharqqa esa 880 km masofaga cho'zilgan. Tog'li mintaqalar esa Respublikaning janubiy va janubiy sharqiy qismlarida joylashgan bo'lib, 8 foizga yaqin xududini egallaydi, (Turkman-Xuroson tog' sistemasi).Tog' oralig'i botiqlari, tog' oldi, daryo vodiylari, vohalar esa respublika xududining 12 foizini tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki respublikaning katta hududi tekisliklardan iborat bo'lib, sharqdan g'arbga(Kaspiy bo'yi) tomon pasayib boradi. Tekislikning katta qismi dengiz satxidan 0-200 metrgacha bo'lib, Kaspiy bo'yi past tekisligi va Sariqqamish ko'li dengiz sathidan pastda joylashgan. Eng past nuqtasi Oqjaksoy bo'lib-81 mln. ni tashkil etadi.



28-rasm. Turkmanistonningtabiiyxaritasi

Respublikaning iqlimi kontinental quruq iqlimdir. Qishi iliq, yozi issiq va quruq bo'ladi. Iqlimning issiqligi subtropik ekinlar yetishtrish imkonini beradi. Yog'in miqdorining kamligi tog'larda kamqor tushishiga olib keladi. SHu sababli daryolari kichik va kam suvlidir. Turkmaniston xududining 80 foizida doimiy oqar suvlar yo'q. Daryolar asosan janubiy va sharqiy rayonlardagina mavjud. Eng yirik daryosi Amudaryo bo'lib, u respublikaning sharqiy qismidan oqib o'tadi. Kichik daryolardan Murg'ob, Tajan, Atrek va boshqalar bor. Murg'ob va Tajan daryolari suvi to'lig'icha sug'orishga sarf bo'ladi. Atrek daryosi esa uz suvini Kaspiy dengiziga quyadi. Yaylov chorvachiligida yer osti suvlari katta ahamiyatga ega. Ko'llarining aksariyati sho'r ko'llardir.



29-rasm. Turkmanistonningiqlimxaritasi

Turkmaniston respublikasining mineral xom-ashyolarga boyligi xo'jaligini kompleks rivojlantirishga imkon beradi. Respublika xududidan tabiiy gaz-neft, ozokerit, oxaktosh, gips, granit, mirobilit (glauber tuzi), g'isht va tsement xom ashyolari kabi turli foydali qazilmalar topilgan.

Respublika ayniqsa yoqilg'i energetika resurslariga boy. Mamlakat gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasida ikkinchi o'rinda turadi (Rossiyadan keyin). Respublikada yettita neftgaz mintaqasi ajratiladi: G'arbiy Turkmaniston, Markaziy Qoraqum, Beurde Xiva, Chorjo'y, Orqaunguz, Murg'ob, Badxiz-Qorabel. G'arbiy Turkmaniston neft-gaz mintaqasi G'arbiy Turkmaniston past tekisligida joylashgan. Yirik neft-gaz konlari Cheleken, Qoturtepa, Nebitdog', Qumdog', Qizil-qum, Erdekli, Okarem, «eymir va boshqalar.

Markaziy Qoraqum gaz mintaqasida - Darvoza, Zeagli, Koyun, Midar kabi gaz konlari joylashgan. Bu mintaqada gaz qazib olish tannarxi qimmat bo'lganligi sababli to'liq foydalanilmaydi. Beurda-Xiva gaz mintakasida uchta rayon ajratiladi: Noip, G'ishtli, Beurda. Eng yirik gaz konlari Achak, Naip, G'ishtli, Shimoliy va Janubiy Naip va boshkapar. Chorjoy gaz mintaqasidagi eng asosiy gaz konlari Gugurtli, Shimoliy Gugurtli, Sakar, Somontepa, Farob, Narazim kabilaridir. Murg'ob gaz mintakasida esa Shatliq, Dauletobod, Donmez, Bayramali, Kelif, Sharopli, Tedjen, Seyrob va boshqalar. Badxiz-Qorabel gaz mintaqasida Qarabel, Islim, Karagop kabi gaz konlari topilgan.

Bundan tashqari respublika hududida ko'mir konlari ham topilgan. Ulardan asosiylari Tuarqir qo'ng'ir ko'mir, Yagmon va Ko'xitang toshko'mir konlari bo'lib, mahsulotning tannarxi qimmat bo'lganligi sababli kumir kazib olinmaydi.

Respublikada temir rudalari kam, faqatgina Ko'xitang tog'larida pyx va qo'rg'oshin konlari topilgan. Shuningdek G'arbiy Kopetdog'da ham rangli metallar topilgan, lekin bularning sanoatda ahamiyati kam. Turkmaniston respublikasi kimyoviy xom ashyolarga boy. Bu yerda oltingugurt, yod, brom, ozokerit, osh tuzi, kaliy tuzi, sul'fat, natriy, magniy tuzlarining yirik zahiralari mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatning yirik Oltingugurt koni Gourdog hisoblanadi. Gourdog oltingugurti Chorjo'y superfosfat zavodining asosiy xom ashyosi hisoblanadi. Cheleken yarim oroli va Nebitdog'da yirik yodobrom suvlari topilgan. Ular asosida Cheleken va Nebitdog' yodobrom zavodlari ishga tushirilgan.


Respublikaning Qora-bo'g'oz-kol qo'ltig'i yirik mineral tuzlar markazi hisoblanadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda mineral tuzlar qazib olinadi.

Turkmaniston qurilish xom ashyolariga boy. Yirik tsement xom ashyolari Baxardin, Katta Bolxan, Bezmeinda joylashgan. (Bezmein tsement zavodi). Shuningdek mintaqada ko'plab kvartsl qumlar tarqalgan. Bular oyna sanoatining asosini tashkil etadi.

Respublika yer resurslariga boy. Lekin suv resurslarining yetishmasligi ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Yer fondi 49 mln.ga atrofida bo'lib, shundan 6-7 mln gasida sug'orib dehqonchilik qilish mumkin. Hozirgi kunda esa 1 mln ga yer sug'oriladi xolos. Mintaqa rel'efi asosan tekislik bo'lganligi sababli sanoat korxonalari qurilishi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Cho'llardan chorvachilikda yaylov sifatida foydalaniladi.

3. Turkmanistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Turkmaniston industrial-agrar respublika. Uning xalq xo'jaligida sanoat yetakchi o'rinda turadi. Respublikada yangi sanoat tarmoqlari - neftni qayta ishlash, gaz, kimyo, mashinasozlik bilan bir qatorda eski sanoat tarmoqlari neft qazib olish, metallsozlik, paxta tozalash va boshqalar rivojlangan. Ayniqsa respublikada yoqilg'i-energetika kompleksi, yengil sanoat, mashinasozlik va agrosanoat komplekslari katta ahamiyatga ega. Unga ko'ra, mamlakatda turizm ham rivojlangandir. Yoqilg'i energetika kompleksi. Respublikaning g'arbiy qismlaridan neft qazib olinadi. Qazib olingan neft quvurlar orqali Turkmanboshiga keltiriladi. Keltirilgan neftning bir qismi dengiz yo'li orqali eksportga jo'natilsa, bir qismi mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanadi. Zavoddan chiqqan mazut va yo'ldosh gaz IESlarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neft mahsulotlarining yana bir qismi hem eksportga ketadi.



30-rasm. Turkmanistonning turistik xaritasi

Respublikaning sharqiy qismida Chorjoy yaqinidagi Seydida 1980 yillarda qurilgan neftni qayta ishlash zavodi ishlab turibdi. Gaz deyarli barcha viloyatlar hududida bir necha o'nlab somlardan qazib olinadi (Tashovuzdan tashqari). Gazning asosiy qismi Markaziy Osiyo-Markaz magsitral gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Bir qismi esa respublika ehtiyoji uchun ishlatiladi. (IESlarda) Mari shahrida gaz asosida ishlaydigan MARIY GRESi qurilgan. Bundan tashkari shaharda tabiiy gaz asosida azotli o'g'itlar ishlab chiqarish yo'pga qo'yilgan. Respublikada neft va gaz konlari asosida neft gaz-kimyo energiya ishlab chiqarish tsikllari shakllangan. Lekin neft va gazning ko'pchiligi eksportga jo'natilganligi sababli energiya ishlab chiqarish siklining boshlang'ich qismi yaxshi rivojlangan. Bu yerda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan plastmassa ishlab chiqarish va polimerlar kimyosi nisbatan kam rivojlangan.

Respublikada kimyoviy xom-ashyolar - mirobilit, yod, brom, oltingugurt qazib olish, hamda superfosfat zavodi asosida tog-kimyo energiya ishlab-chiqarish tsikli tashkil topgan. Gourdak oltingugurti Chorjoy kimyo kombinatiga keltiriladi va bu yerda superfosfat va oltingugurt kislotasi ishlab chiqariladi. Mintaqadagi Qora-bo'g'ozko'l o'zining kimyoviy xom ashyolarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuningdek respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Cheleken va Nebitdog' kimyo korxonalari ahamiyati katta.

Turkmaniston respublikasida metallurgiya sanoati (qora va rangli) kam rivojlangan. Mashinasozlik sanoati korxonalarida neft sanoati uchun (Ashgobodagi neft mashinasozligi, Mariy mashinasozlik zavodi) hamda oziq-ovqat uchun mashina va dastgohlar ishlab chiqariladi. Bundan tashqari elektrotexnika mashinasozligi (Ashgabad), maishiy xizmat ko'rsatish mashinasozligi (gaz plitalari ishlab chiqarish), kemasozlik zavodi (Chorjoy) metalni qayta ishlash, hamda qishloq xo'jalik texnikalariga xizmat ko'rsatish korxonalari ishlab turibdi.

Respublikada qurilish materiallari sanoati ham mahalliy qurilish xom ashyolari asosida rivojlanib bormoqta. Ayniqsa tsement xom ashyolari, gips, ohaktosh kabi qurilish xom ashyolari ko'plab topilgan. Mamlakatdagi yirik sement xom-ashyolari Kopetdog' etak-larida, katta Balxan va Nebitdog'da topilgan. Bezmeini sement xom ashyosi asosida Markaziy Osiyodagi yirik tsement zavodi ishga tushirilgan.

Mamlakatning asosiy qurilish materiallari sanoati markazlari Ashgabad, Bezmeini, Mari, Chorjoy, Turkmanboshi, Nebitdog' va boshqalardir. Yengil sanoat respublika iqtisodiyotida yetakchi tarmoqlardan biridir. Yengil sanoatning 2/3 qismini ip-gazlama mahsulotlari tashkil etadi. Respublikada yetishtiriladigan paxtaning deyarli hammasi paxta tozalash zavodlarida qayta ishlanadi.

Respublikada yengil sanoat tarmoqlari: - to'qimachilik, tikuvchilik, shoyi to'qish, jun, gilam, trikotaj, poyabzal va boshqalar yaxshi rivojlangan. SHuningdek qorako'l terilari ishlab chiqarish ham katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatda qo'lda gilam to'qish rivojlangan bo'lib, ularning yirik markazlari Ashgabad, Gasan-Kuli, Nebit-Dog', Ba-xorden, Qizil-Arvat, Mari, Toshovuz va boshqalardir.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ko'plab iste'mol mahsulotlari ishlab chiqariladi. Respublikada sabzavot, meva, go'sht-sut, baliq konservalari ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda paxta yog'i ishlab chiqarish Chorjoy, Toshhovuz, Bayram-Ali shaharlarida rivojlangan. Ashgabad, Mari, Chorjoy, Turkmanboshi kabi shaharlarda yirik go'sht kombinatlari ishlab turibdi.

Turkmaniston qishloq xo'jaligida sug'orib dehqonchilik qilish bilan bir qatorda cho'l-yaylov chorvachiligi rivojlangan. Paxtachilik - dehqonchilik ekinlarining asosini tashkil etadi. Respublikada 1 mln ga sug'oriladigan yer bo'lib, asosan Qoraqum kanali bo'ylariga to'g'ri keladi. Bu yerda respublikada yetishtiriladigan paxtaning 50 foizi, ingichka topali paxtaning deyarli 100 foizi tayyorlanadi. Mari, Chorjoy, Toshhovuz viloyatlarining ko'pchilik maydonlariga paxta ekiladi. So'nggi iillarda respublikada don, meva va uzum yetishtirish ham ortib bormoqda.

Respublikada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Unda yetakchi tarmoq qo'ychilik bo'lib, asosan qorako'l qo'ylari boqiladi. Respublikaning cho'l mintaqalari qo'y boqiladigan yaylovlar hisoblanadi. SHuningdek respublikada qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik (Oxoltekin zotli) ham muhim chorvachilik tarmoqlaridir. Qoramolchilik respublikada sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan.

Cho'l mintaqasining tipik chorvachiligi - tuyachilikdir. Tuyalar go'shti, terisi, transport maqsadida foydalanish uchun boqiladi. Ayniqsa Turkmanboshi va Ashgabad viloyatlariga tuyaning ko'pchiligi (50%) to'g'ri keladi. Yilqichilik - ham tuyachilik kabi, go'shti, suti va transport vazifasida foydalanish uchun boqiladi. Respublikada oxol-tekin, (Iomud) kabi zotdor otlar boqiladi. Bu otlar chet ellarda ham ancha mashhur. Oxoltekin otlari ko'proq Mariy va Ashgabat viloyatlarida boqiladi. Bu otlar juda chopqir bo'lib, ko'p mintaqalarga chidamlidir. Iomud zotdor otlari esa ko'proq yuk tashishda foydalaniladi. Ular asosan Turkmanboshi hamda Toshhovuz viloyatlarida boqiladi. Bundan tashqari respublika chorvachiligida asalarichilik hamda pillachilik ham muhim ahamiyatga egadir.

YaIM. 2018 yilda Turkmanistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) 40,76 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. 1987 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonda yalpi ichki mahsulot o'rtacha 14,08 milliard dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmaniston yalpi ichki mahsuloti 2020 yilda 47.00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

YaIMning joriy hisobi. 2018 yilda Turkmaniston joriy yalpi ichki mahsulotning 8,20 foiz miqdoridagi joriy kamomadni qayd etdi. Turkmaniston

yalpi ichki mahsulotidagi joriy hisob 1998 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 8,15 foizni tashkil etdi. Uzoq muddatli istiqbolida, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonning YaIM dagi joriy hisobi 2020 yilda -6,00 foiz atrofida bo'lishini prognoz qilmoqda.

YaIMdagi davlat qarzi. Turkmanistonda 2018 yilda davlat qarzi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 29,30 foiziga teng bo'ldi. 1997 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonda yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat qarzi o'rtacha 21,31 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmaniston hukumatining yalpi ichki mahsulotga qarzi 2020 yilda taxminan 36,00 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ishsizlik darajasi. 2018 yil 3,30 foizni tashkil etdi. 1991 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonda ishsizlik darajasi o'rtacha 8,68 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonda ishsizlik darajasi 2020 yilda 10,00 foizga o'sishi kutilmoqda.

Inflyatsiya darajasi. 2018 yilda 6,50 foizni tashkil etdi. 1997 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonda inflyatsiya darajasi o'rtacha 11,99 foizni tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolida, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonda inflyatsiya darajasi 2020 yilda 7.00 foizga yaqinlashishi kutilmoqda.

Savdo balansi. Turkmanistonda 2018 yilda savdo aylanmasi 2886,58 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 1992 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonning savdo balansi o'rtacha 874,39 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmaniston savdo balansi 2020 yilda taxminan 4059,00 dollarni tashkil etadi.

Joriy hisob. 2018 yilda Turkmanistonda joriy hisob raqami 1171 mln. AQSh dollari miqdorida kamomad qayd etdi. Turkmanistondagi joriy hisob 1996 yildan 2018 yilgacha o'rtacha -484,83 million dollarni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonning joriy hisob raqamida 2020 yilda -5750,00 AQSh dollari atrofida tendentsiya kutilmoqda.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot. Turkmanistonda jon boshiga yalpi ichki mahsulot 2018 yilda 7647,90 AQSh dollarini tashkil qildi. Turkmanistonda jon boshiga yalpi ichki mahsulot dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichning 61 foiziga teng. Turkmanistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 1987 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 3747,91 AQSh dollarini tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, aholi jon boshiga Turkmaniston yalpi ichki mahsuloti 2020 yilda 8084,10 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot. Turkmanistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 2018 yilda 17129 AQSh dollar miqdorida qayd etildi. Turkmanistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM), xarid qobiliyati tengligi bo'yicha dunyo miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichning 96 foiziga to'g'ri keladi. 1990 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning yalpi ichki mahsuloti 8596,11 dollarni tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan Turkmaniston yalpi ichki mahsuloti (YaHM) 2020 yilda 18114,00 dollarni tashkil etadi.

Ishsizlik darajasi. 2018 yildagi 2017 yildagi 3,40 foizdan 3,30 foizga tushdi. 1991 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonda ishsizlik darajasi o'rtacha 8,68 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonda ishsizlik darajasi 2020 yilda 10,00 foizga o'sishi kutilmoqda.

Pensiya yoshidagi erkaklar. 2018 yildagi 62 yoshdan 2019 yilda 62 da o'zgarishsiz qolishdi.

Pensiya yoshidagi ayollar. 2018 yilda 57 yoshdan 2019 yilda o'zgarishsiz qoldi.

Savdo balansi. 2018 yilda savdo aylanmasi 2886,58 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 1992 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonning savdo balansi o'rtacha 874,39 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmaniston savdo balansi 2020 yilda taxminan 4059,00 dollarni tashkil etadi.

Eksport. Turkmanistonga eksport qilish 2018 yilda 9809,20 million dollarga, 2017 yildagi 7457,53 million AQSh dollariga ko'paydi. Turkmanistonga eksport 1992 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 4960,11 million dollarni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Turkmaniston eksporti 9562,70 million dollarni tashkil etadi.

Import. Turkmanistonga import qilish 2018 yilda 2254,56 million dollarga, 2017 yilda 4570,95 million AQSh dollariga tushdi. 1992 yildan 2018 yilgacha Turkmanistonga o'rtacha 3838,30 million AQSh dollari tushdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmaniston importining 2020 yilda taxminan 4501,10 million AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Xom neft qazib olish. 2018 yilda 245 BBL / D / 1K ni tashkil etdi. Turkmanistonda neft qazib olish 1994 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 174,05 barrel / d / 1K ga yetdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonning neft qazib olish hajmi 2020 yilda 245.00 BBL / D / 1K atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Tashqi qarzi. 2018 yildagi 907329,37 ming AQSh dollariga, 2017 yilda 781324 ming AQSh dollariga ko'paydi. Turkmanistondagi tashqi qarz 1993 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1115591,78 ming dollarni tashkil qildi.

Davlat xarajatlari. 2017 yilda 3,57 milliard dollardan 2018 yilda 3,80 milliard dollarga ko'tarildi. Turkmanistonda hukumatning xarajatlari 1990 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1,77 milliard dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda Turkmaniston hukumatining xarajatlari 4,26 milliard dollarga yaqinlashishi kutilmoqda.

Kredit reytingi. Umuman olganda, kredit reytingi suveren boyliklar fondlari, pensiya jamg'armalari va boshqa investorlar tomonidan Turkmanistonning kredit layoqatini aniqlash uchun ishlatiladi va shu bilan mamlakatning qarz olish xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sahifada yirik kredit reyting agentliklari tomonidan xabar qilinganidek, Turkmaniston uchun davlat qarz kreditlari reytingi mavjud.

Soliq stavkasi. 2018 yil Turkmanistonda sotilgan soliq stavkasi 15 foizni tashkil etadi. Turkmanistonda sotishdan olinadigan soliq stavkasi 2014 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 17 foizni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonda sotilgan soliq stavkasi 2020 yilda taxminan 15,00 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Internet tezligi. 2018 yil 3624,90 Kb/s ni tashkil qildi, 2017 yil 2623.97 Kb / s. va 2008 yil rekord darajadagi 111.49 Kb / s.ni tashkil qildi.

Korrupsiya. Transparency International xalqaro tashkilotining 2018 yilgi korrupsiyani idrok qilish indeksiga ko'ra, Turkmaniston 175 mamlakat ichida eng kam 161 korrupsiya mamlakatidir. Turkmanistonda korrupsiya darajasi 2004 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 161,20 ni tashkil qildi. 2011 yildagi eng yuqori ko'rsatkich 177 ga yetdi va 2004 yildagi eng past ko'rsatkich - 133.

Iste'mol xarajatlari. 2018 yilda 4,63 milliard dollarga, 2017 yildagi 4,99 milliard dollardan 4,69 milliard dollargacha oshdi. Turkmanistonda iste'mol xarajatlari 1990 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 5,06 milliard dollarni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Turkmanistonning iste'mol xarajatlari 2020 yilda 5.00 milliard dollarga yaqinlashishi kutilmoqda.

Nazorat savollari

- 1.Turkmanistonning geografik o'rniga ta'rif bering.
- 2.Turkmaniston davlati qanday tarkib topgan?
- 3.mamlakatning tabiiy sharoitiga baho bering.
- 4.Turkmaniston qanday tabiiy resurslarga boy va ular mamlakat iqtisodiy rivojlanishida qanday rol o'ynaydi?
- 5.Mamlakat aholisi va ularning joylashuv xususiyatlarini ayting.

VI-BOB. TOJIKISTON RESPUBLIKASI

Reja:

1. Tojikistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, chegaralari.
2. Tojikistonning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Tojikistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Tayanch tushunchalar: Geografik o`rni, tabiiy sharoit, tabiiy resurslari, tabiiy- geografik o`lka, siyosiy – ma'muriy chegara, chegara uzunligi, iqtisodiyoti, sanoati, eksporti, importi, transporti, YaIM, Davlat daromadlari, ishsizlik darajasi, korrupsiya, inflatsiya, biznes.

1. Tojikistonning tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, chegaralari.

1991-yil 9-sentyabrda Tojikiston mustaqilligi e`lon qilinib, ushbu kun milliy bayram - Mustaqillik kuni deb qabul qilingan. Maydoni – 143 ming km². Aholisi –2018 yilda 9,4 million kishini tashkil etgan. O'tmishga nazar tashlasak, 1960 yilda Tojikistonda 2,1 million kishi bo'lgan.

Bashorat qilinishicha, Tojikiston aholisi 2020 yilda 9,70 million atrofida bo'lishini taxmin qilmoqda. Janubda Afg'oniston (chegaraning uzunligi — 1206 km), shimol va g'arbda O'zbekiston (1161 km), shimolda Qirg'iziston (870 km), sharqda Xitoy (414 km) bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi — 3651 km.



31-rasm. Tojikistonning siyosiy xaritasi

Tojikiston respublikasining iqtisodiy geografik o'rnini (IGO') o'ziga xosdir. U Markaziy Osiyoning chekka janubi-sharqida joylashgan, Sobiq ittifoq davrida shu sababli bu respublikagacha olib kelingan, transport yo'llari u orqali boshqa rayonlar, respublikalarga o'tib ketmaydi. Hozirgi mustaqillik yillarida bu Respublikaning jahon davlatlari bilan bir tomonlama aloqa qila olishi unga iqtisodiy-siyosiy jihatdan katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Tojikiston va uni o'rab turgan davlatlar relyefining baland tog'likdan iboratligi o'z ichki rayonlari va qo'shni mamlakatlar bilan ko'p qirrali aloqalarni olib borishda ham katta qiyinchiliklarni tug'diradi.


Jumladan, u jahon mamlakatlari bilan faqat bitta O'zbekiston orqali o'tadigan yo'llar orqaligina bog'lana olishi mumkin. Bu yo'l Shimoliy va Janubiy Tojikiston hududlarini ham bir-birlari bilan bog'lab turadi va hatto, yon qo'shinlar hisoblanadigan Xitoy va Afg'oniston bilan hozirgacha zamonaviy temir va avtomobil yo'llari orqali bog'lana olish imkoniyati yo'q. Siyosiy geografik o'rnini noqulay bo'lib qo'shnisi Afg'oniston xalqaro notinchlik, terrorizm, diniy ekstremizm va Islom fundamentamizning markazi bo'lib kelmoqda. Bu holatlar Tojikistoning IGO'ning ancha noqulayligini ko'rsatadi. Tabiiyki, IGO'ning bu xususiyatlari respublika iqtisodiyotining rivojlanishida qo'shimcha muammolarni keltirib chiqardi.

Tojikistonning ma'muriy-siyosiy tarkibida Tog'li Badahshon avtonom respublikasi, So'g'd, Xatlon oblastlari va respublika markaziga bo'ysunadigan Hissor vodiysi tumanlari bor. Hozirgi Tojikiston hududi m. a. VI asrda Ahamoniylar davlati tarkibiga, m. a. IV asrda esa makedoniyalik Iskandar imperiyasi tarkibiga kirgan. M. a. III asrdan Grek-Baqtriya, keyinroq Kushon davlatiga qaram bo'lgan. VIII asrda hozirgi Tojikiston hududiga arablar bostirib kiradi. IX-X asrlarda bu hududlar Samoniylar davlati, XII asrda Xorazmshohlar davlati, XIII asrda Mo'g'ullar davlati, XIV asrning ikkinchi yarmida Temur va temuriylar davlatiga qaram bo'lgan. XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha Buxoro xonligi (amirligi) tarkibiga kirgan. 1868-yili Rossiya imperiyasi hozirgi Tojikiston hududlarini bosib oladi. 1917-yilgi davlat to'ntarishidan so'ng

Tojikiston hududida sovet hokimiyati oʻrnatiladi. 1924-yildan Tojikiston ASSR Oʻzbekiston SSR tarkibiga kiradi. 1929-yildan Tojikiston SSR maqomini oladi. 1991-yili mustaqillikka erishgandan soʻng, Tojikiston demokratik jamiyat qurish yoʻlidan bormoqda. Tojikistonning siyosiy ijtimoiy markazi Dushanbe shahri boʻlib, unda 600 000 aholi yashaydi. Respublika Markaziy Osiyoda eng kichik, MDHda 8 chi va jahonda 91chi oʻrinda. Aholisi boʻyicha mintaqada 3 chi, MDHda 6 chi va jahonda 95 oʻrinda turadi.

2. Tojikistonning tabiiy sharoiti va resurslari.

Tabiiy sharoitining xususiyatlari asosan uning relyefi bilan uzviy bogʻlangan. U qoʻshnilari Qirgʻiziston, Xitoy va Afgʻoniston bilan baland togʻlar va yon bagʻirlari juda tik daralar hamda daryolar bilan chegaradoshki, shu tufayli ana shu qoʻshinlari bilan hozirgi vaqtda Tojikistonning iqtisodiy aloqalari toʻgʻridan toʻgʻri deyarli olib borilmaydi. Uning jahonga chiqish imkoniyatlari faqat Oʻzbekiston orqaligina olib borilmoqda.



32-rasm. Tojikistonning tabiiy xaritasi

Shuningdek, Tojikistonning asosan relyefi bilan bogʻliq. Umuman, respublika hududini asosan Pomir va Oloy togʻ tizimlariga qarashli Markaziy Osiyodagi eng baland togʻlar egallab yotadi. Balandligi tufayli «Dunyo tomi» nomini olgan Pomir togʻlari bular orasida eng ulkani (7495 m) hisoblanadi. Faqat

Janubiy va Shimoliy Tojikistondagina balandligi 350-800 mm gacha bo'lgan nisbatan tekis tog' oldi adirlklari va tog' oralig'i vodiylari uchraydi.


Aholi asosiy faoliyat ko'rsatadigan bunday hududlar respublika umumiy maydonining atiga 7-8 % ni tashkil qiladi. Markaziycha balandliga 3000 m dan yuqori bo'lgai hududlar esa jami maydonining yarmidan ko'pini egallaydi. Tabiiyki, ana shu blandlikda aholi deyarli yashamaydi. Geologik holatiga bog'liq muhim xususiyatlaridan biri undagi intensiv seysmiklik darajasidir. Tez-tez bo'lib turadigan zilzilalar, surilma va tog' ko'chishlari iqtosidiyotga ancha zarar keltiradi.

Janubiy Tojikistonning tekisliklarida asosan iliq. Yozi issiq va davomli, Markaziycha $t^{\circ} +28^{\circ} -30^{\circ}$, qishi esa $+1^{\circ}$ atrofida tebranadi. Quruq subtropik iqlimli hududlardan hisoblanadigan bu qismida eng issiqsevar dehqonchilik ekinlari ekiladi. Tog'larda esa balandlikka ko'tarilgan sari yozu - qishda 1° pasayib, yog'in miqdori esa kamayib boradi. Jumladan, yog'in miqdori baland adirlklarda 400-600 mm dan Sharqiy Pomirning yuqori balandliklarida 1600 mm gacha boradi. SHu sababli, ko'p sonli yirik doimiy tog' muzliklari, bular orasida dunyoda eng yirik Fedchenko muzligi, shu tog'larda joylashgan. O'z navbatida, ular nafaqat Tojikistonda, balki Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida obi-hayot vositasi hisoblanadigan asosiy darëlar (Amudaryo va uniig irmoqlari)ning manbailari hisoblanadi.

Tabiiy resurslari qo'shni Qirg'izistonga o'xshash Tojikistonning eng ahamiyatli tabiiy boyligi bo'lib, uning gidroenergetika resurslari hisoblanadi. U jami energetika quvvatlari zahirasi hajmiga ko'ra Rossiyadangina ortda qoladi. Maydoni eng kichik bo'lishiga qaramay Tojikiston hissasiga jami Markaziy Osiyo respublikalari, asosiy yirik daryolari, gidroenergiya zahiralar (300 mlrd. kVt/s) ning 60 % dan ko'prog'i to'g'ri keladi. Tabiiyki, bu nihoyatda katta ko'rsatkich. Ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda bu ko'rsatkichning atigi 5 % dan ko'prog'igina o'zlashtirilgan xolos. Asosiy manbalari Panj, Vaxsh, Zarafshon xisoblanadi.

Mineral resurslarning barcha guruhlari respublikada uchraydi. Yoqilg'i mineral resurslar orasida qo'ng'ir ko'mir konlari ko'proqdir. Ular orasida SHo'rob (qo'ng'ir ko'mir), Fan-Yongob (toshko'mir) konlari ancha ahamiyatli. Neft'

konlari faqat Quyi Vahsh vodiysida va Konibodom rayonlarida topilgan. Lekin ular ancha kam quvvatli konlardir. Muhim qazilma boyliklaridan polimetall, volfram, surma, oltin, nefelin, qalayi, turli tarqonq rangdor metallar hisoblanadi.



33-rasm. Tojikiston daryolari xaritasi

Shulardan, Shimoliy Tojikistondagi Qoramozor polimetall va Janubiy Tojikistondagi Takob polimetall konlari hozirga vaqtda xalq xo'jaligida foydalanilmoqda. Respublikada hozirgi vaqtgacha 28 ta oltin koni ochilib foydalanilmoqda. Eng asosiylari Shimoliy Tojikistonda Djilau, Taror, Zarafshon vodiysida Chore, Shoxbas Kum-Manor konlarida katta ishlar olib borilmoqda. Shimoliy Tojikistonning "Qoyali" surma koni MDH dagi 50 % surma zaxirasiga ega. So'g'd oblastida surma va simobdan tashqari 214 ta boshqa turdagi foydali qazilmalar mavjud, ularning qatorida: qurg'oshin-ruh(16ta koni), mis va vismut (3ta), vol'fram va molibden (1ta), strontsiy (2ta), temir (3ta), oltin (15ta), kumush (7ta), toshko'mir (11ta), neft-gaz (11) va boshqa konlar mavjud. Respublika kimyoviy mineral resurslardan tuzlarga ancha boy. Xatlon oblastidagi Mo'minobod tosh tuzi koni Markaziy Osiyodagi eng yiriklardan biridir. Mineral qurilish materiallari geografiyasi juda keng va xilma-xildir. Bular orasida tsement, oyna xom ashyolari, pardozlash materiallari, qadimdan dong taratib kelayotgan nodir rangdor la'li toshlari ("La'li Badaxshon") alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, Tojikiston xilma-xil rekreatsiya resurslariga ham ancha boy: minerallashish darajasi juda xilma-xil issiq (+ 38 gradusdan 96 gradusgacha) yoki sovuq mineral suvlar, davolash balchiqlari ming bir dardga davo. Nihoyat, o'ziga xos o'rmon, o'z o'simlik qoplamiga ega tog' landshaftlari, toza havo, tez oqar daryo va soylar uziga tog' turizmi ishqibozlari, alpinistlarni ko'plab tortishi turgan gap. Agar ularning xalqaro doiradagi ahamiyatini xisobga olsak, respublika iqtisodiyotida kelgusida muhim o'rin tutishini tushunish qiyin emas.

3. Tojikistonning iqtisodiyoti va ularga umumiy tavsif.

Tojikiston aholisining soni bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida uchinchi o'rinda (O'zbekiston va Qozog'istondan so'ng) turadi. Respublika aholisining tabiiy ko'payishi yuqori bo'lgan davr 1979-80 yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda respublika aholining tabiiy o'sishi bo'yicha sobiq ittifoqda birinchi o'rinda bo'lgan. Keyingi vaqtlarda respublikada ro'y bergan o'zaro kelishmovchiliklar natijasida aholining tabiiy o'sishida ham salbiy oqibatlar kuzatiladi. Tojikistonda ham boshqa Markaziy Osiyo davlatlari kabi ko'p farzandlilik xususiyatlari mavjud. Aksariyat oilalarda 5-6 farzand ko'rishi hali ham davom etmoqda.

Axolining jinsiy va yosh tarkibi taxlili shuni kursatadiki tabiiy o'sish yuqori bo'lganligi sababli axolining 42 foizini 0-14 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Bu yoshdagilar orasida o'g'il bolalarning ulushi 50.4 foizga. qiz bolalar esa 49.6 foizga tug'ri keladi. 15 yoshdan 64 yoshgacha bulgan axoli esa 54 foiz bo'lib . bularda ayollar 50.2 foizni zrkaklar 49.8 foizni tashkil etadi. 65 yoshdan yuqoridagilarga jami axolining 4 foizi to'g'ri keladi. Bular orasida ayollar soni yuqori (56.9 foiz). Respublika bo'yicha olganda erkaklar va ayollar deyarli teng (49.8 va 50.2).

Respublika ko'pmillatli mamlakat bo'lib, aholining milliy tarkibida tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Jami aholining 64.9 foizi tojiklar, 25 foizi o'zbeklar, 5 foizi ruslar, 2 foizi tatarlar va boshqalar tashkil etadi. Mintaqada aholi juda notekis joylashgan. Respublika aholisining asosiy qismi past tekisliklardan va soylıklardan

iborat bo'lgan Vaxsh, Hisor va Farg'ona vodiylarida joylashgan. Bunday xududlarda aholi zichligi 1 km² ga 400-500 kishiga yetadi. Bu yerlarda odamlar qadimdan sug'orib dehqonchilik qilib ke-lishadi. Aholining notekis joylashishiga uning orografiyasi katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikaning 90 foiz xududi tog' oldi va tog'lardan iborat bo'lib dengiz satxidan 1000 m dan balandda joylashgan. Tog' va baland tog' zonalarida xo'jalik yuritish murakkabchilik tug'diradi. Aholi manzilgohlari ham kam. Bu yerda zichlik 1 km²ga 1-2 kishi to'g'ri keladi.

Respublikadagi O'zbeklarning asosiy qismi Farg'ona vodiysida So'g'd (Leninobod) viloyatida yashashadi. Bu yerdagi jami aholining 40 foizi O'zbeklardir. Tojiklar butun respublika xududida, Ruslar yirik sanoat markazlarida, Qirg'izlar esa asosan tog' yaylovlarida istiqomat qilishadi.

Respublikada urbanizatsiya darajasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng past, ya'ni jami aholisining 36 foizga yaqini shaxarlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari Dushanbe, Xo'jand, Tursunzoda, Qo'rg'on tepa va boshqalardir. Respublikaning asosiy shaharlari aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan kichik shaharlardir. So'nggi yillarda shaharlarda yangi yangi sanoat korxonalari tashkil etilmoqda.

Aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lganligi sabali mehnat resurslariga boy. Mamlakat aholisining ko'pchiligini mehnatga layoqatli yoshlar tashkil etadi. Biroq respublikada mehnat resurslaridan unumli foydalanish to'liq yo'lga qo'yilmagan. Ayniqsa respublikaning tog'li mintaqalaridagi ko'plab aholi manzilgohlarida bir qancha ishsiz kishilar mavjud. Ularning asosiy qismi ayollar va yoshlardan iborat. Bu yerda aholini foydali mehnatga jalb etish dolzarb muammolardan biridir.

Tojikiston respublikasi aholisi MDH davlatlari orasida XX asr davomida son jihatdan eng ko'p o'sishga erishdi. So'nggi yuz yil orasida u 6,5 baravarga o'sdi. Aholining muhim demografik xususiyatlaridan biri tabiiy ko'payishko'rsatkichlarining mintaqada eng yuqori ekanligidir.

Tojikistonda tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining yuqori xolda kelayotganiga aholining milliy tarkibi ham sababchidir. 2016 yilda respublika aholisining 79,9 % ni tojiklar, 15,3 % ni o'zbeklar, 1,1 % ni ruslar, 1,1 % ni qirg'izlar, qolganlarini

boshqa millat vakillari (rasmiy ma'lumotlarga qaraganda respublikada 55 millat vakillari yashaydi, bu mintaqada eng past ko'rsatkichdir) tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, Tojikiston aholisining 97 % ga yaqini mahalliy millat vakillaridan iborat va ularda tabiiy o'sish ko'rsatkichlari an'anaviy ravishda yuqoridir.

Aholining Markaziycha zichligi har bir km^2 43 kishini tashkil qiladi. Ammo uniig 85 % respublika umumiy hududining 1/10 qismida yashaydi. Aholi zich yashaydigan Shimoliy Tojikistonning vodiy qismida Markaziycha zichlik 100-150 kishini, Hisor va Vahsh vodiylarida esa 30-100 kishini tashkil qiladi. Aksincha eng siyrak ko'rsatkichli hududlariga Tog'li Badaxshon to'g'ri keladi. Unda aholining Markaziycha zichligi har 1 km^2 bir kishini tashkil qiladi. Jami 19 shahar va 48 shaharchalari bor. Eng yirik shahri respublika poytaxti xisoblanadigan Dushanbe shahridir, unda 650000ga yaqin aholi bor. Xo'jand shahrida esa 162800 aholi bor. Boshqa shaharlarda aholi 150000dan kam, ular Markaziy va kichik shaharlardir.

Tojikistondagi demografik xolat aholisining 50 % dan kamrog'ining mehnat resurslaridan iboratligini ta'minlagan. Aksincha unda mehnat yoshigacha bo'lgan yoshdagilar hissasi ancha kattadir. Jami mehnatda band bo'lganlarning 20 % gina sanoatda va 46,8 % qishloq xo'jaligida (mintaqada eng yuqori) ishlaydi. Umuman respublika mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan.

Sanoatda yetakchi tarmoq qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi - paxta tozalash, ipakchilik, yog'-moy, konserva va boshqa korxonalar hisoblanadi. Ayniqsa bu tarmoq respublikaning shimoliy qismida Farg'ona vodiysida xamda Dushanbe shahri atroflarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. SHuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mashinasozlik tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Respublikada topilgan foydali qazilmalar asosida tog' kon sanoati, arzon gidroenergetika resurslari asosida esa rangdor metalurgiya va kimyo sanoatlari rivojlanib bormoqda. Respublikada elektr energiya ishlab chiqarish katta ahamiyatga egadir. Vaxsh daryosida qurilgan GES lar kaskadi asosida Janubiy Tojikiston hududiy ishlab chiqarish majmuasi (HICHM) tashkil topgan. Vaxsh daryosidagi Norak GES i o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning arzon energiyasi

asosida Tursunzoda alyumin zavodi ishga tushirildi. Bundan tashqari respublikada yirik Issiklik. elektr stantsiyalari ham bunyod etilgan. Bular Dushanbe, Yavon va boshqa shaxarlarda joylashgan. Mazkur IES va Vaxsh daryodagi GES lar Markaziy va janubiy Tojikistonni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi.

Respublikada ko'plab rangli metall konlari topilgan. SHy sababli bu yerda tog'-kon metallurgiya kombinati bunyod etilgan. Keyingi yillarda yangi sanoat turi- alyuminiy ishlab chiqarish rivojlandi. Tursunzoda aglkshinii zavodi nafaqat respublikada balki MDH davlatlari orasidaeng yirik korxonalardan biridir.

Respublikadagi Vaxsh zavodida ishlab chiqarilgan azotli o'g'itlar respublikadan tashqari qo'shni davlatlarda ham ishlatiladi. Arzon elektr energiya va yirik homashyo koni asosida Yavonda elektrokimyo zavodi ishga tushirilgan. Zavodda kalsiyli soda, suyuq xlor, xlorli ohak hamda maishiy kimyo maxsulotlari ishlab chiqariladi.

Mamlakat iqtisodiyotida mashinasozlikning Ham uz o'rni bor. Mashinasozlik korxonalari yirik shaharlar Dushanbe, Xo'jand, Qo'rg'ontepa va boshqalarda joylashgan. Mashinasozlik korxonalarida turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu korxonalarda qishloq xo'jaligi mashinalariga ehtiyot qismlardan tortib transformatorlar, elektr sanoati uchun detallar va boshqalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Xo'jand shahrida Rossiya bilan xamkorlikda PAZ avtobuslari yig'iladi. Bundan tashkari elektrotexnika, priborsozlik va boshqa ishlab chiqarii korxonalai qurilgan.

Tojikistonning yoqilg'i sanoatining asosini- kumir sanoati tashkil etadi. Respublikaning shuxolida sho'rob kumir koni joylashgan. Bu yerdan qazib olingan ko'mir mahalliy extiyojni qondirish uchun sarf bo'ladi, qisman qo'shni davlatlarga chiqariladi. Bundan tashqari Markaziy Tojikistonda, borish qiyin bo'lgan joyda Fan-Yangob koni joylashgan. Kondan asosan kokslanuvchi toshko'mir olinadi.

Qurilish materiallari, sanoatning asosini yirik sement zavodlari, temir beton-konstruksiyalari va ishlab chiqarish zavodlari tashkil etadi. Yengil sanoat tarmoqlaridan eng yiriklari paxta tozalash, to'qimachilik, tikuvchilik, oyoq kiyimi fabrikalari va boshqalardir.

Paxta tozalash zavodlari respublikada yetishtiriladigan jami paxtani qayta ishlaydi. Dushanbe shahrida yirik ip–gazlama kambinati ishga tushirilgan. Dushanbe, Xo'jand shaharlarida shoyi kombinatlari, Qayroqumda gilam to'qish kombinatlarida shoyi va gilam to'qish yo'lga qo'yilgan. Respublikada yengil sanoat tarmog'i kelajakda yanada rivojlantiri-ladi. Oziq-ovqat sanoatida vino va vino mahsulotlari, meva konservalari, mayiz, paxta va o'simlik (zig'ir, kunjut) moyi, un va un mahsulotlari, sut-go'sht mahsulotlari yetishtirish rivojlangan. Respublikada so'nggi yillardagi iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida sanoat mahsulotlari, ayniqsa to'qimachilik, tikuvchilik, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish nisbatan kamaygan.

Respublika qishloq xo'jaligida paxtachilik yetakchi tarmoq-lardan biridir. Bundan tashqari pillachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, tog'li mintaqalarda esa donchilik bog'dorchilik va chorvachilik rivojlangan.

Tojikiston tog'li o'lka bo'lganligi sababli xaydaladigan yerlar ko'p emas. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar Respublika xududining atiga 44 foizini tashkil etadi. Haydaladigan yerlar 19 foizdan oshmaydi. SHunga qaramasdan respublika ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z extiyojidan tashqari qo'shni mamlakatlarga ham eksport qiladi. Chetga asosan paxta tolasi, tamaki, sabzavot, poliz ekinlari, meva, uzum va boshqalarni chiqaradi.

Respublikada 1 mln tonnaga yaqin paxta yetishtiriladi. Farg'ona vodiysida oddiy, Vaxsh, Xisar vodiylarida esa ingichka topali paxta ekiladi. Tojikiston Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan qimmatbaho ingichka tolali paxtaning 50 foizini yetkazib beradi. Paxtaning bu navidan yukorri sifatli gazlamalar olinadi. Sug'orish inshootlarining yaxshilanishi yangi yerlarning o'zlashtirilishi kelajakda paxtachilik va boshqa kishloq xo'jalik ekinlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Tojikistoning agroiklim sharoiti bog'dorchilik va uzum-chilik uchun ham qulay. Respublikada shaftoli, o'rik, olma, nok, olcha, gilos, behi uzum, anjir, anor, bodom xurmo kabi mevalar yetishtiriladi. Bundam tashqari issiqsevar sabzavot va poliz ekinlari ham yetishtiriladi. Ayrim sabzavotlardan yiliga 2-3 martagacha hosil

olinadi. Chorvachilik - dehqonchilikdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Unda qishloq xo'jalik mahsulotlarining 30 foizi tayyorлана-di. Chorvachilik sut-go'sht chorvachiligi, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik tarmoqlariga bo'linadi. Qoramolchilikda sut-dan tashqari 50 foizga yaqin go'sht yetkazib beriladi. Qoramolchilik paxtachilik majmuasi bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlanmoqtsa. Qo'ychilik qoramolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ular asosan respublikadagi tabiiy yaylovlarda bokiladi. Mamlakatda hisori zotdor qo'ylari boqiladi. Bu qo'ylar yi-rikligi, tez semirishi bilan dunyoga mashhur. Uning og'irlige 120-130 kg dan ortadi. Respublikada qorako'l qo'ylarini boqish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qorako'l qo'ylari soni bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida Tojikiston oldingi o'rinlarda turadi.

Pomir tog'li xalqning asosiy chorvachiligi bo'lgan qo'toslar boqiladi. Bu hayvonlar sovuq iqlimga moslashgan bo'lib, ular-dan sut olish bilan birga yuk tashishda foydalaniladi. Ulardan Markaziycha 300-350 litr yog'li sut sog'ib olinadi.

Respublikaning barcha xududlarida (Tog'li Badaxshondan tashqari) qadimgi qishloq xo'jalik tarmog'i-pillachilik rivojlangan. Pilla yetishtirish bo'yicha Tojikiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida alohida o'rinda turadi.

Uncha katta bo'lmagan respublika xududi 8 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi, bular o'z navbatida uchta iqtisodiy zonaga birlashtiriladi:

- Janubiy g'arbiy Tojikiston.
- Shimoliy Tojikiston.
- Janubiy sharqiy Tojikiston.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda transportning ahamiyati beqiyosdir. Mintaqada barcha transport turlari-temir yo'li, avtomobil transportu quvur, suv va havo transportlari mavjud. Respublika hayotida temir yo'l va avtomobil transportlari yetakchi ahamiyatga ega. Temir yo'l transporti respublikaning ichki xududlararo, hamda uning tashqi aloqasida muhim o'rinni egallaydi. Mintaqa xududida tor izli va keng izli temir yo'llar o'tgan.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqasida Dushanbe-Termiz temir yo'lining ahamiyati katta. Bu yo'l orqali Tojikiston Markaziy Osiyo va boshqa MDH

davlatlari bilan bog'langan. 1970 yillarda mamlakatning janubiy sharqiy qismida Termiz-Qo'rg'ontepa-Yovon, hamda Vaxsh bilan Ko'lob vodiylarini tutashtiruvchi yangi temir yo'llar qurilgan. Rayonlararo yuk tashishda tog'li respublika bulganligi sababli avtomobil gransportining ahamiyati kattadir. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 13 ming km dan ortadi. Ularning 80 foizidan ortig'i qattiq koplamlı yo'llardir. Yirik avtomobil yo'llari Dushanbe shahridan boshlanadi. Dushanbe-Termiz, Dushanbe-Qo'rg'ontepa avtomagistrallari mamlakat poytaxtini O'zbekistonning port shahri Termiz hamda Qo'rg'ontepa viloyatining markazi Qo'rg'ontepa bilan bog'laydi. Dushanbe - Xo'jand, Dushanbe-Xorug' kabi avtomobil yo'llari vaqtincha ishlaydi. Qishki mavsumda dovonda qor ko'p bo'lgan davrlarda transport qatnovi to'xtatiladi.

Tog'li Badaxshon oblastidan qo'shni Qirg'izistonning O'sh shahriga ochilgan avtomobil yo'li Farg'ona vodiysi bilan bog'laydi. Yo'lovchilar temir yo'l, avtomobil va havo transportla-rida tashiladi. Ayniqsa ularni uzoq masofaga tashishda havo transportning ulushi kattadir. Havo transporti orqali mamlakat poytaxti barcha yirik shaharlari bilan bog'langan. Shuningdek Dushanbedan MDH davlatlarining Moskva, Sank-Peterburg, Toshkent, Novosibirsk shaharlari, Kavkaz or-ti mamlakatlari hamda boshqa xorijiy mamlakatlarga havo transporti qatnovi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda ichki suv transporti ham mavjud. Panj va Amudaryo orkali Markaziy Osiyoning ayrim davlatlari va Afg'oniston bilan iqtisodiy aloqa yo'lga qo'yilgan.

Respublika qo'shni davlatlar va xorijiy mamlakatlarga paxta tolasi, o'simlik yog'i, quruq meva, sabzavot va meva kon-seraalari, vino kabi mahsulotlar sotadi. Bundan tashqari mashinasozlik va elektrotexnika mahsulotlari: to'quv stanok-lar, transformatorlar, ro'zg'or xolodilniklari, avtomobil vatraktorlarga yordamchi qismlar, engil sanoat mahsulotlaridan ip va shoyi gazlamalar, gilam va boshqa ko'plab mahsulotlar yetkazib beradi.

Ishsizlik darajasi (%). 2018 yil 2,30 foizni tashkil qildi. Tojikistonda ishsizlik darajasi 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 2,42 foizni tashkil etdi.

Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda, Tojikistonda ishsizlik darajasi 2020 yilda 2.30 foizga yaqinlashishi kutilmoqda.

Ishsizlar soni. 2018 yilda 53,30 ming kishini tashkil etdi. Tojikistonda ishsizlar soni 1994 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 48,88 ming kishini tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, Tojikistonda ishsizlar soni, ekonometrik modellarimizga ko'ra, 2020 yilda 53,20 ming atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Inflyatsiya darajasi. 2018 yilda 7,50 foizni tashkil etdi. Tojikistonda inflyatsiya darajasi 1999 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 12,22 foizni tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda Tojikistonda inflyatsiya darajasi 2020 yilda 5,20 foiz atrofida bo'lishini prognoz qilmoqda.

Foiz stavkasi. 2018 yilda foiz stavkalari 13,25 foiz darajasida qayd etildi. Tojikistonda foiz stavkalari 2003 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 10,56 foizni tashkil etdi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikiston foiz stavkasi 2020 yilda taxminan 10,00 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Savdo balansi. Tojikistonda 2018 yilda savdo kamomadi 94,60 million dollarni tashkil qildi. Tojikistonda savdo balansi 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha -112,26 million dollarni tashkil qildi. Bashorat qilinishicha, ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning savdo balansi 2020 yilda taxminan 235,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Joriy hisob. 2018 yilda 117862.90 ming AQSh dollarini tashkil qildi. Tojikistonda joriy hisob o'rtacha 1998 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 47121,72 ming dollarni tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda, Tojikistonning joriy hisob raqami 2020 yilda 4600.00 ming dollargacha o'zgarishi kutilmoqda.

Davlatning YaIMga nisbatan qarzi. Tojikistonda 2018 yilda davlat qarzi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 47,90 foiziga teng bo'ldi. Davlatning Tojikiston yalpi ichki mahsulotidagi qarzi 1998 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 54,92 foizni tashkil etdi. Bizning iqtisodetrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning YaIMga nisbatan qarzi 2020 yilda 56,50 foizga o'sishi kutilmoqda.

Davlat byudjeti (YaIMga nisbatan). Tojikistonda 2017 yilda davlat byudjeti mamlakat yalpi ichki mahsulotining 0,30 foiziga teng taqchilligi qayd etildi. Tojikiston hukumatining byudjeti 1994 yildan 2017 yilgacha o'rtacha yalpi ichki mahsulotning 73 foizini tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, uzoq muddatli istiqbolda, Tojikiston hukumatining byudjeti 2020 yilda YaIMning taxminan 1,40 foizini tashkil qilishi kutilmoqda.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot. 2018 yilda 1073 AQSh dollarini tashkil qildi. Tojikistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot dunyo bo'yicha o'rtacha 8 foizni tashkil etadi. 1985 yildan 2018 yilgacha Tojikistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 800,30 AQSh dollarini tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 2020 yilda 1288,10 dollarni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsuloti. 2018 yilda 12873,83 million somoniygacha, 2017 yildagi 12985 million somoniydan tushdi. Tojikiston qishloq xo'jaligidan olinadigan YaIM 1995 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 4868,46 million so'mni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning qishloq xo'jaligidan YaIM 2020 yilda taxminan 15406.28 million somoniyni tashkil qilishi kutilmoqda.

Qurilish yalpi ichki mahsuloti. 2018 yilda 5999,10 million somoniydan 2017 yilda 6677,87 million somoniygacha ko'tarildi. Tojikistonda qurilishdan yalpi ichki mahsulot 1995 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1982,92 million somoniyni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning yalpi ichki mahsuloti 2020 yilda 7117,74 million somoniy atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Ishlab chiqarish yalpi ichki mahsuloti. 2018 yilda 10526,20 million somoniyga, 2017 yilda 9366.90 million somoniyga ko'tarildi. Tojikistonda ishlab chiqarish yalpi ichki mahsuloti 1995 yildan 2017 yilgacha o'rtacha 2941.97 million somoniyni tashkil qildi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning YaIM sanoati 2020 yilda 12488,99 million somoniy atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Xizmatlarning yalpi ichki mahsuloti. 2018 yil 9341.00 ni tashkil etdi. Tojikistonda xizmatlarning yalpi ichki mahsuloti 1995 yildan 2017 yilgacha

o'rtacha 2613,14 million somoniyni tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning YaIMdan xizmatlar hajmi 2020 yilda 10525.00 million somoniy atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Transportning yalpi ichki mahsuloti. 2018 yildagi 2017 yildagi 6781 million so'mdan 7435 million somoniygacha ko'tarildi. Tojikistonda transportdan tushgan yalpi ichki mahsulot 1995 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 2404,86 million somoniyni tashkil etdi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning Yalpi ichki mahsulotidan (YaIM) 2020 yilda 8826.49 million somoniy atrofida tendentsiya kutilmoqda.

Ish bilan band bo'lganlar soni. 2018 yilning to'rtinchi choragida 2257,90 mingni tashkil etdi. 2000 yildan 2018 yilgacha Tojikistonda ish bilan band bo'lganlar o'rtacha 1420.84 ming kishini tashkil qildi.

Ish haqi. 2018 yilda (oyiga) 1466.40 somoniyni tashkil etdi. Tojikistonda ish haqi 1995 yildan 2018 yilgacha oyiga o'rtacha 406,84 somoniyni tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonda o'rtacha oylik ish haqi 2020 yilda oyiga o'rtacha 1700.00 so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Pensiya yoshidagi erkaklar. 2018 yil hisobiga ko'ra 63 yoshni tashkil etdi.

Pensiya yoshidagi ayollar. 2018 yil hisobiga ko'ra 58 yoshni tashkil etdi.

Oziq-ovqat inflyatsiyasi. 2018 yilda Tojikistonda oziq-ovqat narxi o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 11,90 foizga oshdi. 1999 yildan 2018 yilgacha Tojikistonda oziq-ovqat inflyatsiyasi o'rtacha 12,45 foizni tashkil etdi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonda oziq-ovqat inflyatsiyasi 2020 yilda taxminan 5.50 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Eksport. 2018 yil 94,70 million AQSh dollarini tashkil etdi. Tojikistonda eksport 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 87,96 million dollarni tashkil qildi. 2017 yilning rekord darajadagi 291,80 million dollarga etdi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikiston eksporti 2020 yilda 110.00 million dollarga yaqinlashishi kutilmoqda.

Import. 2018 yil 213,30 million AQSh dollarini tashkil qildi. Tojikistonda import 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 200,23 million dollarni tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikiston importi 2020 yilda 330,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Oltin zaxiralari. 2018 yilda 22,33 tonnani tashkil qildi. Tojikistonda oltin zaxiralari 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 5,38 tonnani tashkil etdi. Bizning ekonometrik modellarimizga ko'ra, Tojikiston oltin zaxiralari 2020 yilda 16,90 tonna atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Xom neft qazib olish. 2018 yilda 0,18 BBL / D / 1K ni taskil etdi. Tojikistonda xom neft qazib olish 1994 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 0,29 BBL / D / 1K ga etdi.

Tashqi qarzi. 2018 yilda 2274,10 million dollarni qayd etdi. Tojikistonning tashqi qarzi 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 1521,50 million dollarni tashkil qildi. Uzoq muddatli istiqbolda, bizning iqtisodetrik modellarimizga ko'ra, Tojikistonning umumiy tashqi qarzi 2020 yilda 2530,00 AQSh dollari atrofida o'zgarishi kutilmoqda.

Davlat daromadi. 2018 yilda 11998 million somoniyni tashkil etdi. Tojikistonda davlat daromadlari 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 3706,89 million somoniyni tashkil qildi.

Kredit reytingi. "Standard & Poor's" ning Tojikiston uchun kredit reytingi "Barqaror" prognozi bilan "B" darajasida. Moody'sning Tojikiston uchun kredit reytingi oxirgi marta B3 darajasida, prognozi salbiy Umuman olganda, kredit reytingi suveren boyliklar fondlari, pensiya jamg'armalari va boshqa investorlar tomonidan Tojikistonning kreditga layoqatini aniqlash uchun ishlatiladi va shu bilan mamlakatning qarz olish xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sahifada yirik kredit reyting agentliklarining xabar berishicha Tojikiston uchun hukumatning qarz qarzlar reytingi mavjud.

Davlat byudjeti. Tojikiston 2018 yilda davlat byudjetining taqchilligi 1156,40 million somoniyni qayd etdi. Tojikistonda davlat byudjetining qiymati 2000 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 171,41 million somoniyni tashkil qildi.

Harbiy xarajatlar. 2017 yilda 74 million AQSh dollaridan 2018 yilda 79,70 million dollarga yetdi. Tojikistonda harbiy xarajatlar 1998 yildan 2018 yilgacha o'rtacha 40,43 million dollarni tashkil etdi.*Manba: SIPRI*

Nazorat savollari

- 1.Tojikistonning geografik o'rniga ta'rif bering.
- 2.Mamlakat qanday tarkib topgan?
- 3.Mamlakatning tabiiy sharoitiga baho bering.
- 4.Mamlakat qanday tabiiy resurslarga boy va ular mamlakat iqtisodiy rivojlanishida qanday rol o'ynaydi?
- 5.Mamlakat aholisi va ularning joylashuv xususiyatlarini ayting.

IQTISODIY GEOGRAFIK TERMINLAR

Asosiy turmush darajasi - inson va uning oilasining salomatligi va farovonligi uchun yetarli darajada yashash darajasi.

Aglomeratsiyani tejash - cheklangan hududda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning konsentratsiyasi. Bu mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi va transport xarajatlarining pasayishi tufayli qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Aglomeratsiya effekti - bu joylashtiriladigan yoki ixcham joylashtirilgan ob'ektlar bilan ifoda etilgan murakkab joylashtirish omili.

Anamorfik kartografik rasm (anomorfoid) - bu xaritadir, uning bazasi aniq buzilgan, ya'ni bazasi allaqachon ma'lum ma'lumotlarni o'z ichiga olgan (masalan, dunyo xaritasida davlatlar sonini ularning aholisiga mutanosib ravishda ko'rsatish mumkin).

Antropogeografiya - ijtimoiy geografiyadagi maktab, uning asosiy ob'ekti insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati va o'zaro ta'siri.

A.Lyosha modeli ("iqtisodiy manzara") - V. Kristler tomonidan shaharlarni maqbul taqsimlashning takomillashtirilgan modeli. A. Lesh modelni real dunyoga yaqinlashtiradigan qo'shimcha omillar kiritdi (asosiysi - ushbu hududning barcha aholi punktlari uchun umumiy markaziy joy: mamlakatning eng muhim iqtisodiy markazlaridan biri).

Biznes - odatda foyda olish uchun tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanadigan tashkilot, korxona yoki biznes.

Biznes muhiti - biznes, sanoat yoki bozorga ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy voqealar yoki tendentsiyalar.

Biznes faoliyati - korxona tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha faoliyat.

Bozor iqtisodiyoti - Bozorlar yordamida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlashni muvofiqlashtiruvchi tizim.

Barqaror rivojlanish - kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatidan mahrum holda hozirgi zamon ehtiyojlariga javob beradigan rivojlanishehtiyojlar. Barqaror rivojlanish resurslari ularning kelajagi va hozirgi foydalanish uchun qadrlaydi.

Ehtiyojlar - iqtisodiyotda iste'molchilar turmush darajasini saqlab qolish uchun zarur deb hisoblaydigan yaxshi yoki xizmat.

Genogeografiya - bu tirik organizmlar va odamlarning xarakterli irsiy xususiyatlarini Yerning turli geografik hududlarida tarqalishini o'rganish.

Geografik determinizm (geografik determinizm tushunchasi) - bu geografik sharoitlar davlatlar va jamiyatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy

hayotining o'ziga xos xususiyatlarini oldindan belgilab beradigan, ularning milliy ruhi va milliy xususiyatini shakllantiradigan tushuncha.

Geografik fazo (geokosmos) - ma'lum bir hududda joylashgan va vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradigan geografik ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlar majmui.

Geoiqtisodiyot - global iqtisodiyot va geosiyosat chorrahasida joylashgan fan.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim - bu ijtimoiy bo'linish va mehnat birlashuvining bo'g'ini sifatida ma'lum bir hududda maqsadli ravishda faoliyat ko'rsatadigan jamiyat elementlarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy landshaft - turli xil tovarlar va xizmatlarning bozor zonalarini o'zaro aralashtirish. Termin (tushuncha sifatida) nemis iqtisodchisi A. Losh tomonidan ishlab chiqilgan. Model A. Lyosha-ga qarang.

Iqtisodiy masofa - ob'ektlar orasidagi transport yo'nalishlarini (yo'nalishlarini) hisobga olgan holda vaqt yoki qiymat birliklarida hisoblangan ob'ektlar orasidagi masofa

Iqtisodiy mintaq - ixtisosligi (asosiy milliy iqtisodiy funktsiya), rivojlanish murakkabligi (iqtisodiy va hududiy tuzilmalarning eng muhim elementlarining o'zaro bog'liqligi), shuningdek, yagona boshqaruv tizimining mavjudligi bilan boshqalardan ajralib turadigan hudud.

Iqtisodiy rivojlanish - Turmush darajasining miqdoriy (chiqishi va qiymati) va sifat jihatidan yaxshilanishi.

Iqtisodiy o'sish - Vaqt o'tishi bilan iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar hajmining o'sishi.

Iqtisodiy asos - Iqtisodiy voqealar va o'zgarishlarning mumkin bo'lgan sabablari va oqibatlarini tushunish uchun iqtisodiy tamoyillarni qo'llash.

Iqtisodiy barqarorlik - Hozirgi zamonning iqtisodiy ehtiyojlarini kelajak avlodlarning qondirish qobiliyatidan mahrum holda qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiy faoliyat.

Iqtisodiy tizim - Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlashni muvofiqlashtiruvchi tizim.

Iqtisodiyot - Hududda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish maqsadida amalga oshiriladigan barcha tadbirlar.

Ishlab chiqarish omillari - Yer, ishchi kuchi, kapital va korxona sifatida tasniflanadigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar.

Iqtisodiy-matematik usullari - Iqtisodiy va matematik fanlar majmuasi.

Iqtisodiy va matematik modellar - Iqtisodiy jarayon yoki ob'ektning matematik tavsifi. Ta'rif tavsifli (boshqariladigan parametrlarni o'z ichiga olmaydi) va konstlarga bo'linadi.

Iqtisodiy makonning sifati - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan mamlakatning ayrim hududlarining yaqinlik darajasini aks ettiruvchi bir xillik (turlicha); iqtisodiy makonning ichki bog'lanishidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi integratsiya (parchalanish).

Ishlab chiqaruvchi kuchlar - bu insonning ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatni o'zgartirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning subyektiv va ob'ektiv omillari.

Korxona - Daromadga yo'naltirilgan, notijorat, xususiy yoki davlat tomonidan boshqariladigan va shu kabi biznes birligi, kompaniya yoki loyiha tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish.

Mekansal jarayonlar - iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan ularning hududiy jihatidan ahamiyatli bo'lgan jarayonlar (kontsentratsiya, harakat, ob'ektlarning yaratilishi va yo'q bo'lib ketishi va boshqalar).

Mekansal tuzilmalar(iqtisodiyot va turar joyning hududiy tuzilmalari turlari) - bu keng miqyosli hodisa va jarayonlar uchun ishlatiladigan umumlashtirilgan geografik ob'ektlardir. Ular bo'lishi mumkin: radial-ring, hovuz va boshqalar.

Mutlaq ustunlik - Tovar va xizmatlarni boshqa davlatlarga qaraganda samaraliroq ishlab chiqarishda mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lishi.

Modellashtirish (geografiyada) - hodisa va jarayonlarning hududiy taqsimlanishi va o'zaro ta'sirining modellarini yaratish.

Nodal (funktsional)- rayonlashtirish rayonlashtirish turlaridan biridir. U hududlar orasidagi iqtisodiy aloqalarning intensivligiga qarab taqsimlanishni taklif qiladi, shaharlar, transport markazlari, korxonalar ta'sir doirasini ochib beradi. Ko'rsatkichlar minimal qiymatlarni oladigan tuman chegaralari chiziladi.

O'zaro bog'liqlik - Iqtisodiyot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Samaradorlik - Minimal resurslardan foydalangan holda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish; tovarlar va xizmatlarning eng ko'p miqdorini olish, cheklangan manbalardan; resurslarni isrof qilishdan qochish.

Sanoat klasterlari nazariyasi - bu bir xil sanoat (sub-sanoat) sanoatining yaqin atrofdagi korxonalarini joylashtirish samarali deb hisoblanadigan sanoat joylashuvi nazariyasi.

Sanoat sektori - Tadbirkorlik faoliyati sohasi. Korxonalar sanoatning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlarida faoliyat yuritadilar. Birlamchisanoat tabiiy resurslardan (masalan, qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati) foydalanish va qazib olish orqali mahsulot ishlab chiqaradi. Ikkilamchi sanoat

asosiy sanoat materiallarini tayyor mahsulotga aylantirish bilan bog'liq (masalan, ishlab chiqarish, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari). Uchinchi tarmoq xizmatlar ko'rsatadi (masalan, axborot, turizm va telekommunikatsiya).

Siyosiy geografiya - bu bir davlat yoki davlatlar guruhining boshqasiga nisbatan (yoki allaqachon boshlangan tajovuzni toraytirish uchun) tajovuzining yoki boshqa kengayishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Tadbirkorlik faoliyati - Korxona tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha faoliyat.

Tijorat geografiyasi - geografiyada turli xalqlarning savdo aloqalarini tavsiflovchi va mamlakatning barcha iqtisodiy aloqalarini, jug'rofiy, siyosiy va madaniy sharoitlariga qarab aks ettiradigan yo'nalish.

Talab koni - iste'mol qilinadigan mahsulotlar miqdorining markaziy joyga bo'lgan masofaga bog'liqligini grafik aks ettirish (markazdan masofaga kamayadi).

Turmush darajasi - Bunday omillar bilan o'lchanadigan aholining (masalan, millat yoki ijtimoiy-iqtisodiy guruh) boyligi va iste'moli darajasi.

Tadbirkor - Muvaffaqiyatli biznesni yangi sohada qurishni maqsad qilgan kishi. Ba'zida tadbirkorning usullari deb hisoblanadi.

Tenglik - Qashshoq manbalardan qanday foydalanish va ishlab chiqarishning afzalliklarini taqsimlashning aniqligi.

Tashqi ko'rinish - Farovonligiga ta'sir ko'rsatadigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq kompensatsiya qilinmagan qiymat yoki foyda.

Tumanlararo mehnat taqsimoti - bu bir mamlakat mintaqalarining ma'lum bir turdagi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va ular o'rtasidagi almashinishga ixtisoslashuvidir.

Xalqaro mehnat taqsimoti (MRT) - bu alohida davlatlar iqtisodiyotining ular almashadigan (savdo qiladigan) mahsulot va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidir. MRI iqtisodiy hayotning xalqarolashuvi va davlatlarning tinch-totuv yashashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) - Vaqtinchalik mamlakatda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati.

Weber modeli - sanoatlarni "izolyatsiya qilingan" davlatning ideal sharoitida joylashtirish modeli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyotabiiy geografiyasi. –T.: O'qituvchi, 2002.
2. Hasanov I., G'ulomov P. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -T.: Universitet, 2002.
3. Hasanov I., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1-qism). O'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 2007.
4. Hasanov I., G'ulomov P.N., Qayumov A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-qism). O'quv qo'llanma. -T.: Universitet, 2010.
5. Boltayev M. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. (O'quv qo'llanma). –T., 2003.
6. Qayumov A., Pardaev G', Islomov I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. (O'rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. (O'quv qo'llanma). -T., 2007.
7. Boymirzayev K. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. (O'quv qo'llanma). -Namangan, 2009.
8. Майтдинова Г.М. Модели интеграции государств Центральной Азии: за и против // Мат-лы междунар. конф. «Проекты сотрудничества и интеграции для Центральной Азии: сравнительный анализ, возможности и перспективы. -Бишкек, 2007, с. 123.

Elektron manbalar

9. <http://tradingeconomics.com>
10. <http://infostat.uz>
11. <http://diagramma.uz>
12. <http://statistika.uz>
13. <http://www.wesmirbook.ru>
14. <http://www.centrasia.ru>
15. www.economist.com
16. www.cia.gov
17. www.uzdaily.com
18. www.uzneftegaz.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI.....	5
II-BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI.....	27
III-BOB QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI.....	53
IV-BOB QIRG'IZISTON RESPUBLIKASI.....	76
V-BOB TURKMANISTON RESPUBLIKASI.....	91
VI-BOB TOJIKISTON RESPUBLIKASI.....	104
IQTISODIY GEOGRAFIK TERMINLAR	121
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	125
ILOVALAR.....	127


ILOVALAR

Rossiyadan O'zbekistonga pul
jo'natmalari miqdori



1- ilova. Rossiyadan O'zbekistonga pul jo'natmalari miqdori (2014-2017 yillar)


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining uzoq davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*



2- ilova. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlat kesimidagi soni




3- ilova. Mobil Internet eng qimmat bo`lgan davlatlar



4- ilova. O`zbekistonda dasturiy mahsulotlar va xizmatlar eksporti hajmi


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha ulushi, foizda




6- ilova. Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




7- ilova. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




8- ilova. O'zbekistonda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (mlrd, so'm)



9- ilova. O'zbekistonda moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar (2018 yil, % hisobida)



10- ilova. Qarzlar va kreditlar olingan mamlakatlar hamda moliya institutlari



11- ilova. Davlat byudjetiga egri soliqlar tushishi dinamikasi




12-ilova.O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2018 yil holatiga)




13- ilova. Qirg'izistonning 2008-2017 yillarda yalpi ichki mahsuloti

2008-2017 yillarda YaIM (mlrd. AQSH dollari)




**2008-2017 yillarda aholijon boshiga
YaIM (AQSH dollari)**




14- ilova. Qozog'istonning 2008-2017 yillarda yalpi ichki mahsuloti


2008-2017 yillarda YaIM (mlrd. AQSH dollari)




**2008-2017 yillarda aholi jon boshiga
YaIM (AQSH dollari)**



15- ilova. Turkmanistonning 2008-2017 yillarda yalpi ichki mahsuloti



17-ilova. Tug'ilgan va o'lganlar soni (2018 yil holatiga, kishi)



31- ilova. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi